Эдварс синдроми юздаги стигмалар?	Барчаси	Эпикант	Ковокларптози	Микрофтамия
Агар пурин асоси пиримидин бн алмашса нима дейилади?	Трансверсия	Инверсиянт	Трансплантант	Т.ж.й
Агар пурин асоси 2-пурин асоси бн алмашса нима дейилади?	Транзиция	экзафтальм	Трансплантант	Т.ж.й
Пастки жагнинг кичиклиги бу...?	Микрогения	Микроцефалия	Прогенез	Экзофтальм
Транслокация бу...?	Генлар жойининг узгариши	Хромосомаларда алмашинув	Генларда алмашинув	Т.ж.й
Кандли диабетда учрайдиган белги?	Поллакиурия	яра	Гипотерёз	Гипертериоз
Фенилкетонуриянинг учраш частотаси?	1:1000	1:2500	1:3500	1:4500
Аргининимия ирсийланиш типи?	Аутосомарециссив	Аутосомдоминант	Чаладоминант	Рициссив
Арахнодактилия бошкча номи?	Морфан синдроми	Фенилкетонурия	Аллаплоидея	Алкоптонурия
Углевод алмашинуви бузилиши касалликлари га киради?	Барчаси	Галлактоземия	Микополиса харидоз	Муковицидоз
Эссенсиал фруктозурияни доволаш?	Хожати йук	Дорилар	Пархез	Витаминотерапия
Фруктозани узлаштиролмаслик касаллигида сийдикда фруктоза микдори?	100-130 мг	200 мг	300 мг	400 мг
Фруктозани узлаштиролмаслик касаллигини доволаш?	Фруктозадан пархез	Витаминотерапия усули	Дорилар билан доволаш	Т.ж.й
Муковицидоз бу...?	Ошкозон ости безининг кистози ва фибрози	Ёғ алмашинуви бузилиши	Углевод алмашинуви бузилиши	Оксил алмашинуви бузилиши
Липидлар	Барчаси	Плазматик	I-типли	II-тип

алмашинув бузилиши касалликлари?		липоидоз	липоидоз	липоидоз
II-типдаги липоидоз касаллиги ирсийланиш тип?	Аутосом- доминант	Аутосом рецесив	Чала доминант	Рецесив
I-тип липоидозда кон таркибида кайси модда аникланади?	Хиломикрон	Галактоза	Глюкоза	сахароза
I-тип липоидоз ирсийланиш тип?	Аутосома рецесив	Аутосома доминант	Тулик доминант	Чала доминант
I-тип липоидозни даволашда бир кунда неча гр ёг берилади?	2-3	5	7	15
Аминокислота алмашинуви касалликлари?	Барчаси	Фенилкетонурия	Аргининемия	Алкоптонурия
Оксил алмашинуви касалликлари?	Барчаси	Агамма глобулинемия	Албинизм	Арахнодоктелия
Долихоцефалия, прогнатия, баъзан сколиоз, ясси оёклик кузатилади. Бу кайси касаллик?	Арахнодоктия	Даун синдроми	Эдварс синдроми	Лежен синдроми
Кон плазмасида аргинин микдори ортади, орнитин камаяди. Кайси касалликда?	Аргининемия	Даун синдроми	Эдварс конуни	Лежен синдроми
Фенилкетонурия белгилари қачон юзага келади?	Тугилгандан кейин	1 ёшлигида	3 ёшда	5 ёшда
Фенилкетонурияда касалнинг танасидан қандай хид келади?	Сичкон	Ацетон хиди	Спирт хиди	Мочевина хиди
Аргининемия касаллиги белгилари?	Барчаси	Томир тортишиш	Қусиш	гепатомегалия
Сийдик қора рангли склера ва шиллик қаватлар қорайиши қайси касалликда қузатилади?	Ал каптонурия	Галактоземия	Глюкозурия	Гепатомегалия
Галактоземия	1:70000	1:8000	1:6000	1:4000

ирсийланиш типиди ?				
Фруктозани узлаштирилмаслик касаллиги купрок кайси жинсда учрайди?	Угил болалар	Киз болаларда	Факат кариаларда	Урта ёшларда
Олигофрения бу...?	Аклий заифли	Калта буйин	Соч тукилиш	Фалажлик
Жинсий хромасома касалликларига киради?	В ва С	Клайн-фелтер	Шершевский-тернер	Даун синдроми
Тиббиёт генетикасида кулланиладиган методлар?	Барчаси	Дерматоглифика	Молекуляр генетика	Цитогенетик
Эрта кариш нима дейилади?	Прогерия	Прогмиян	Олигофрен	Шизофрен
Товондаги чизикларни урганиш?	Плантоскопия	Доктелоскоп	Палмаскоп	Т.ж.й
Аутосома-доминант касалликларига киради?	Барчаси	Вильямс синдроми	Робинова синдроми	Морфана синдроми
Аутосома-рецессив касалликларига киради?	Барчаси	Гидроцефалия	Гемафилия	Нунан синдроми
Ахоли сони 1500-4000 гача булса ... дейилади?	Демлар	Панмикция	Изолятция	Изолятцияларда
Мукополисахарид озларнинг нечанчи типиди беморлар 60-70 ёшгача яшайди?	2 типиди	Марфан синдромида	Моркио касаллигида	мукополисахаридозларда бемор куп яшайди
Мукополисахарид озларнинг нечанчи типиди беморлар 10-12 ёшгача яшайди?	1 типиди	Марфан синдромида	Тугри жавоб йук	мукополисахаридозларда бемор куп яшайди
Касаллик 4-5 ойдан бошланиб харакат фаоллиги ва куриш уткирлиги сусаяди, кур булиб колишгача боради, бу кандай касалликда учрайди?	Тей-Сакс амовротик идиотияси	алькаптонурия	галактоземия	аргининемия
Демлар ва	75-100 йил	70 йил	60 йил	50 йил

изолятцияларда 3-4 авлод алмашинуви?				
Конда сийдик кислота микдори 0,5 дан куп булса кайси перепарат берилади/	Атофан	Алло пуриноп	Ке тазон	Ин доп
Хомуладорликнинг кайси хафталарда текшириш 90%канча ишончли булади?	11-17хафта	20 хафта	14 хафта	22 хафта
1 миллион аҳолига нечта тиббий-генетик маслахатхона зарур?	1 та	2 та	4 та	зарур эмас
1 тип мукополисахаридозга хос белгиларни курсатиб биласизми?	огир кечиб, боланинг 10-12 ёшида улимнинг сабаби булади	соматик нуксонлар енгил кечиб,чукур олигофрения	Глюкозурия ва соч йуклиги	скелет деформацияси
1 типдаги липоидоз клиник симптомлари қачон пайдо булади?	касаллик 10 ёшгача бошланади	касаллик 17 ёшда бошланади	1 ва 3 жавоблар тугри	касаллик 23 ёшда бошланади
Мукополисахаридозларнинг 1 типини қандай номланади?	Гурлер синдроми	Шейе касаллиги	Марфана синдроми	Моркио касаллиги
Мукополисахаридозларнинг 1типида касаллар неча ёшгача яшайди?	10-12 ёшгача	1-18 ёшгача	1-2 ойгача	5-77ёшгача
Храмасома елкасини 180°га айланиши?	Инверсия	Трисомия	Т.ж.й	Дупликация
2 типдаги липоидоз клиник симптомларини биласизми?	болалик ёшида пай,тубероз ксантомалари шаклида бошланади	касаллик етук ёшида бошланади	1 ва 2 жавоблар тугри	касаллик 20 ёшда бошланади
Мукополисахаридозларнинг 2 типини қандай номланади?	Гунтер синдроми	Шейе касаллиги	Марфана синдроми	Моркио касаллиги
Мукополисахаридозларнинг 2типида касаллар неча	60-80 ёшгача	1-2 ёшгача	1-2 ойгача	5-6 ёшгача

ёшгача яшайди?				
Сийдик йулларнинг 2га булиниши кайси ирсий касалликда тез-тез учраб туради?	Шершевский-Тернер синдромида	Патау синдромида	Эдвардс синдромида	Даун синдромида
Хромосомаларнинг диплоид тупламида 2та гомологик хромосомалардан бирининг етишмаслиги нима дейилади?	Моносомия	мутация	трисомия	инверсия
Тиббиёт генитика маслахати 3 боскичи?	Хулоса	Ташхис	Курув	Даволаш
Гиперлипидемиянинг 5та асосий типга булиб урганилиши кайси олим таклиф қилган?	Фридриксон	Леже	Тернери	Патау
Гемоглобинопаияда 6 ҳолатда валин глютамин кислотаси алмашишининг бузилиши кайси касалликда кузатилади?	урокусимон камқонлик	муковисцидоз	Тугри жавоб йук	ФКУ
Кейинги 10 йил ичида подагра Билан касалланиш неча барабар ортган/	2,5	4,6	6,8	44,4
46 хх еки ху 5р кайси касаллик генотиби	Мушук чинкириги	Патау	Шершевский	Клайнфелтр
13, 18, 21 аутосомалар трисомияси билан тугилган болаларнинг оналарини ёши неча ёшдан юкори булади?	35 ёшдан юкори	50 ёшдан юкори	18 ёшдан юкори	70 ёшдан юкори
Генотипда 47, XX (ёки XY),+18 кандай касаллик	Эдвардс синдроми	Патау синдром	Даун синдром	Шершевский Тернер
Ахоли сони 1500	Изоляциялард	Демлар	Популяциял	Т.ж.й

гача ... бўлса?	а		ар	
1924 йилда сименс томонидан таклиф этилган ухшашлик усули	Полисимптом	Феносимптом ва Полисимптом	Моносимптом хисобланади	Трисимптом , Моносимптом
1959 йилда Ким Даун синдромида хромасомалар сонининг аномалиясини аниклаган/	Леже	Даун	Мендел	Морган

II ASOSIY QISM

Ma`ruza mashg'ulotlarining ta`lim texnologiyasi.

1-mavzu : Tibbiy genetika tekshirish usullari.

1.1.Ta`lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 16-40 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza.
Ma`ruza rejasi	Tibbiyot genetikasi usullarini qadimiy va hozirgi zamon tibbiyot genetikasining rivojlanish tarixini, tibbiyot genetikasi fanining vazifasini o`rgatish
O`quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga tibbiy genetika tarixi, uning yutuqlari, unga asos solgan olimlar ,uning kelajagi to`g`risida ma'lumot berish.Tibbiyot genetikasi usullarini o`rgatish, irsiyat va o`zgaruvchanlikni o`rgatish, irsiy kasalliklarni kelib chiqishi, irsiylanish tabiati, populyatsiyada tarqalishi, molekula va hujayra darajasida sodir bo`ladigan jarayonlarni o`rgatish.
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali,ma`ruza,suhbat
Ta`lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma,darslik,ma`ruza matni,proektor,kompyuter
Ta`lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	. Og`zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Ma`ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daq.)	1.Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash</p> <p>3. Fanni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish - Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. - Meditsinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman -	Tinglaydi Yozib oladi

	Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P., Zaxarov A.F., Ivanov V.I., Meditsina, 1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Oshonkulov O.O. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi: Maqsadi: Talabalarga tibbiy genetika tarixi, uning yutuqlari, unga asos solgan olimlar, uning kelajagi to'g'risida ma'lumot berish. Tibbiyot genetikasi usullarini o'rgatish, irsiyat va o'zgaruvchanlikni o'rgatish, irsiy kasalliklarni kelib chiqishi, irsiylanish tabiati, populyatsiyada tarqalishi, molekula va hujayra darajasida sodir bo'ladigan jarayonlarni o'rgatish. Vazifasi: • Shajara tuzishni. • Egizaklar usulini • Geneologik usulni. • DNK zondlash usulini • Sitogenetik usulni • Bioximiyaviy tekshirish usulini • Dermatoglifika usulini <u>Talaba bilishi kerak;</u> • Avlodlar shajarasini tuzish • Kariotipni aniqlash	Tinglaydilar, berilgan savollarga javob beradilar.
2-asosiy bosqich (55 daq.)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydlar namoyish qilish 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar, yozib oladi.
yakuniy bosqich (10 daq.)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Tinglaydi Yozib oladi Yozib oladi

Ma'ruza matni:

Genetika termini 1906 yilda U. Betson tomonidan taklif kilingan bo'lib, yunoncha "gepeiko5" so'zidan olingan va kelib chiqishga taalluqli degan ma'noni anglatadi. Genetika fani tirik organizmlarning ikki asosiy xususiyatlari - irsiyat va uzgaruvchanlik qonuniyatlarini urganadi. G.Mendel o'zining nuxotlar ustida o'tkazgan klassik tajribalari bilan irsiyat va o'zgaruvchanlik xodisalarini ilmiy o'rganishni boshlab berdi (1865). Pekin Mendel kashf qilgan irsiyat qonuniyatlari 35 yilgacha zamondoshlarning e'tiborini jalb etmadi, fakat 1900 yildan boshlab, irsiyat qonuniyatlari keyta kashf qilingandan keyin, Mendel qonunlari hamma olimlar tomonidan e'tirof etildi va genetika aloxida fan sifatida rivojlana boshladi. O'sha vaqtdan boshlab genetika fani uzok va murakxab yo'lni bosib o'tdi va ko'p sonli mustaqil bo'limlarga ajraldi. Bu bo'limlar aloxida fan sifatida rivojlanmoqda, ular genetika fanining yangi kashfiyotlari - matematika, fizika, kimyo evolyutsion ta'limot, tsitologiya, tibbiyot va boshqa fanlarning yutuqlaridan foydalanish natijasida tashkil topdi. Genetika fundamental (poydevor) va amaliy fan hisoblanadi. Uning fundamentalligi - tiriklikning asosiy xususiyatlari - irsiyat va o'zgaruvchanlikni o'rganishi, boshqa fanlarga katta ta'sir ko'rsatishiga bog'liqdir. Genetikaning amaliy xarakteri uning amaliy maqsadlarda, seleksiyada, sog'oliqni saklashda foydalanilishiga bog'liqdir. Xozirgi zamon genetikasining asosiy tushunchalaridan biri gen xisoblanadi. Gen irsiy informatsiyaning saqlanishi, kuzatilishi va amalga oshirilishi birligidir. 1900 yildan keyin irsiyatning mexanizmlari o'rganila boshlandi, natijada irsiy kod, transkripsiya, translyatsiya va ma'lum genlar tomonidan kodlanadigan oqsillarning funktsiyalanish mexanizmlari kashf qilindi. Xozirgi davrda genetika fanida genlar nafis tuzilishini o'rganish"shaxsning individual rivojlanishi jarayonida genlarfaoliyatining boshqarilishi kabi murakkab muammolar ustida ilmiy izlanishlar o'tkazilmoqda; XIX asrning ikkinchi yarmigacha irsiyat xodisasi ilmiy jixatdan umuman o'rganilmagan edi. Ammo o'sha davridayoq bolalarning hamma vaqt ham ota-onalarga o'xshayvermasligi, ba'zi kasalliklarning ayrim oilalarda uchrashi, o'simlik va xayvonlarning xususiyatlarini chatishtirish yo'li bilan yaxshilash mumkinligi ma'lum edi, tibbiyot sohasida ayrim empirik qonunlar keltirib chiqarilgan edi. Masalan gemofiliya bilan faqat avil bolalar kasallanishi, lekin kasallik onalardan o'tishi (Nasse konuni) aniqlangan edi. Lekin odam genetikasining rivojlanishiga ijtimoiy va siyosiy munosabatlar hamma vaqt ta'sir ko'rsatib keldi. Kuning uchun xam antropogenetikaning "sof fan" bo'lib qolishi qiyin edi. Hatto hozirgi davrda xam 1S (intellekt koeffitsienti) irsiylanishi, xulaning tuma shakllarining mavjudligi muammolari jamoatda har xil baxslarning kelib chiqishiga sabab bo'lib kelmokda. Irsiyat to'grisida dastlabki tushunchalarni antiq davrdagi kdtsimgi yunon faylasuflarining asarlarida topish mumkin. Masalan Gippokrat shunday yozgan edi: "urug butun tanani hosil qiladi, sog'lom urugdantananing sog'lom qismlari, kasal uruglardan esa kasal qismlar hosil bo'ladi. Kaldan kal bola, ko'k ko'zlidan ko'k ko'zli bola, gilaydan g'ilay, tuxumsimon kallalidan tuxumsimon kallali farzandlar dunyo'ga keladi". Anaksagor va Aristotelning xam irsiyat va jinsning shakllanishi to'grisidagi dunyoqarashlari diqqatga sazovordir. Platon uzining "Siyosat" degan asarida jismoniy va ma'naviy

sog'lom bolalar tugilishi uchun er-xotinlarni qanday tanlashni, bolalarni qanday tarbiyalashni tushuntiradi.

Tibbiyot genetikasi usullari.

Antropogenetikaning bir qismi bo'lgan tibbiyot genetikasining asosiy tekshirish usullaridan tibbiyot amaliyotiga moslashtirilgan holda foydalaniladi. Odam irsiyatini o'rganish usullarini ishlab chiqishda Frensiya Galtonning xizmatlari buyukdir. U o'z tadqiqotlarida genealogiya va egizaklar usullaridan keng foydalandi, shogirdi K.Pirson bilan hamkorlikda biometrik genetikaga asos soldi. Hozirgi davrda tibbiyot genetikasining usullari soni ancha ko'payib, hatto molekulyar biologiyaning eng yangi usullarini ham o'z ichiga oladi.

F.Galton o'zining 1865 yilda yozgan "Talentning va xarakterning irsiylanishi" asarida o'z zamonining eng mashhur odamlarining biografiyalarini o'rganib, ularning tanlangan kasblarida qo'lga kiritilgan katta muvaffaqiyatlari ko'p jixatdan irsiyatga bog'liq ekanligani aniqladi. F.Galtondan ham ancha oldin odam belgilarining irsiylanishi to'g'risida ayrim ma'lumotlar mavjud edi. Moperti (XVIII asrda) polidaktiliyaning ayrim oilalarda ko'proq uchrashni aniqladi. Nasse (XIX asr boshlarida) gemofiliyaning irsiylanish haqidagi empirik qonunini taklif etdi.

Odam genetik tekshirish ob'ekti sifatida ancha kamchiliklarga ega. Bularning eng asosiysi - odamlarda duragaylash, ya'ni eksperimental duragaylash usulini qo'llash mumkin emasligidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan kishilik jamiyatida nikohning har xil tiplarini topish mumkin, kerakli nikohtiplarini topish uchun izchillik bilan tekshirish lozim. Uzoq qarindoshlar to'g'risida aniq ma'lumotlar to'plash ham ancha qiyin, holbuki bularsiz to'g'ri genealogik kartalarni tuzish mumkin emas. Bu noqulayliklarga barxam berish uchun ma'lum belgi (kasallik) uchraydigan ko'proq oilalarni o'rganish lozim. Odam xromosomalarining sonining ancha ko'pligi (23 juft) ham noqulayliklardan biridir. Ammo hozirga davrda butun dunyo miqyosida o'tkazilayotgan "Odam genomi" proekti muvaffaqiyatlari tufayli odam xromosomalari va ulardagi birikish guruhleri ancha yaxshi o'rganilgan. Shunday qilib, antropogenetikaning hozirgi zamon usullari odam irsiyati to'g'risida ancha turli, mukammal axborot to'plashga imkon beradi.

Geneologik usul

Avlodlar shajarasini (genealogiyasini) tuzishga asoslangan usul bo'lib, amaliyot vrachlari uchun keng ma'lum bo'lgan, eng qulay usuldir. Bu usul probandning (genetik vrachning nazoratiga tushib, o'rganila boshlangan birinchi shaxs). Qarindoshlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash va uni taxlil qilishga asoslangan. Bunda probandda irsiylanyotgan, o'rganilayotgan belgining (kasallikning) fenotipik namoyon bo'lishi kuzatilmasligi ham mumkin. Bu usul

ancha qulay va oson bo'lib tuyulishiga qaramasdan bir muncha qulayliklarga ham egadir. Ulardan biri - to'planayotgan axborotning buzib ko'rsatilgandir. Agar oilada irsiy latologiya bo'lsa har bir oila a'zosi bukda o'zining aybdorligini his qilishi tabiiydir. Shuning uchuy ham ba'zan so'ralayotgan shaxs o'zining avlodida Igunday kasallikning borligini yashiradi, yoki erining (xo-tininkng) avlodida shunday kasallik bo'lganligi haqida . noto`g`ri ma'lumot beradi. Vrach proband yoki uning qarindoshlarini aybdorlik hissidan xalos qilishga, o'ziga ishonch uyg`otishga harakat qilmog`i lozim. Iloji boricha shajara a'zolarini shaxsan vrachning o'zi tekshirishi, qarindoshlarning bergan ma'lumotlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Agar bunday kishining iloji . bo'lmasa, ayniqsa qarindoshlar boshqa joylarda yashasa anketalar orqali ma'lumotlar to'planadi. Anketani oila vrachlari to'ldirishi maqsadga muvofikdir, Gendrix vrach o'zi shaxsan tekshirganda turli rivojlanishning kichik anomaliyalarini (RKA yoki stigaalar) o'zi ko'rishi mumkin, anketa tuzganda esa savollar mutaxassis bo'lmaganlar ham to'g`ri javob beraoladigan qilib yozilgan bo'lishi kerak. Masalan hipertelorizm)bormi deb so'rash mumkin emas, chunki hamma vrachlar ham bu qanday stigma ekanligini yaxshi bilmasligi mumkin. Hozir stigmalarning 150 ga yaqin turlari aniqlangan, Stigmalar irsiy kasallikka moyillik markeri (bel-gisi), disembrigenezning, mutant genning kam penetrantligi yoki ekspressivligining dalili bo'lishi mum-kin. Ilovada asosiy stigmalarning turlari keltirilgan (ilovaga qarang). Faqat to'liq va ishonchli ma'lumotlarga o'ylaning shajarasini to'g`ri tuzishga imkon beradi.

Shajara sxemasini chizishda umumiy qabul qilingan belgilardan foydalaniladi.

1 Genealogiya usulidan foydalanish quyidagi savollarga javob berishga imkon beradi.

1. O'rganilayotgan belgi (kasallik) irsiymi yoki irsiymas ekanligi.
2. Irsiylanish tipining qandayligi.
3. Kelajak avlodning prognozi.
4. Bundan tashqari bu usuldan odam populyatsiyalarida mutatsion jarayonlarning jadalligini o'rganishda, tibbiyot-genetika maslahatini o'tkazishda, genlarning birikishi va o'zaro ta'sirlari tanlaya qilishda va ularni kartalashtirishda ham foydalanish mumkin.

Genealogiya usuli 3 ta bosqichda o'tkaziladi:

- 1) ma'lumotlar to'plash;
- 2) avlodlar shajarasini tuzish;
- 3) avlodlar shajarasining taxlili.

Shajarani tuzishni probanddan boshlanadi. Keyin esa uning I, II, III, IV darajadagi qarindoshlari so'raladi va tekshiriladi, qon-qarindoshlar bo'lmagan qarindoshlarni ham tekshiriladi. Tibbiyotda bu usul klinik-genealogik usul deb ham ataladi, chunki shajara bironta kasal-likka nisbatan tuziladi.hozirgi davrda shajara tuzish ko'proq kasallikka nis-batan emas (chunki ko'p holatlarda bu juda qiyin, mutantgen shajara a'zolaridan birida bo'lsa ham kasallik. yuza-xa chiqmasligi-mumkin) balki

kasallikning asosiy bel-gisiga kisbatan amalga oshiriladi. Masalan, gapertoniyaning irsiylanishk o'rganilayot-ganda oilaning kichik a'zolari - bolalar o'rganilayotgan bo'lsin. Tabiiyki, ularda hali gipertomnya kuzatil-maidi. Shuning uchun bolalarda jismoniy mashq bilan test o'tkazish va qancha vaqtdan keyin qon bosimi me'yoriga tushishini aniklash mumkin. Shunday qilib, bunda qon bosimining regulyatsiyasi o'rganiladi. Shajarani ifodalash, ya'ni o'rganilayotgan belgilar-ni tasvirlash, har bir shajara a'zosining probavdga qarindoshligini ko'rsatishi lozim.

Ma'lumotlar to'planganidan keyin shajarani grafik tasvirlanadi, keyin esa genetik taxlil variantlaridan biri - genealogik taxlil o'tkaziladi. Bunda shu narsani unutmaslik kerakki belgi (kasallik) shajarada bir necha marta uchrapsh, lekin u irsiy bo'lmasligi mumkin. Agar bitta patologik omil ayolga uning har bir homiladorlik davrida bir xil ta'sir ko'rsatgan bo'lsa bu fenokopiya bo'lishi mumkin. Yoki to'g'ri muhit omili o'zining zararli ta'sirini oila a'zolarining hamma a'zolariga ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Agar belgining irsiy ekanligi aniqlansa, irsiylanish tipini aniqlashga o'tiladi. Bunda shajara ma'lumotlarini statistik usulda hisoblanadi. Bu usullar K.Shtern (1956), V.Makyusik monografiyalarida batafsil bayon qilingan. Statistik ishlov berishni qonlarni registratsiyalangan qanday usullar bilan o'tkazilganlikni aniqlashdan boshlash lozim (to'liq, to'liqmas, takroriy usullar). Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan qo'llanmalardagi jadvallardan foydalanishgadi. Belgilar kodominantlik. (masalan AVO, MI qon guruppalarya); avtosoma-dominant (masalan, 1905 yilda birinchi marta tasvirlangan braxidaktiliya), avtosoma-retessiv (DNKning ultrabinafsha nur ta'siridan keyin reparatsiyalanganligi natijasida kelib chiqadigan pigmenti kseroderma), yoki geterosoma-dominant, geterosom -retsessiv tipida irsiylanishi mumkin.

Autosoma-dominant tipida irsiylanishda Quyidagi xarakterli belgilar kuzatilishi mumkin:

- a) belgi shajara a'zolarining kupchiligida, har bir avlodda, "vertikal" tipda kuzatiladi;
- b) ota-ona ikkovi ham belgini bolalariga bir xil o'tkazishi mumkin;
- v) belgi erkaklarda va ayollarda bir xil uchraydi;
- g) agar belgi kam uchraydigan bo'lsa, avlodning taxminan 50% da kuzatilishi mumkin.

Autosoma-retiessiv irsiylanish tipining xarakterli belgilari:

- a) kasallarning soni shajarada kam bo'ladi;
- b) belgilar "gorizontal" titsda irsiylanadi. Ayrim avlodlarda umuman kuzatilmassligi mumkin;
- v) fenotipik sog'lom ota-onalardan 25% holatda kasal bolalar tuzilishi mumkin;
- g) ota yoki ona kasal bo'lsa sog'lom bolalar tug'ilishi mumkin;
- d) erkaklar va ayollarda belgi bir xil uchrashi mumkin.

Bunday shajaralarni taxlil qilganda belgi fenotipik namoyon bo'lgan oilalarda qon-qarindoshlar orasidagi nikohlar umumiy populyatsiyaga nisbatan ko'proq ekanligi aniqlanadi. Autosoma-dominant va avtosoma-retsessiv irsiyla-nishning xarakterli xususiyatlari genotipda kam ekspressiyalanuvchi, kam penetranglikka ega genlar bo'lganida, yoki epistatik gen bo'lganida o'zgarishi mumkinligini

unutmaslik kerak. Kodominantlik va chala dominantlik geterozigotalarda dominant gomozigotalarga qaraganda belgining sust namoyon bo'lishi kuzatiladi. Geterosomalarga bog'liq irsiylanish ham xarakterli belgilarga ega.

X-xromosomaga birikkan, irsiylanishining o'ziga xosligi shundan iboratki bunda erkak organizm

X-xromosoma genlariga nisbatan gemizigotali (faqat bitta X-xromosomasi bo'lgani tufayli) xisoblanadi, belgani faqat qizlariga o'tkazadi.

X-xromosomaga birikkan dominant irsiylanish tipida quyidagi o'ziga xosliklar kuzatiladi:

a) belgi ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq uchraydi;

b) agar ona genning tashuvchisi bo'lsa hamma bolalariga o'tashi mumkin (onagomozigotali bo'lganda), yoki bolalarining yarmiga o'tishi mumkin (onageterozigotali bo'lganda).

v) agar belgi otada bo'lsa, hamma qizlarida namoyon bo'ladi, hamma o'g'illar sog'lom bo'ladi.

g) ota-onalar sog'lom bo'lsa hamma bolalar sog'lombo'ladi.

X-xromosomaga birikkan retsessiv irsiylanish tipida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar tafovut etiladi:

1. Ko'proq kasallik erkaklarda uchraydi;

2. O'g'ilga hech qachon otaning belgisi o'tmaydi.

3. Agar proband kasal ayol bo'lsa, uning qizi va o'g'illarining hammasi kasal bo'ladi.

4. Kasal erkak va sog'lom ayol nikohidan tug'ilgan hamma bolalar sog'lom, lekin ularning qizlaridan tug'ilgan o'g'il bolalar kasal bo'lishi mumkin.

5. Sog'lom erkak va geterozigotali ayol nikohidan 50% o'g'il bolalar kasal tug'ilishi va qizlar hammasi sog'lom bo'lishi mumkin.

EGIZAKLAR USULI

Bu usul ham 1875 yila F.Galton tomonidan taklif etilgandir. Lekin Galton egizaklarni bir tuxumli (monozigot-MZ) va ikki tuxumlilarga (dizigot-DZ) ajratimagan. Keyinroq, bu usul boshqa olimlar tomonidan ancha takomillashtiriladi. Usulning mohiyati quyidagidan iborat: avval MZ va DZ egizaklar va umumiy populyatsiyadan nazorat gurunlari tuziladi. Keyin alohida-alohida MZ va DZlar bir-biri bilan solishtiriladi, so'ngra MZlar DZlar bilan, eng oxirida esa egizaklar nazorat gurun bilan solishtiriladi. Bu usul yordamida belgining (kasallikning) rivojlanishida irisiyat va muhitning nisbatan roli aniqlanadi. Ammo belgilarning konkordantligi (o'x-shashligi) va diskordantligini (o'xshamasligi) taxlil qilishdan avval egizaklarning qanday zigotaligini (monozigotali yoki dizigotaligini) aniqlab olish zarur. MZlar maydalanishning dastlabki bosqichlarida bitta zigotadan ikkiga bo'linib, mustaqil rivojlangan bolalardir. Shuning uchun ham MZ-lar genotiplari bir-biriga to'liq o'xshashdir (somatik mutatsiyalar, kelib chiqishi mumkinligini e'tiborga olmaganda), MZlarda uchraydigan farqlar muhit ta'sirining natijasi hisoblanadi. DZlar bir vaqtda otalangan ikki tuxum hujayradan rivojlangan va bir vaqtda tug'ilgan bolalardir. DZlar oiladagi oddiy sibslar kabi bir-biriga o'xshashi yoki o'xshamasligi mumkin, chunki ularning umumiy genlari 50%ga tengdir. Ularning

boshqa sibslardan farqi embriogenezda va tug'ilgandan keyin bir xil muxit omillarining ta'sirida bo'lishidir. Agar ular har xil jinsli bo'lsa darhol DZlarga kiritish mumkin.

Bir jinsli egizaklarni zigotaligini aniqlash uchun ularni har xil mezonlar bo'yicha solishtirish lozim. Eng aniq usul - bu terini transplantatsiyalashdir. Transplantantning yaxshi qo'shilib ketishi monozigotalikdan darak beradi.

Zigotalikni aniklashda egizaklarda NLA-sistema gaplotiplari bo'yicha solishtirish ham yaxshi natija beradi. Bu sistema juda katta polimorfizmga ega bo'lgani uchun NA gaplotiplari bo'yicha DZlarning kon-kordant bo'lishi mumkin emas. Egizaklarning zigotaligi to'g'risida aniq ma'lumotlarni, boshqa monogen irsiylakuvchi polimorfizm belgilarni, masalan eritro-tsitlar qon sistemalarini (AVO, MK, RH Lyuteran, Daffi, Kidd Levis va boshqalar), zardob sistemalarini (gaptoblobinlar, transferrinlar, gammaglobulinlar) solishtirganda ham olish mumkin. Lekin bunda egizaklarning ota-onalari shu belgilar bo'yicha bir xil bo'lganda olingan ma'lumotlar aniq chinmasligini unutmash kerak.

TSITOGENETIK USUL

Bu usul XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'llanib kelinmoqda. Shu yillarda leykotsitlarni sun'iy o'stirish usuli ishlab chiqildi, ularda xromosomalarning metafaza xolatini olish va xromosomalarni mikroskopda tekshirish usullari yo'lga qo'yildi. Bu usulni qo'llashning birinchi muzaffaqiyatli natijasi 1959 yilda Leje tomonidan Daun sindromida xromosomalar sonining anomaliyasini aniqlanishi bo'ldi. Hozirgi vaqtda sitogenetik usuldan xromosomalar tuzilishi va sonining o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan kasalliklarni o'rganishda, xromosomalarni kartalashtirishda, ularking polimorfizmini o'rganishda va boshqa irsiy muammolarni aniqlashda keng foydalaniladi. Faqat sitogenetik usulgina xromosoma patologiyalarida tashxis qo'yishga imkon beradi, shuning uchun ham differensial tashxisda bu usul juda qulaydir. Masalan, Daun kasalligining klinik ko'rinishi aniqlanganda faqat sitogenetik usulning yordami bilangina trisomiya variantini (47, XX+21) translokatsiya sindromlaridan (45XX+T15+21) ajratish mumkin. Buni aniqlash esa kasal bola bo'lgan oilada avlod prognozini aniqlashda juda muhim ahamiyatiga egadir. Citogenetik usulni qo'llashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

- 1) hujayralarni ajratib olish va sun'iy o'stirish;
- 2) xromosomalarning metafaza holatini olish;
- 3) metafaza holatidagi xromosomalarni mikroskopda o'rganish va kariotipni aniqlash.

Hozirgi davrda interfaza holatida ham xromosomalarni ajratib olish usullari ishlab chiqilgan, lekin ularning aniq tuzilishini faqat mitoz yoki meyoza metafazalaridagina yaxshi o'rganish mumkin. Tekshirish uchun hujayralarni suyak ko'migidan teridan, uruvdonyaardan olish mumkin, lekin eng qulay obyekt-qonning yadro saqlovchi hujayralaridir. Periferik qoning leykotsitlarini 2-3 sutka davomida FGA (fito-gemaglyutinin) qo'shilgan muhitda sun'iy o'stiriladi. FGA hujayralarning bo'linishini tezlashtiradi. Metafaza stadiyasida xromosomalar juda yaxshi ko'rinadi,

shuning uchun ham bo'linayotgan hujayralari bo'lgan oziq muhitga kolxittin moddasini qo'shamiz. Bu modda bo'linish duki iplarini parchalaydi va mitozni metafazada to'xtatadi. Keyin yadro membranasini parchalash uchun hujayralarga gipotonik eritma qo'shiladi. fiksatsiyalanadi, buyum oyiachalariga o'tkazilgan hujayralar bo'yaladi va mikroskopda tekshiriladi. Xromo-somalarni bir-biridan ajratish uchun avval ularning mikrofotografiyasi tayyorlanadi, keyin kariogramma (idiogramma) tuziladi. Xromosomalarni individual farqlash uchun Parij nomenklaturasiga asoslangan xromosomalar tasnifidan foydalaniladi. Xromosomalar asosan uzunligiga va tsentromerasinint joylanish tartibiga qarab (metatsentrik, submetatsentrik, akrotseitrik, yo'ddoshli va boshqa tiplar) ajratiladi.

Hozirgi davrda avtoradiografiya, 5 bromdezoksiuridin bilan tekshirish, fluoroxromlar bilan (Q), Gimza bo'yoqpari (S; - disklar) bilan differentsial bo'yash, shu usullarning xilma-xil o'zgartirilgan variantlarini qo'llash xromosomalarni ma'lum gurunlarga (A, V, S, D, Ye, F,J) aniq ajratishga imkon beradi.

PALMASKOPIYA kaft terisidagi naqshlar tasvirini o'iganadi. Kattning tashqi tuzilishi va kaft terisidagi naqshlar, tasvirlar ancha murakkab. Kaftda ko'pgina yostiqchalar, burmalar, maydonchalar va turh chiziqchalar bor. Odatda kaftda 11 ta yostiqchalar bo'lib, ular 3 ta guruhga bo'linadi: 1) 2 ta katta proksimal kaft yostiqchalar - tenor va gipotenor; 2) 4 ta barmoqlararo yostiqchalar; 3) 5 ta barmoqlar uchidagi yostiqchalar. Kaftda burmalardan: 1) kaft-barmoq; 2) distal; 3) proksimal; 4) bosh barmoqning burmasi; 5) bilakuzuk burmalan joylashgan (78-rasm, a). Ayrim holatlarda proksimal va distal burmalar qo'shib ketgan bo'lib, to'rtta barmoq burmasini hosil qiladi. Bunday burmaning hosil bo'lishi irsiy hisoblanadi va ko'pincha xromosomalar soni o'zgaq-an odamlarda uchraydi (13, 18,21 xromosomalarni bo'yicha va "mushuk chinqirig'i" kasalligida).Kaftda yana 14 ta maydoncha ham bor. 1- maydoncha tenorda, 1- va 2- barmoqlar oralig'ida esa 13-maydoncha, 2- maydoncha tenor va gipotenor orasida, 3- maydoncha gipotenorda, 4- va 5- maydonchalarhamkaftningubiarchekkasigajoylashgan. 6, 8, 10 va 12-maydonchalar 5, 4, 3 va 2- barmoqlar asosida joylashgan bo'lib, barmoqlar maydonchalari deyiladi. 7, 9, 10- maydonchalar esa 4, 3, 2- barmoqlararo oralig'iga to'g'ri keladi Kaftda har xii tomonga yo'nalgan ko'pgina chiziqchalar bor. Uch tomonga yo'nalgan chiziq-chalarning bir-biriga yaqin kelgan joyini triradius deyiladi. Kaftda 2-4- barmoqlar asosida 4 ta triradius (a, b, c, d) bor (78- rasm, d). Bundan tashqari tenor va gipotenor oralig'ida asosiy (o'q) triradius bor. Bu triradius kaftning korpall, oraliq va markaziy qismlarida ham joylashishi mumkin. Asosiy Triradiusning qayerda joylashganligini aniqlash uchun barmoq triradiuslari va d bilan asosiy triradius t oralig'idagi burchakni ($\angle atd$) aniqlash kerak. Agar $\angle atd < 40^\circ$ dan kichik bo'lsa, triradiusningjoylashishi korpall (t), 41-60" boisa oraliq (t') hamda 61° va undan katta bo'lsa markaziy (t'') bo'ladi. Irsiy kasalliklari bo'lgan kishilarda asosiy triradius odatda kaftning distal tomonida joylashadi, ya'ni oraliq yoki markaziy triradiuslar ko'rinishida bo'ladi.

DAKTILOSKOPIYA barmoq uchi terisidagi chiziqlar tasvirini o'iganadi. Barmoq uchlaridagi chiziqlar tasviri ham xilma-xildir (79- rasm). Ularni uch xilga ajratish mumkin: 1) yoysimon - (A - arch); 2) ilmoqsimon (L - loop); 3) aylanasimon yoki

tugunchasimon (W - who). Yoysimon ko'rinishdagi tasvirlar boshqalariga nisbatan kamroq uchraydi (6 %). Ilmoqsimon tasvirlar eng ko'p tarqalgan (60 %) bo'lib, ikki xil, ya'ni radial va ulnar yo'nalishida bo'ladi. Radial ilmoqchasimon tasvirda uni hosil qilgan chiziqchalar kaftning radial tomoniga ochiisa, uinarda esa kaftning ulnar tomoniga ochiladi. Aylanasimon tasvirlar ilmoq-simonga nisbatan kamroq uchraydi (34%).

Barmoq terisidagi chiziqlar tasviri:

1 - yoysimon; 2 - ilmoqsimon; 3 - ilnwqsimondan aylanasimonga o'tish; 4 - qo'sh ilmoq; 5 - aylanasimon.

Triradiusni hosil qiltivchi chbiqlar yo'g'onroq qilib ko'rsatilgan.

Yoysimon tasvirda triradius boimaydi. Ilmoqchasimonda bitta, aylanasimonda esa ikkita triradius boiadi. Barmoq uchlaridagi cliiziqchalar tasviri irsiy kasalliklari bor kishilarda o'zgaradi. Barmoq uchlan terisida yuqoridagi tasviriar aniqlangach, ulardagi teridan bo'rtib chiqqan chiziqchalarning soni aniqlanadi. Buniag uchun barmoq triradiusidan barmoq uchidagi tasvirning markaziga qadar chiziq tortiladi. Shu tutashtiruvchi chiziq barmoq uchidagi bo'rtib chiqqan chiziqlarning nechtasini kestb o'tgani hisoblanadi. Yoysimon ko'rinishdagi tasvirda triradius bo'lmaganligi uchun undagi chiziqchalar soni 0 deb olinadi. Ilmoqsimon tasvirda esa chiziqchalarning soni eng kolpi 25 tagacha yetadi. Aylanasimon tasvirda triradius ikkita bo'lganligi uchun har Lkkala tomondan chiziqchalar sanaladi va asosiy hisobga qaysi birida chiziqchalar soni ko'p bo'lsa o'shanisi olinadi. Barcha, ya'ni Ota barmoqlardagichiziqchalarsonierkaklarda 130-150, ayollarda esa 110-135 ta bo'ladi. Odatda X-xromosoma soni kamayganda chiziqchalar soni ko'payadi, ya'ni XO-178; X-xromosoma soni ko'payganda esa (masalan, XXXY) chiziqchalar soni kamayadi - 43.

Barmoqlar terisidagi tasvirlarning hosil boiishini maxsus genlar boshqarib' turadi. Yoysimon tasvir E (17-18) guruhga kiruvchi xromosomadagi gcnlr, ilmoqsimon tasvir (L), G (21) guruhga kiruvchi xromosomadagi genlar, aylanasimontasvir D{13, I5}guruhgakiruvchi xromosomadagi genlar orqali yuzaga chiqadi deyiladi. X- xromosomadaesa bu genlarning modifikatori joylash-gan bo'lib, u yoysimon tasvirning ko'proq hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Teridagi naqshlar tasviri ernbrional rivojlanishning 10-19- aftalarida paydo bo'ladi. 20 haftalik erabrion terisida hamma chiziqchalar paydo bo'lgan bo'-ladi. Teridagi barcha tasvirlar embrion-ning 6 oyligida butunlay hosil bo'ladi va umriningoxirigachasaqlanibqoladi. Tcri yemirilganda (kuyganda, kesilganda va boshqa holatlarda) ulardagi chiziq-chalar oldin qanday bo'lsa shunday bo'Hb tiklanadi.Hozirgi kunda dermatoglifikadan irsiy kasalliklarni aniqlashda, tibbiy-sud ekspertizasida shaxsni, eguaklarning mono yoki dizigotaliligini va aholining etnik tuzilishini aniqlashda keng foydalanilrmoqda.


Normada va irsiy kasallik bo'lganda burcliakning ko'rinishi:

1 - Palau sindromi; 2 - Daun sindromi; 3 - Shershevskiy-Temer sindromi; 4 - norma; 5 –

Klaynfelter sindromi.

Irsiy kasalliklari bo'lgan kishilarda ko'p uchraydigan dermatoglifiK belgilar quyidagilardir: 1) barmoq uchlaridagi tasvirlardan (yoysimon ilmoqsimon, aylanasiimon) birining uchrashi ko'payadi; 2) barmotj uchlarldagi teridan bo'rtib chiqqan chiziqchalaming soni normadagisi-dan oshib yoki kamayib ketadi; 3) kaftdagi asosiy iriradiusninj: joylashishi o'zgaradi (A.) barmoq uchida triradius bo'lmaydi 5) kaftda to'rt barmoqli ko'ndalang egiluvchan burma paydo bo'ladi.


Avlodlar shajarasini tuzishda kulaniladigan belgilar:



Me'yorda va xromosoma anomaliyalarida atd triradiuslari burchagining o'zgarishi.

1-Patau sindromida, 2-Daun sindromida, Z-Shereshevskiy - Turner) sindromida,

4-me'yorda, 5-Klaynfelter sindromida.



Daktiloskopiya usulining sxematik ifodasi.

a-barmoq izlari, b-papillyar chiziqlar joylashishi turlarini sxematik ifodayaanishi.

1-aylanasimon (Urasimon) 2-sirtmoqsimon, 3-yoysimon



Ma`ruza mashg'ulotlarining ta`lim texnologiyasi.

2-mavzu : Xromosoma kasalliklari.

1.1.Ta`lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti -2 soat	Talabalar soni : 16-40 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma`ruza.
Ma`ruza rejasi	Talabalarga shajara tuzish xromosoma kasalliklari bor bemorlarni shajarasini tuzish irsiy kasalliklar etiologiyasi patogenezi klinik polimorfizm sababi haqidagi bilimlarni egallash va ularni dif diagnostika qilishni o`rgatish xromosoma kasalliklariga dastlabki tashxir qo`yish, xromosoma kasalliklari klinik ko`rinishini yoshga qarab o`zgarishini to`g`ri izoxlash va irsiy kasalliklar va xromosoma kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga instrumental funkciyanal tekshirishlarni o`tkazish davolash bosqichlarini, reabilitaciya va dispenser nazoratiga olishni o`rgatish.
O`quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarga xromosoma kasalliklari ularning turlari etiologoyasi, patogenezi, klinikasi, davoloash chora tadbirlari xromosoma kasalliklariga zamonaviy yondashish ularning oila a`zolariga psixologik yordam berish yo`llarini o`rgatish, xromosoma kasalliklari bilan kassallangan bemorlarda oilani rejalashtirish.
Ta`lim berish usullari	Kurgazmali,ma`ruza,suhbat
Ta`lim berish shakllari	Ommaviy,jamoaviy
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma,darslik,ma`ruza matni,proektor,kom'pyuter
Ta`lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat:savol-javob.

1.2. Ma`ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daq.)	1.Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash	Tinglaydi Yozib oladi

	3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish - Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. - Meditinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman - Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g - Meditinskaya gegnetika // Bochkov N.P.,Zaxarov A.F.,IvanovV.I.,Meditsina,1984 - Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Oshonkulov O.O. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	Mavzu maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi: Maqsadi: Talabalarga xromosoma kasalliklari ularning turlari etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, davoloash chora tadbirlari xromosoma kasalliklariga zamonaviy yondashish ularning oila a'zolariga psixologik yordam berish yo'llarini o'rgatish, xromosoma kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda oilani rejalashtirish. Vazifasi: Talabalarga shajara tuzish xromosoma kasalliklari bor bemorlarni shajarasini tuzish irsiy kasalliklar etiologiyasi patogenezi klinik polimorfizm sababi haqidagi bilimlarni egallash va ularni dif diagnostika qilishni o'rgatish xromosoma kasalliklariga dastlabki tashxir qo'yish, xromosoma kasalliklari klinik ko'rinishini yoshga qarab o'zgarishini to'g'ri izoxlash va irsiy kasalliklar va xromosoma kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga instrumental funkciyanal tekshirishlarni o'tkazish davolash	Tinglaydilar, berilgan savollarga javob beradilar.

	<p>bosqichlarini, reabilitaciya va dispenser nazoratiga olishni o`rgatish.</p> <p><b><u>Talaba bilishi kerak;</u></b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Irsiy va xromosoma kasalliklari bor deb gumon qilishga imkon yaratuvchi assosiy belgilarni aniqlash.</li> <li>• Xromosoma kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, haqidagi ma`lumotlarni to`plash</li> <li>• Kasallik klinik belgilari va klassifikatsiyasini belgilash.</li> <li>• Citogenetik va bioximiyaviy tekshirishlarga ko`rsatma • Irsiy kasalliklarni dastlabki tashxis qo`yish</li> <li>• Irsiy kasalliklar klinik manzarasini yoshga qarab o`zgarishini aniqlash • Prenatal diagnostika va neonatal skrining usullarini ularga bo`lgan ko`rsatmalarni o`rgatish</li> <li>• Irsiy kasalliklarning klinik instrumental funktsional tekshirish usullarini o`rgatish • Xromosoma kasalliklari bor bemorlarga vrach magistr malaxatiga ko`rsatma berish • Xromosoma kasalliklari davolash bosqichlarini reabilitaciya va dispenser nazoratiga olish	
2-asosiy bosqich (55 daq.)	1. Mavzuni tushuntirib beradi, slaydalar namoyish qilish 2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi	Tinglaydilar, yozib oladi.
Yakuniy bosqich (10 daq.)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi	Tinglaydi Yozib oladi

	3. Uyga vazifa beradi	Yozib oladi
--	-----------------------	-------------

Qisqacha mazmuni:

Odamga xromasomalar 23 juft buladi. 22 juft somatik 1juft jinsiy xromasomalar buladi.

Bular Denver klassifikatsiyasiga kura 7 ta guruhga bo'linadi

- **A** - 1,2,3 juft
- **V** - 4,5 juft
- **S** - 6,7,8,9,10,11,12 juftlar
- **D** - 13,14,15 juft
- **Y** - 16,17,18 juft
- **R** - 19,20 juft
- **S** - 21,22 juft 23-jinsiy xromasomalar XX, XY

Xromasomalar bo'linishi:

Mitoz – somatik xromasomalar bo'linishi

Meyoz – jinsiy xromasomalar bo'linishi

Mitoz hujayralar bo'lingan vaqtidan qayta bo'linishigacha bo'lgan vaqt hujayra sikli deyiladi bo'linayotgan hujayralar sikli mitoz sikli deyiladi . Mitoz sikli meyoza va interfazadan iborat. Mitozlar oraligi interfaza deyiladi.

Mitoz usulida bo'linishida 2xil jarayon kuzatiladi

1. yadroning bo'linishi -kariokinez

2. sitoplazmaning bo'linishi -sitokinez

Ba'zan mitoz noto'g'ri kechishi hujayralarning shikastlanishi soning kamayishi yoki ortib ketishiga olib keladi.

Jinsiy hujayralar meyoza usulida bo'linadi. Meyoz ketma-ket keladigan 2 bo'linishdan iborat . Ularni farqlash uchun birinchi bo'linish fazalari oldiga I, ikkinchisiga II raqami yoziladi .

Birinchi profazada ikkita xromatiddan tashkil topgan xromasomalar sipirallashadi, kaltalashadi. Gomolog xromasomalar bir-biriga yopishib, yonma-yon joylashishini **konyugatsiya** deyiladi.

Ba'zan konyugatsialashgan xromasomalar bir-biri bilan o'z xromatidlarini o'xshash qisimlarini almashadi. Bu hodisa esa **krosingover** yoki xromasomalar chalkashishi deyiladi.

Meyoz natijasida har bir diploid to'plam boshlang'ich hujayra ketma – ket 2 marta bo'linishi natijasida 4ta gaploid to'plamli jinsiy hujayralar – gametalar hosil bo'ladi.

Xromasoma kasalligi xromasomalar sonining yoki ular tuzilishining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Xromasomalar soning o'zgarishi odatda, hujayralarning bo'linish jarayonida xromasomalarning qutiblarga barobar taqsimlanmasligidan kelib chiqadi.

Odatda xromasoma kasalliklariga duchor bo'lganlar bolalik chog'idayoq halok bo'lishadi yoki o'zidan keyin nasl qoldirmaydi. Shuning uchun xromasoma kasalliklar nasldan – naslga doimo ham berilmaydi va har avlodda yangidan paydo bo'ladi. Hozirgi kunda xromasomalar soni va tuzilishining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan irsiy kasalliklardan 500 ga yaqini ma'lum. Xromasoma irsiy kasalliklari autosomalarning va jinsiy xromasomalarning soni va tuzilishining o'zgarishi bilan yuzaga chiqishi e'htimoli bor.

AUTOSOMALARGA BOG'LIK BO'LGAN KASALLIKLAR.

DAUN sindromi angliyalik vrach L.Daun tomonidan 1866 – yili aniqlangan edi. Daun kasalligi odatda 21 autosomaning oshib ketishi natijasida sodir bo'ladi. Bunday kasalliklarda 46 o'rniga 47 xromasoma kuzatiladi. Kasallik autosomalarning sonining o'zgarishi bilan yuzaga chiqqanligi uchun erkaklarda ham ayollarda ham kuzatiladi. Kasal bolalarning bo'yi past, kallasi kichik va yumaloq, burunlari kalta, ko'z kesimi egri, quloq suprasi kichik, og'zi yarim ochiq og'zidan ko'pincha tili chiqib turadi. Til, teri, lablari ko'rik va ko'pincha ko'zda g'illaylik bo'ladi. Tishlar bir tekisda bo'lmaydi. Boshda sochlar siyrak silliq, qo'l barmoqlar kalta va yog'on bo'lib, 5 – barmoq juda ham kichik. Kaft terisida faqat bitta ko'ndalang ketgan egatcha bo'ladi. Barmoq uchlari terisi chiziqlarning shakli asosan ulnar tomonga ochiladigan ilmoqsimon bo'ladi.

Muskullar sistemasi ham juda sust rivojlangan, shuning uchun bunday bolalar faqat aqliy emas, jismoniy tomonidan ham juda zaif bo'ladilar. Ularda mustaqil ravishda bir ishni bajarish xususiyati yo'q. Ayrimlarini yozish va o'qishga o'rgatish mumkin, lekin sanashni o'rgana olmaydi. Ular xo'jalikdagi juda oddiy ishlarnigina bajarishlari mumkin bo'lib, ularda bosh miya yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Gipofiz bez, jinsiy bezlar va ikkilamchi jinsiy belgilar juda sust rivojlangan. Qizlarda oylik sikilning buzilishi kuzatiladi. Odatda Daun kasalligiga duchor bo'lganlarda farzand bo'lmaydi. Ammo farzandli bo'lganlar ham ma'lum, lekin bolalarining yarmi Daun kasalligi bilan tug'iladi.

Daun kasalligi bor bolalarda imunitet past bo'lganligi uchun ular har xil yuqumli kasalliklarga bardosh bera olmasdan yoshligidayoq o'lib ketadilar. Hozirgacha bu kasallikning hosil bo'lishi sabablari anik o'rganilgan emas. Pekin ma'lumotlarga ko'ra qishloq aholisiga qaraganda shahar aholisi o'rtasida Daun kasalligi ko'p uchraydi. Onaning yoshi ulg'aygan sari uning farzand Daun kasalligi bilan tug'ilishi e'htimoli ham ko'payadi.

DAUN kasalligi xromasoma sturukturasining o'zgarishi bilan, yani xromasomalarning translokatsiya natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ayollarda 21-juft xromasomaning asosiy qismi 13-15 xromasomalarga erkaklarda esa 20 xromasomaga kelib birlashadi. Natijada kariotibda xromasomalarning soni 45ta bo'lsada 46ta xromasoma uchun genetik material yetarli bo'ladi. Shuning uchun bu o'zgarishni muvozanatlashgan **teraslokasiya** deyiladi. Shunday teraslokasiyasi bor

kishilardan nazariy jihatdan to'rt xil gametalar hosil bo'lishi mumkin va ular normadagi gammetalar bilan urug'langanda quyidagi zigotalar hosil bo'ladi.

Agar ota-onadan birida Daun kasalligi translokasiya hisobiga yuzaga kelgan bo'lsa shu oilada sog'lom bolaning tug'ilish e'htimoli juda kam bo'lib 33% tashkil etadi. Odatda Daun kasalligiga sitogenetik va dermatoglifik usullar yordamida tashxis qo'yiladi. Lekin kasallikni savolash usullari hozirgacha aniq emas. Edvars kasalligi. 1960 yili D.Edvars kasal qizning kariotipini aniqlaganda, unda birta ya'ni 18-xromasoma ortiqcha ekanligini topdi (46+1) va bu kasallikni belgilarini to'liq o'rgandi. Edvard kasalligi bilan tug'ulgan o'g'il bolalar uzoq yashamasdan hayotining dastlabki oylarida yoki vafot etadi. Qiz bolalar esa 2-3 yoshgacha yashashi mumkin. Bunday kasalligi bor bolalar 3 oylik bo'lib tug'ulgan bo'lsada, vazni juda kichkina bo'ladi. Kasallikni belgilari quyidagilardir: ensa burtib chikgan, boshi uzunchoq, jag'lar va og'iz bo'shligi kichik, tanglay baland, quloqlar juda past joylashgan, qon aylanish sistemasi, ko'rish kobilyati va buyrakning tuzilishi buzilgan. Qo'l barmoqlari juda kalta. Kaftda ko'ndalang ketgan burma bo'lib deyarli barcha barmoqlar uchida yoysimon chiziqlar kuzatiladi. Bu kasallik 4500, 6500 sog'lom bolaga birta to'g'ri keladi.

Patau kasalligi. Kasallikni birinchi bo'lib K. Patau 1961 yil o'rgangan. Kasallik birta xromasomaning ortib ketishi bilan yuzaga chiqadi (46+1). Bu ortiqcha xromasoma 13-15 juft xromasomalardan biri bo'lib, qaysi bir juftga kirishini aytish qiyin. Chunki 13, 14, 15 juft xromasomalar bir-biriga juda o'xshash. Shuning uchun Patau kasalligini D guruhga mansub xromasomalardan birining oshishiga bog'lab tushuntiriladi. Bunday kasallik bilan bolalar odatda sog'lom ota-onalardan tug'iladi va 3500, 4000 sog'lom bolaga birta kasal bola to'g'ri keladi. Kasallikga xos belgilar quyidagilardir: bolalarning vazni, bo'yi juda kichik va ko'pincha vaqtidan oldin tug'iladi. Yuqori labida va tanglayida yoriqcha bo'ladi. Ko'z bo'lmasligi ham mumkin, bosh miya yaxshi rivojlanmaydi, barmoqlar soni odatdagidan ko'p. Buyrakda, yurakda, ichakda, taloqda, qizlarning bachadonida, o'gil bolalarning esa moyagida ko'pgina o'zgarishlar bo'ladi. Dermatoglifika belgilaridan asosiy triradius 180 S ga teng. Odatda kasal bolalar tug'ilgandan keyin 2-3 hafta ichida vafot etadilar. Kamdan-kam chaqaloqlar 2-3 yoshgacha yashashi mumkin. Jinsiy xromasomalarga bog'liq bo'lgan kasalliklar.

Kleynfelter kasalligi. Eraklarda uchraydigan kasallikni 1942 yil K. Kleynfelter aniqlagan edi. Kleynfelter kasalligida X xromasomalar soni ortiqcha bo'ladi, ya'ni 44 XXY. Ushbu kasallik bilan tug'ilgan bolalarning sog' bolalarga nisbati 1:1000 bo'lib, bu nisbat katta yoshdagi kishilarda ham saqlanib qoladi.

Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: bo'y, qo'l va oyoqlar uzun, yelka tor, toz suyagi keng, muskullar va urug' chiqiruvchi kanal yaxshi rivojlanmagan, urug'don juda kichik bo'lib spermatogenez kuzatilmaydi. Ko'pchilik holatda aqliy zaiflik yuzaga keladi va ayrim holatlardagina aqliy tomondan normada bo'lishi mumkin. Barmoq uchlari terisidagi tasvirlar ko'pincha yoysimon bo'lib, ulardagi egatlarning umumiy soni ancha kamaygan. Kasallikni XXY genotipligidan tashqari XXXY,

XXXXY, XYY, XXY, XYYY genotiplari ham uchraydi, o'ziga xos fenotipli bo'lishi mumkin.

Shereshevskiy-Terner kasalligi. Kasallikni 1925 yili N.A.Shereshevskiy 1938 yil Turnerlar izoxlab berganlar. Bu kasallik ayollarga xos bo'lib 1:5000 nisbatda uchraydi. Shu kasalligi bor ayollarda xromosomalar soni 45ta bo'lib, 1ta xromosoma kam bo'ladi. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: past bo'yli, yengil vazinli, bo'yin juda qisqa va burmali bo'ladi, tuxumdon va ikkilamchi jinsiy belgilar yaxshi rivojlanmagan, yelka keng bo'lib toz suyagi va oyoqlar kalta. Oylik sikl kuzatilmaydi. Ko'krak bezlari rivojlanmay, ular o'rniga yog' to'plamlari paydo bo'ladi. Yuz ko'rinishi o'zining yoshiga qaraganda qari ko'rinadi. Kaftdagi asosiy triradiusi kengaygan. Barmoqlar uchida aylanasimon tasvirlar uchraydi. X xromosoma ko'pincha trisomiya kasalligi. Bu kasallik odatda ayollarga xos bo'lib, 44 XXX genotipli bo'ladi va 1:1000 nisbatda uchraydi. Fenotip juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Tuxumdon o'zgargan, aqliy zaif bo'lib, jismoniy rivojlanish orqada qolgan, tanglay qatiq va Yuqori joylashgan bo'lib, kariotipi normalda bo'lgan soglom nasil qoldirishi mumkin. Ayrim holatda uzun bo'yli bo'lib, tuxumdon yaxshi rivojlangan bo'lmaydi, shuning uchun pushsizlik erta paydo bo'ladi. Kaft va barmoq terisidagi naqshlar o'zgargan, lekin normada ham bo'lishi mumkin. Kariotip barchasida deyarli bir xil ya'ni 44 XXX, lekin ayrim holatlarda 44 XXXX va 44 XXXXX genotiplilari ham uchraydi. Bunday gepotipli kasallarda tashqi belgilarida o'zgarishlar ko'prok bo'ladi.

Xromosomalar strukturasi o'zgarishiga bog'liq bo'lgan kasalliklar.

"Mushuk chinqirigi" kasalligi: Kasallikni 1960 yili Djekobe o'rganadi. Keyinchalik esa (1963) bir oilada ikkita bolaning shu kasallik bilan tug'ulganligi aniqlanadi. Bu bolalarning fenotipik jihatda sog'lom bo'lgan onasining 5- chi xromosomada uzilish (deletsiya) bo'lganligi va xromosomaning shu uzilgan bo'lagining 13- 15- chi juft xromosomalardan biriga kelib birikkanligi (translokatsiya) aniqlangan. Bunday muvozanatli translokatsiya natijasida onada o'zgarish kam bo'lgan. Onadagi uzilish bo'lgan 5-chi xromosoma bolalarga o'tsa bolalarda "mushuk chinqirig'i" kasalligi paydo bo'ladi. Bolaga 5-chi xromosomaning uzilgan bo'lagi bo'lgan, ya'ni translokatsiyasi bor 13-15 chi xromosomalar o'tsa, bolada yuqoridagi kasallikka xos belgilar sodir bo'lmas ekan.

"Mushuk chinqirigi" kasalligi bilan tug'ilgan bolalarning sog'lom bolalarga nisbatan uchrash nisbati aniq emas, lekin keyingi paytlarda bu kasallikka duchor bo'lgan bolalar sonining ko'payganligi ma'lum. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: ovoz paylarida o'zgarish bo'lganligi uchun mushuklarning chinqirib miyovlashiga o'xshash ovoz chiqaradi, aqliy, jismoniy zaiflik, yuz tuzilishi yumaloq, kalla suyagi kichik, ko'z kesimi antimongoloid tipda. Kasallarning 50% da hiqildoq noto'g'ri tuzilishga ega va 25% da esa yurak: tuzilishida o'zgarish bo'ladi. Kariotipda 5 – chi xromosomaning kichik yelkasida uzilish (deletsiya) bo'lganligi tufayli u sezilarli darajada kichiklashgan. 18-chi juft xromosomaning uzun yelkasidagi uzilish.

Xromosomada bo'ladigan bu o'zgarish 1964 yili o'rganildi. Xromosomasida shunday o'zgarish bo'lgan bolalarda kalla suyagi kichik, burun kichik, ovoz yutish yo'li toraygan, g'illaylik, qiyshik oyoq, barmoqlarning bo'lmasligi kuzatiladi. Ichki organlarda ham katta o'zgarish bo'ladi. Xromosoma kasalligi xromosomalar sonining yoki ular tuzilishining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Xromosomalar sonining o'zgarishi odatda, hujayralarning bo'linish jarayonida xromosomalarning qutblarga barobar taqsimlanmasligidan kelib chiqadi. Xromosoma kasalliklariga duchor bo'lganlar bolalik chog'idayoq halok bo'lishadi yoki o'zidan keyin nasl qoldirmaydi. Shuning uchun xromosoma kasalliklari nasldan naslga doimo ham berilmaydi va har avlodda yangidan paydo bo'ladi. Xromosoma irsiy kasalliklari autosomalarning va jinsiy xromosomalarning soni va strukturasining o'zgarishi bilan yuzaga chikishi mumkin.

Xromosom kasalliklarining fenotipining asosini erta embriogenez rivojlanishining buzilishi tashkil etadi. Eng ko'p uchraydigan xromosom kasalliklar 3 ta bo'lib ularga: Daun, Klaynfelter, Shereshevskiy Turner sindromlari kiradi.

Barcha xromosom kasalliklarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin,

1. Xromosomalarning soni o'zgarishi, lekin strukturasini saqlangan – genom kasalliklar.

2. Xromosomaning strukturasining o'zgarishi – xromosom kasalliklar.

Individual xromosomalar soning o'zgarishi hujayralarga gametogenezning bir va ikki meoz bo'linishida Xromosomalarning teng taqsimlanmaganligidan kelib chikadi. Bu quyidagi variantlarda uchraydi:

A. Anafazda reduplikatsiyalangan Xromosomaning ajralishi buziladi. Natijada ikkilangan xromosoma bitta qiz hujayraga o'tadi.

B. Gomologik xromosomalarning konyugatsiyasining buzilishi. Bu xil xromosomaning ajralish buzilishiga olib keladi.

S. Anafaza davrida xromosoma ajralishining orqada qolishi. Bu xromosomaning yo'qotilishiga olib keladi. To'g'ri quyilgan tashxis genetik xatarni aniq hisoblashga imkon beradi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, hatto xatar ko'rsatkichi 0% bo'lganda ham sog'lom bola tug'ilishiga to'liq kafolat berishi qiyin. Chunki bu bolada genetik xatar aniqlangan kasallikdan boshqa kasallik ham namoyon bo'lishi mumkin. Har qanday oilada turli anomaliyalari bo'lgan bolalarning tug'ilishi ehtimoli 3 - 5% ga teng (umumiy populyatsiya xatar ko'rsatkichi). Masalan, Dyushenn miopatiyasi nisbatan xatar ko'rsatkichi 0 % bo'lganda, oilada Ayer sindromli bola tug'ilishi mumkin. Bu esa yangi mutatsiyaning natijasidir.

Kam holatlarda xatar ko'rsatkichi 100% bo'lishi mumkin. Masalan odatda ham onada ham autosoma – retsesiv tipda irsiylanadagan fenilketonuriyaning klassik shakli uchraganda, yoki otada ham onada ham daltonizm (X-ga birikkan irsiylanish tipi) uchraganda xatar kursatkichi 100% ga teng bo'ladi.

Xatar kursatkichini xisoblashni 2 xil yo'l bilan amalga oshirish mumkin.

1. Genetik qonuniyatlarga asoslangan nazariy xisoblash yordamida aniqlash.

Bu usul monogen kasalliklarda qo'llaniladi. Bunday hisoblash ota – onalar genotipi aniq bo'lgan holda qanday tipdagi gametalar hosil bo'lishi, populyatsiyada geterozigotalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2 . Empirik usul – xatar ko'rsatkichlari jadvallar yordamida aniqlash.

Bu usul xromosomalar soni va strukturalarining o'zgarishiga bog'lik bo'lgan kasalliklarda hosil bo'ladigan gametalar va ularning elimina- siyasi xisobga olingan xolda va mul'tifaktorial kasalliklar uchun kullaniladi. 3 . Xar ikkala usulni kushib foydalailadi. Bunday xisoblash ota - onadan birida muvozanatlashgan translokatsiya uchraganda foydalaniladi. Ma'lum oila uchun xatar darajasi aiiklanganidan keyin uni umumpopulyatsiyaxatar kursatkichi (3 - 5%) bilan tokkoslanadi va xatar ko'rsatkichi baholanadi. Xatar ko'rsatkichini baxolashga har xir endoshish mumkin.

Xatar ko'rsatkichi 5% gacha bo'lsa past, 10% gacha engil darajadagi, 20% - o'rtacha, 21% dan ortik bulsa yukori deb pisoblanadi. Lekin farzand ko'rishga maslaxat berishda fakatgina xatar kursatkichiping qanday darajada ekanligini aniklashning uzi kifoya qilmaydi. Ba'zi irsiy kasalliklarda xatto yuñori xatar kursatkichi ham bola ko'rsatmaslikka asos bo'la olmaydi. Masalan, daltanizm, refraktsiya anomaliyalarida shaxsning umumiy moslanuvchanligi deyarli bu^ilmaydi keksalikda yuzaga keladigan kasalliklar eki davolasa buladigan kasalliklar shunday kasalliklarga kiradi.

Quyidagi xatar darajasi umumiy populyatsiya xatar darajasi yukori bulgan xolatlarda bola kurishga maslaxat berish mumkin emas.

A. davolash mumkin bulmagan irsiy kasalliklar;

B. autosoma dominant eki retsessiv geterosoma dominant eki Retsessiv subletal va letal gen kasalliklari;

V. ruxiy kasalliklar;

G. xromosoma kasalliklari;

Odatda urta darajadagi genetik xatar bola kurishda maslaxat be Rilmaslikka asos bo'ladi. Prenatal diagnostika utkazish kuyidagi xolatlarda maksadga muvofikdir. Tuplangan ma'lumotlarga kura axolining 5-10% genetik maslaxatga muxtojdir. Shuning uchun ham 1 million axoliga bitta tibbiet-genetika maslaxatxonasi zarur deb xisoblanadi.

Tibbiet - genetika maslaxatini ikki xil tarzda amalga oshirish mumkin:

1. Perspektiv maslaxat-kasal bola tugilishi extimoli bulganda, masalan er eki xotinga tashki muxitning zararli omillari ta'sir kilganda, xomiladorlik paytida virusli infektsiya kuzatilganida utkaziladi.

2. Retrospektiv maslaxat- oilada kasal bola tugilgandan keyin, keyingi bolalar kandy tugilishini apiklash uchun utkaziladi.

Tibbiet-genetika maslaxati 4 boskichda amalga oshiriladi:

I - boskichda tashxis aniklanadi. Buning uchun genetik vrachning mijozni maslaxatga yuborgan mutaxxasis - vrach bilan hamkorligi talab qilinadi. Tashxisni aniqlash uchun genetik taxliilning hama usullaridan foydalaniladi.

2 - boskichda kasal bolaning tugilishi xatari darajasi aniqlanadi.

3 - bosqichda - genetik vrach ma'lum xulosaga keladi. Xulosa yozma ravishda tayyorlanadi.

4 - bosqichda genetik - vrach maslaxatga kelgan shaxsga uz xugyusasi ma'nosini tushuntirib, aniq bir qarorga kelishiga yordam beradi. Prognozning aniq tuzilishi tashxisni aniq quyilishiga, to'plangan genelogik ma'lumotlarning ishonchliligiga, vrachning tibbiyot genetikasi soxasida to'liq ma'lumotga egaligiga bogliqdir.

Amaliy mashg'ulot № 1

Mavzu: Nasliy kasalliklarni diagnostika usullari

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (20 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 2. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 3. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (80 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish • Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. • Meditsinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman - Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P.,Zaxarov A.F.,IvanovV.I.,Meditsina,1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Oshonkulov O.O. Abu Ali Ibn Sino, 2000	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.

2 – asosiy bosqich (120 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar, qo'shimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (20 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar.

Mavzuga oid savollar.

1. Shajara tuzish.
2. Geneologik usul
3. DNK zondlash usulini
4. Citogenetik usulni
5. Bioximiyaviy tekshirish usulini
6. Dermatoglifika usulini

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

Aqliy hujum

O'yin uchun kerak.

Alohida varaqalarda pechat qilingan savollar va vaziyatli masalalar to'plami.

Toza oq qog'ozlar

Rangli ruchkalar (ko'k, qizil, qora)

Guruxdagi talabalar soniga mos tartib nomerlar

O'yin borishi.

O'yinning umumiy vaqti 60 min

Guruh 3 ta kichik guruhlariga bo'linadi (har bir kichik guruhga 3-4 talaba)

har bir kichik guruh alohida stolga o'tiradi. Toza qog'oz tayyorlaydi va bitta rangli ruchkani oladi.

Qog'ozga sana, guruh nomeri, o'yinning nomi va shu guruh qatnashchilarning ismi sharifi yoziladi.

Qatnashchilardan biri konvertdan savol yoki vaziyatli masalani oladi (guruh uchun savol yoki vaziyatli masalani o'qituvchining o'zi tanlab oladi)

Har bir guruh uchun alohida savol yoki vaziyatli masala tanlab olinadi, lekin ularning murakkabligi bir xil bo'lishi kerak

10 min vaqt beriladi

Kichik guruh 10 min davomida savolni muhokama qilinadi, o'zining fikrini yozadi vaqt tugagandan keyin qo'shni kichik guruh bilan varaq almashadi.

Keyingi guruh o'zidan oldingi guruhning javbini baxolaydi, agar javob to'g'ri bo'lmasa unga qo'shimcha yozadi, agar javob xato bo'lsa o'zining javob variantini yozib qo'yadi. Bu etapga ham 10 min vaqt beriladi.

O'yin tugaganidan keyin (30 min). Qog'ozda 3 xil rangda 3 xil yozuv bo'ladi.

Ish o'qituvchiga topshiriladi.

Hamma qatnashchilar natijani muhokama qiladilar va yuqori ballga sazovor bo'lgan 1 javobni tanlab oladilar.

Muhokamaga 15 min vaqt sarflanadi

1) o'rin 86-100 ball. 2) o'rin 71-85,9ball. 3) o'rin 55-70,9 ballgacha

Talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy bahoga ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarning ishi o'qituvchi tomonidan saqab qolinadi.

Tibbiyot genetikasi tekshirish usullari

I-variant.

1-savol. Genetika nima

2-savol. Geneologik usul haqida tushuncha

3-savol. Palmaskopiya – bu...

4-savol. Sitogenetik usulni qo'llashning asosiy bosqichlari

5-savol. Egizaklar usuli

6-savol. Autosoma-dominant tipida irsiylanishda xarakterli belgilar

II-variant.

1-savol. Genetikaning rivojlanish tarixi

2-savol. Geneologik usul bosqichlari

3-savol. Sitogenetik usul

4-savol. Daktiloskopiya-bu...

5-savol. Biokimyoviy tekshirish usuli

6-savol. Xromatin-bu...

III –variant.

1-savol. Shajara tuzish

2-savol. Dermatoglifika usuli

3-savol. Autosoma-retsetsiv irsiylanish tipining xarakterli belgilari

4-savol. Geneologik usul bosqichlari

5-savol. DNK zondlash usuli

Mashg'ulot mazmuni:

Tibbiyot genetikasi usuli.

Antropogenetikaning bir qismi bo'lgan tibbiyot genetikasining asosiy tekshirish usullaridan tibbiyot amaliyotiga moslashtirilgan holda foydalaniladi. Odam irsiyatini o'rganish usullarini ishlab chiqishda Frensiya Galtonning xizmatlari buyukdir. U o'z tadqiqotlarida genealogiya va egizaklar usullaridan keng foydalandi, shogirdi K. Pirson bilan hamkorlikda biometrik genetikaga asos soldi. Hozirgi davrda tibbiyot genetikasining usullari soni ancha ko'payib, hatto molekulyar biologiya ham eng yangi usullarini ham o'z ichiga oladi.

F. Galton o'zining 1865 yilda yozgan "Talentning va xarakterning irsiylanishi" asarida o'z zamonining eng mashhur odamlarining biografiyalarini o'rganib, ularning tanlangan kasblarida qo'lga kiritilgan katta muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan irsiyatga bog'liq ekanligini aniqladi. F. Galton ham ancha oldin odam belgilarining irsiylanishi to'g'risida ayrim ma'lumotlar mavjud edi. Moperti (XVIII asrda) polidaktiliyaning ayrim oilalarda ko'proq uchrashini aniqladi. Nasse (XIX asr boshlarida) gemofiliyaning irsiylanish haqidagi empirik qonunini taklif etdi.

Odam genetik tekshirish ob'ekti sifatida ancha kamchiliklarga ega. Bularning eng asosiysi - odamlarda duragaylash, ya'ni eksperimental duragaylash usulini qo'llash mumkin emasligidir. Shunday bo'lishiga qaramasdan kishilik jamiyatida nikohning har xil tiplarini topish mumkin, kerakli nikohtiplarini topish uchun izchillik bilan tekshirish lozim. Uzoq qarindoshlar to'g'risida aniq ma'lumotlar to'plash ham ancha qiyin, holbuki bularsiz to'g'ri genealogik kartalarni tuzish mumkin emas.

Bu noqulayliklarga barxam berish uchun ma'lum belgi (kasallik) uchraydigan ko'proq oilalarni o'rganish lozim. Odam xromosomalarining sonining ancha ko'pligi (23 juft) ham noqulayliklardan biridir. Ammo hozirga davrda butun dunyo miqyosida o'tkazilayotgan "Odam genomi" proekti muvaffaqiyatlari tufayli odam xromosomalari va ulardagi birikish guruhlarini ancha yaxshi o'rganilgan. Shunday qilib, antropogenetikaning hozirgi zamon usullari odam irsiyati to'g'risida ancha turli, mukammal axborot to'plashga imkon beradi.

Genealogik usul

Avlodlar shajarasini (genealogiyasini) tuzishga asoslangan usul bo'lib, amaliyot vrachlari uchun keng ma'lum bo'lgan, eng qulay usuldir. Bu usul probandning (genetik vrachning nazoratiga tushib, o'rganila boshlangan birinchi shaxs). Qarindoshlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash va uni taxlil qilishga asoslangan. Bunda probandda irsiylanyotgan, o'rganilayotgan belgining (kasallikning) fenotipik namoyon bo'lishi kuzatilmaligi ham mumkin. Bu usul ancha qulay va oson bo'lib tuyulishiga qaramasdan bir muncha qulayliklarga ham egadir. Ulardan biri -

to'planayotgan axborotning buzib ko'rsatilgandir. Agar oilada irsiy latologiya bo'lsa har bir oila a'zosi bukda o'zining aybdorligini his qilishi tabiiydir. Shuning uchuy ham ba'zan so'ralayotgan shaxs o'zining avlodida Igunday kasallikning borligini yashiradi, yoki erining (xo-tininkng) avlodida shunday kasallik bo'lganligi haqida . noto'g'ri ma'lumot beradi. Vrach proband yoki uning qarindoshlarini aybdorlik hissidan xalos qilishga, o'ziga ishonch uyg'otishga harakat qilmog'i lozim. Iloji boricha shajara a'zolarini shaxsan vrachning o'zi tekshirishi, qarindoshlarning bergan ma'lumotlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Agar bunday kishining iloji . bo'lmasa, ayniqsa qarindoshlar boshqa joylarda yashasa anketalar orqali ma'lumotlar to'planadi. Anketani oila vrachlari to'ldirishi maqsadga muvofikdir, Gendrix vrach o'zi shaxsan tekshirganda turli rivojlanishning kichik anomaliyalarini (RKA yoki stigaalar) o'zi ko'rishi mumkin, anketa tuzganda esa savollar mutaxassis bo'lmaganlar ham to'g'ri javob beraoladigan qilib yozilgan bo'lishi kerak. Masalan hipertelorizm)bormi deb so'rash mumkin emas, chunki hamma vrachlar ham bu qanday stigma ekanligini yaxshi bilmasligi mumkin. Hozir stigmalarning 150 ga yaqin turlari aniqlangan, Stigmalar irsiy kasallikka moyillik markeri (bel-gisi), disembrigenezning, mutant genning kam penet-rantligi yoki ekspressivligining dalili bo'lishi mum-kin. Ilovada asosiy stigmalarning turlari keltirilgan (ilovaga qarang).

Faqat to'liq va ishonchli ma'lumotlarga oilaning shajarasini to'g'ri tuzishga imkon beradi.

Shajara sxemasini chizishda umumiy qabul qilingan belgilardan foydalaniladi.

1 Genealogiya usulidan foydalanish quyidagi savollarga javob berishga imkon beradi.

1. O'rganilayotgan belgi (kasallik) irsiymi yoki irsiymas ekanligi.

2. Irsiylanish tipining qandayligi.

3. Kelajak avlodning prognozi.

4. Bundan tashqari bu usuldan odam populyatsiyalarida mutatsion jarayonlarning jadalligini o'rganishda, tibbiyot-genetika maslahatini o'tkazishda, genlarning birikishi va o'zaro ta'sirlari tanlaya qilishda va ularni kartalashtirishda ham foydalanish mumkin.

Genealogiya usuli 3 ta bosqichda o'tkaziladi:

1) ma'lumotlar to'plash;

2) avlodlar shajarasini tuzish;

3) avlodlar shajarasining taxlili.

Shajarani tuzishni probanddan boshlanadi. Keyin esa uning I, II, III, IV darajadagi qarindoshlari so'raladi va tekshiriladi, qon-qarindoshlar bo'lmagan qarindoshlarni ham tekshiriladi. Tibbiyotda bu usul klinik-genealogik usul deb ham ataladi, chunki shajara bironta kasallikka nisbatan tuziladi.

hozirgi davrda shajara tuzish ko'proq kasallikka nis-batan emas (chunki ko'p holatlarda bu juda qiyin, mutantgen shajara a'zolaridan birida bo'lsa ham kasallik. yuza-xa chiqmasligi-mumkin) balki kasallikning asosiy bel-gisiga kisbatan amalga oshiriladi.

Masalan, gapertoniyaning irsnylanishk o'rganilayot-ganda oilaning kichik a'zolari - bolalar o'rganilayot-gan bo'lsin. Tabiiyki, ularda hali gipertomnya kuzatil-maidi.

Shuning uchun bolalarda jismoniy mashq bilan test o'tkazish va qancha vaqtdan keyin qon bosimi me'yoriga tushishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, bunda qon bosimining regulatsiyasi o'rganiladi.

Shajarani ifodalash, ya'ni o'rganilayotgan belgilar-ni tasvirlash, har bir shajara a'zosining probavdga qarindoshligini ko'rsatishi lozim.

Ma'lumotlar to'planganidan keyin shajarani grafik tasvirlanadi, keyin esa genetik taxlil variantlaridan biri - genealogik taxlil o'tkaziladi. Bunda shu narsani unutmaslik kerakki belgi (kasallik) shajarada bir necha marta uchraydi, lekin u irsiy bo'lmasligi mumkin.

Agar bitta patologik omil ayolga uning har bir homiladorlik davrida bir xil ta'sir ko'rsatgan bo'lsa bu fenokopiya bo'lishi mumkin. Yoki to'g'ri muhit omili o'zining zararli ta'sirini oila a'zolarining hamma a'zolariga ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Agar belgining irsiy ekanligi aniqlansa, irsiylanish tipini aniqlashga o'tiladi. Bunda shajara ma'lumotlarini statistik usulda hisoblanadi. Bu usullar K.Shtern (1956), V.Makyusik monografiyalarida batafsil bayon qilingan. Statistik ishlov berishni qonlarni registratsiyalangan qanday usullar bilan o'tkazilganlikni aniqlashdan boshlash lozim (to'liq, to'liqmas, takroriy usullar). Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan qo'llanmalardagi jadvallardan foydalanishgadi.

Belgilar kodominantlik.(masalan AVO, MI qon guruppalariga); avtosoma-dominant (masalan, 1905 yilda birinchi marta tasvirlangan braxidaktiliya), autosoma-retessiv (DNKning ultrabinafsha nur ta'siridan keyin reparatsiyalanganligi natijasida kelib chiqadigan pigmenti kseroderma), yoki geterosoma-dominant, geterosom -retsessiv tipida irsiylanishi mumkin.

Autosoma-dominant tipida irsiylanishda Quyidagi xarakterli belgilar kuzatilishi mumkin:

- a) belgi shajara a'zolarining kupchiligida, har bir avlodda, "vertikal" tipda kuzatiladi;
- b) ota-ona ikkovi ham belgini bolalariga bir xil o'tkazishi mumkin;
- v) belgi erkaklarda va ayollarda bir xil uchraydi;
- g) agar belgi kam uchraydigan bo'lsa, avlodning taxminan 50% da kuzatilishi mumkin.

Autosoma-retiessiv irsiylanish tipining xarakterli belgilari:

- a) kasallarning soni shajarada kam bo'ladi;
- b) belgilar "gorizontal" tilda irsiylanadi. Ayrim avlodlarda umuman kuzatilmamasligi mumkin;
- v) fenotipik sog'lom ota-onalardan 25% holatda kasal bolalar tuzilishi mumkin;
- g) ota yoki ona kasal bo'lsa sog'lom bolalar tug'ilishi mumkin;
- d) erkaklar va ayollarda belgi bir xil uchraydi mumkin.

Bunday shajaralarni taxlil qilganda belgi fenotipik namoyon bo'lgan oilalarda qon-qarindoshlar orasidagi nikohlar umumiy populyatsiyaga nisbatan ko'proq ekanligi aniqlanadi.

Autosoma-dominant va autosoma-retsessiv irsiylanishning xarakterli xususiyatlari genotipda kam ekspressiyalanuvchi, kam penetrantlikka ega genlar bo'lganida, yoki epistatik gen bo'lganida o'zgarishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Kodominantlik va chala dominantlik geterozigotalarda dominant gomozigotalarga qaraganda belgining sust namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Geterosomalarga bog'liq irsiylanish ham xarakterli belgilarga ega.

X-xromosomaga birikkan, irsiylanishning o'ziga xosligi shundan iboratki bunda erkak organizm X-xromosoma genlariga nisbatan gemizigotali (faqat bitta X-xromosomasi bo'lgani tufayli) xisoblanadi, belgani faqat qizlariga o'tkazadi.

X-xromosomaga birikkan dominant irsiylanish tipida quyidagi o'ziga xosliklar kuzatiladi:

- a) belgi ayollarda erkaklarga qaraganda ko'proq uchraydi;
- b) agar ona genning tashuvchisi bo'lsa hamma bolalariga o'tashi mumkin (onagomozigotali bo'lganda), yoki bolalarining yarmiga o'tishi mumkin (ona - geterozigotali bo'lganda).
- v) agar belgi otada bo'lsa, hamma qizlarida namoyon bo'ladi, hamma o'g'illar sog'lom bo'ladi.
- g) ota-onalar sog'lom bo'lsa hamma bolalar sog'lombo'ladi.

X-xromosomaga birikkan retsessiv irsiylanish tipida quyidagi o'ziga xos xususiyatlar tafovut etiladi:

1. Ko'proq kasallik erkaklarda uchraydi;
2. O'g'ilga hech qachon otaning belgisi o'tmaydi.
3. Agar proband kasal ayol bo'lsa, uning qizi va o'g'illarining hammasi kasal bo'ladi.
4. Kasal erkak va sog'lom ayol nikohidan tug'ilgan hamma bolalar sog'lom, lekin ularning qizlaridan tug'ilgan o'g'il bolalar kasal bo'lishi mumkin.
5. Sog'lom erkak va geterozigotali ayol nikohidan 50% o'g'il bolalar kasal tug'ilishi va qizlar hammasi sog'lom bo'lishi mumkin.

EGIZAKLAR USULI

Bu usul ham 1875 yila F.Galton tomonidan taklif etilgandir. Lekin Galton egizaklarni bir tuxumli (monozigot-MZ) va ikki tuxumlilarga (dizigot-DZ) ajratimagan. Keyinroq, bu usul boshqa olimlar tomonidan ancha takomillashtiriladi. Usulning mohiyati quyidagidan ibo-

rat: avval MZ va DZ egizaklar va umumiy populyatsiyadan nazorat gurunlari tuziladi.

Keyin alohida-alohida MZ va DZlar bir-biri bilan solishtiriladi, so'ngra MZlar DZlar bilan, eng oxirida esa egizaklar nazorat gurun bilan solishtiriladi.

Bu usul yordamida belgining (kasallikning) rivojlanishida irisiyat va muhitning nisbatan roli aniqlanadi. Ammo belgilarning konkordantligi (o'x-shashligi) va diskordantligini (o'xshamasligi) taxlil qilishdan avval egizaklarning qanday zigotaligini (monozigotali yoki dizigotaligini) aniqlab olish zarur. MZlar maydalanishning dastlabki bosqichlarida bitta zigotadan ikkiga bo'linib, mustaqil rivojlangan bolalardir. Shuning uchun ham MZ-lar genotiplari bir-bi-riga to'liq o'xshashdir (somatik mutatsiyalar, kelib chiqishi mumkinligini e'tiborga olmaganda), MZ larda uchraydigan farqlar muhit ta'sirining natijasi hisoblanadi. DZlar bir vaqtda otalangan ikki tu-xum hujayradan rivojlangan va bir vaqtda tug'ilgan bolalardir.

DZlar oiladagi oddiy sibslar kabi bir-biriga o'xshashi yoki o'xshamasligi mumkin, chunki ularning umumiy genlari 50%ga tengdir. Ularning boshqa sibslardan farqi embriogeneza va tug'ilgandan keyin bir xil muxit omillarining ta'sirida bo'lishidir. Agar ular har xil jinsli bo'lsa darhol DZlarga kiritish mumkin.

Bir jinsli egizaklarni zigotaligini aniqlash uchun ularni har xil mezonlar bo'yicha solishtirish lozim. Eng aniq usul - bu terini transplantatsiyalashdir. Transplantantning yaxshi qo'shilib ketishi monozigotalikdan darak beradi. Zigotalikni aniklashda egizaklarda NLA-sistema gaplotiplari bo'yicha solishtirish ham yaxshi natija beradi. Bu sistema juda katta polimorfizmga ega bo'lgani uchun NA gaplotiplari bo'yicha DZlarning kon-kordant bo'lishi mumkin emas. Egizaklarning zigotaligi to'g'risida aniq ma'lumotlarni, boshqa monogen irsiylakuvchi

polimorfizm belgilarni, masalan eritro-tsitlar qon sistemalarini (AVO, MK, RH Lyuteran, Daffi, Kidd Levis va boshqalar), zardob sistemalarini (gaptoblobinlar, transferrinlar, gammaglobulinlar) solishtirganda ham olish mumkin.

Lekin bunda egizaklarning ota-onalari shu belgilar bo'yicha bir xil bo'lganda olingan ma'lumotlar aniq chinmasligini unutmaslik kerak.

SITOGENETIK USUL

Bu usul XX asrning 50-yillaridan boshlab qo'llanib kelinmoqda. Shu yillarda leykotsitlarni sun'iy o'stirish usuli ishlab chiqildi, ularda xromosomalarning metafaza xolatini olish va xromosomalarni mikroskopda tekshirish usullari yo'lga qo'yildi. Bu usulni qo'llashning birinchi muzaffaqiyatli natijasi 1959 yilda Leje tomonidan Daun sindromida xromosomalar sonining anomaliyasini aniqlanishi bo'ldi.

Hozirgi vaqtda sitogenetik usuldan xromosomalar tuzilishi va sonining o'zgarishlariga bog'liq bo'lgan kasalliklarni o'rganishda, xromosomalarni kartalashtirishda, ularning polimorfizmini o'rganishda va boshqa irsiy muammolarni aniqlashda keng foydalaniladi.

Faqat sitogenetik usulgina xromosoma patologiyalarida tashxis qo'yishga imkon beradi, shuning uchun ham differensial tashxisda bu usul juda qulaydir. Masalan, Daun kasalligining klinik ko'rinishi aniqlanganda faqat sitogenetik usulning yordami bilangina trisomiya variantini (47, XX+21) translokatsiya sindromlaridan (45XX+T15+21) ajratish mumkin. Buni aniqlash esa kasal bola bo'lgan oilada avlod prognozini aniqlashda juda muhim ahamiyatiga egadir.

Citogenetik usulni qo'llashning asosiy bosqichlari quyidagilardir:

- 1) hujayralarni ajratib olish va sun'iy o'stirish;
- 2) xromosomalarning metafaza holatini olish;
- 3) metafaza holatidagi xromosomalarni mikroskopda o'rganish va kariotipni aniqlash.

Hozirgi davrda interfaza holatida ham xromosomalarni ajratib olish usullari ishlab chiqilgan, lekin ularning aniq tuzilishini faqat mitoz yoki meyoza metafazalaridagina yaxshi o'rganish mumkin.

Tekshirish uchun hujayralarni suyak ko'migidan teridan, uruvdonyaardan olish mumkin, lekin eng qulay obyekt-qonning yadro saqlovchi hujayralaridir. Periferik qonning leykotsitlarini 2-3 sutka davomida FGA (fito-gemaglyutinin)


qo'shilgan muhitda sun'iy o'stiriladi. FGA hujayralarning bo'linishini tezlashtiradi. Metafaza stadiyasida xromosomalar juda yaxshi ko'rinadi, shuning uchun ham bo'linayotgan hujayralari bo'lgan oziq muhitga kolxittin moddasini qo'shamiz. Bu modda bo'linish duki iplarini parchalaydi va mitozni metafazada to'xtatadi. Keyin yadro membranasi parchalash uchun hujayralarga gipotonik eritma qo'shiladi. fiksatsiyalanadi, buyum oyiachalariga o'tkazilgan hujayralar bo'yaladi va mikroskopda tekshiriladi. Xromo-somalarni bir-biridan ajratish uchun avval ularning mikrofotografiyasi tayyorlanadi, keyin kariogramma (idiogramma) tuziladi. Xromosomalarni individual farqlash uchun Parij nomenklaturasiga asoslangan xromosomalar tasnifidan foydalaniladi. Xromosomalar asosan uzunligiga va tsentromerasini joylanish tartibiga qarab (metatsentrik, submetatsentrik, akrotseitrik, yo'ddoshli va boshqa tiplar) ajratiladi.

Hozirgi davrda avtoradiografiya, 5 bromdezoksiuridin bilan tekshirish, fluoroxromlar bilan (Q), Gimza bo'yoqpari (S; - disklar) bilan differentsial bo'yash, shu usullarning xilma-xil o'zgartirilgan variantlarini qo'llash xromosomalarni ma'lum guruhlariga (A, V, S, D, Ye, F, J) aniq ajratishga imkon beradi.

PALMASKOPIYA kaft terisidagi naqshlar tasvirini o'rganadi. Kaftning tashqi tuzilishi va kaft terisidagi naqshlar, tasvirlar ancha murakkab. Kaftda ko'pgina yostiqliklar, burmalar, maydonchalar va turli chiziqliklar bor. Odatda kaftda 11 ta yostiqliklar bo'lib, ular 3 ta guruhga bo'linadi: 1) 2 ta katta proksimal kaft yostiqlik - tenor va gipotenor; 2) 4 ta barmoqlararo yostiqliklar; 3) 5 ta barmoqlar uchidagi yostiqliklar. Kaftda burmalardan: 1) kaft-barmoq; 2) distal; 3) proksimal; 4) bosh barmoqning burmasi; 5) bilakuzuk burmalan joylashgan (78-rasm, a). Ayrim holatlarda proksimal va distal burmalar qo'shib ketgan bo'lib, to'rtta barmoq burmasini hosil qiladi. Bunday burmaning hosil bo'lishi irsiy hisoblanadi va ko'pincha xromosomalar soni o'zgaq-an odamlarda uchraydi (13, 18, 21 xromosomalarni bo'yicha va «mushuk chinqirig'i» kasalligida).

Kaftda yana 14 ta maydoncha ham bor. 1- maydoncha tenorda, 1- va 2- barmoqlar oralig'ida esa 13- maydoncha, 2- maydoncha tenor va gipotenor orasida, 3- maydoncha gipotenorda, 4- va 5- maydonchalar ham kaftning ubiarchekkasiga joylashgan. 6, 8, 10 va 12- maydonchalar 5, 4, 3 va 2- barmoqlar asosida joylashgan bo'lib, barmoqlar maydonchalari deyiladi. 7, 9, 10- maydonchalar esa 4, 3, 2- barmoqlararo oralig'iga to'g'ri keladi. Kaftda har xil tomonga yo'nalgan ko'pgina chiziqliklar bor. Uch tomonga yo'nalgan chiziqliklarning bir-biriga yaqin kelgan joyini triradius deyiladi. Kaftda 2-4- barmoqlar asosida 4 ta triradius (a, b, c, d) bor (78- rasm, d). Bundan tashqari tenor va gipotenor oralig'ida asosiy (o'q) triradius bor. Bu triradius kaftning korpali, oraliq va markaziy qismlarida ham joylashishi mumkin. Asosiy Triradiusning qayerda joylashganligini aniqlash uchun barmoq triradiusi va d bilan asosiy triradius t oralig'idagi burchakni ($\angle atd$) aniqlash kerak. Agar $\angle atd < 40^\circ$ dan kichik bo'lsa, triradiusning joylashishi *korpali* (t), 41-60° bo'lsa *oraliq* (t') hamda 61° va

undan katta bo'lsa *markaziy* (t'') bo'ladi. Irsiy kasalliklari bo'lgan kishilarda asosiy triradius odatda kaftning distal tomonida joylashadi, ya'ni oraliq yoki markaziy triradiuslar ko'rinishida bo'ladi.



DAKTILOSKOPIYA barmoq uchi terisidagi chiziqlar tasvirini o'iganadi. Barmoq uchlaridagi chiziqlar tasviri ham xilma-xildir (79- rasm). Ularni uch xilga ajratish mumkin: 1) yoysimon - (A — arch); 2) ilmoqsimon (L - loop); 3) aylanasiimon yoki tugunchasimon (W - who). Yoysimon ko'rinishdagi tasvirlar boshqalariga nisbatan kamroq uchraydi (6 %). Ilmoqsimon tasvirlar eng ko'p tarqalgan (60 %) bo'lib, ikki xil, ya'ni radial va ulnar yo'nalishida bo'ladi. Radial ilmoqchasimon tasvirda uni hosil qilgan chiziqlar kaftning radial tomoniga ochiisa, uinarda esa kaftning ulnar tomoniga ochiladi. Aylanasiimon tasvirlar ilmoq-simonga nisbatan kamroq uchraydi (34%).


Yoysimon tasvirda triradius boimaydi. Ilmoqchasimonda bitta, aylanasiimonda esa ikkita triradius boiadi. Barmoq uchlaridagi chiziqlar tasviri irsiy kasalliklari bor kishilarda o'zgaradi. Barmoq uchlan terisida yuqoridagi tasviri aniqlangach, ulardagi teridan bo'rtib chiqqan chiziqlarning soni aniqlanadi. Buni uchun barmoq triradiusidan barmoq uchidagi tasvirning markaziga qadar chiziq tortiladi. Shu tutashtiruvchi chiziq barmoq uchidagi bo'rtib chiqqan chiziqlarning nechtasini kestib o'tgani hisoblanadi. Yoysimon ko'rinishdagi tasvirda triradius bo'lmaganligi uchun undagi chiziqlar soni 0 deb olinadi. Ilmoqsimon tasvirda esa chiziqlarning soni eng ko'pi 25 tagacha yetadi. Aylanasiimon tasvirda triradius ikkita bo'lganligi uchun har ikkala tomondan chiziqlar sanaladi va asosiy hisobga qaysi birida chiziqlar soni ko'p bo'lsa o'shanisi olinadi. Barcha, ya'ni 10 barmoqlardagi chiziqlar sonierkaklarda 130-150, ayollarda esa 110-135 ta bo'ladi. Odatda X-xromosoma soni kamayganda chiziqlar soni ko'payadi, ya'ni

XO-178; X-xromosoma soni ko'payganda esa (masalan, XXXY) chiziqchalar soni kamayadi — 43.

Barmoqlar terisidagi tasvirlarning hosil bo'lishini maxsus genlar boshqarib turadi. Yoysimon tasvir E (17-18) guruhga kiruvchi xromosomadagi genlar, ilmoqsimon tasvir (L), G (21) guruhga kiruvchi xromosomadagi genlar, aylanasiimon tasvir D{13, 15}guruhga kiruvchi xromosomadagi genlar orqali yuzaga chiqadi deyiladi. X- xromosomada esa bu genlarning modifikatori joylash-gan bo'lib, u yoysimon tasvirning ko'proq hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Teridagi naqshlar tasviri embrional rivojlanishning 10—19- haftalarida paydo bo'ladi. 20 haftalik embrion terisida hamma chiziqchalar paydo bo'lgan bo'ladi. Teridagi barcha tasvirlar embrion-ning 6 oyligida butunlay hosil bo'ladi va umrining oxirigacha saqlanib qoladi. Tcri yemirilganda (kuyganda, kesilganda va boshqa holatlarda) ulardagi chiziq-chalar oldin qanday bo'lsa shunday bo'lib tiklanadi.

Hozirgi kunda dermatoglifikadan irsiy kasalliklarni aniqlashda, tibbiy-sud ekspertizasida shaxsni, eguaklarning mono yoki dizigotaliligini va aholining etnik tuzilishini aniqlashda keng foydalanilmoqda.



Normada va irsiy kasallik bo'lganda burma-kning ko'rinishi:

1 — Palau sindromi; 2 — Daun sindromi; 3 — Shershevskiy-Temer sindromi; 4 — norma; 5 — Klaynfelter sindromi.

Irsiy kasalliklari bo'lgan kishilarda ko'p uchraydigan dermatoglifik belgilar quyidagilardir: 1) barmoq uchlaridagi tasvirlardan (yoysimon ilmoqsimon, aylanasiimon) birining uchrashi **ko'payadi**; 2) barmoq uchlaridagi teridan bo'rtib chiqqan chiziqchalarning soni normadagisi-dan oshib yoki kamayib ketadi; 3) kaftdagi asosiy iriradiusning: joylashishi o'zgaradi (A.) barmoq uchida triradius bo'lmaydi 5) kaftda to'rt barmoqli ko'ndalang egiluvchan burma paydo bo'ladi.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talaba tibbiyot genetikasi tekshirish usullari haqida mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijobiy va teran fikrlay oladi. Tibbiy genetika usullarini mukammal biladi, aytib bera oladi, ko'rsata oladi. Genetika tarixini to'liq biladi. Genetik simptomlar haqida to'liq ma'lumotga ega.
71 – 85 ball	Talaba tibbiyot genetikasi tekshirish usullari haqida xulosa va qaror qabul qiladi, ijobiy fikrlay oladi. Tibbiy genetika usullarini to'liq biladi, aytib beradi, ko'rsata oladi. Genetika tarixini biladi. Genetik simptomlar haqida ma'lumotga ega.
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, tibbiyot genetikasi tekshirish usullarini bilmaydi. Genetik simptomlar haqida bilmaydi.
0 – 55 ball	Tibbiyot genetikasi tekshirish usullari haqida jada ham sayoz bilimga ega. Genetik simptomlar haqida ma'lumotga ega emas.

Amaliy mashg'ulot № 2

Mavzu: Xromosoma kasalliklar

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 2. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 3. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish • Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. • Meditsinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.

	E.A, Gofman -Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P., Zaxarov A.F., Ivanov V.I., Meditsina, 1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Oshonkulov O.O. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar, qo'shimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar. Toshiriqni oladilar.

Mavzuga oid savollar:

1. Xromosoma kasalligi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
2. Sindrom Dauna etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
3. Patau sindromida etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
4. Shershevskiy – Turner sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
5. Klaynfelter sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
6. Mashuq chinqirigi sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

FSMU fikr, sabab, misol, xulosa.

Ish uchun kerak.

Savollar

Toza qog'oz ruchka

Ish daftari

Uyin borishi

umumiy vaqt 45 min

barcha talabalar 3 ta kichik guruhga bo'linadi har birida 4 tadan talaba

Har bir kichik guruh alohida stolga o'tiradi. Toza qog'oz tayyorlaydi va bitta rangli ruchkani oladi.

Qog'ozga sana, guruh nomeri, o'yinning nomi va shu guruh qatnashchilarning ismi sharifi yoziladi.

topshiriq beriladi: hamma kichik guruhlar bitta aniq savolga javob beradi

Har bir student qog'ozga o'zining familiyasini, javob variantini yozadi va qog'ozni qo'shnisiga beradi. Keyin ruchkasini stol yirtasida xarakatlantiradi.

Pedagog guruhning va guruhdagi har bir qatnashchining ishini nazorat qiladi. Umumiy to'g'ri javob daftarga yoziladi.

1) o'rin 86-100 ball. 2) o'rin 71-85,9ball. 3) o'rin 55-70,9 ballgacha

Qog'ozda assistent ball va imzo qo'yadi.

Talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy bahoga ta'sir ko'rsatadi

jurnalning pastki bo'sh qismiga o'tkazilgan o'yin belgilab qo'yiladi, guruh sardori imzo qo'yadi.

Talabalarning ishi o'qituvchi tomonidan saqlab qolinadi.

Xromosoma kasalliklari. Tekshirish usullari va patologiyasi mavzusida stol ustida ruchka o'yinining savollari.

Xromosoma kasalligi etiologiyasi

Denver klassifikatsiyasi

Mitoz-bu...

Meyoz-bu...

Konyugatsiya nima

Krosingover hodisasi

Daun sindromi

Patau kaslligi

Kleynfelter kasalligi

Shereshevskiy-Terner kasalligi

'Mushuk chinqirig'i' kaslligi

Xromosoma kasalligi patogenezi

Xromosoma kasalliklarini davolash

Xromosoma kasalliklarini nazoratga olish

Jinsiy xromatinni aniqlash

Mashg'ulot mazmuni:

Odamga xromasomalar 23 juft buladi. 22 juft somatik 1juft jinsiy xromasomalar buladi.

Bular Denver klassifikatsiyasiga kura 7 ta guruhga bo'linadi

- **A** - 1,2,3 juft
- **V** - 4,5 juft
- **S** - 6,7,8,9,10,11,12 juftlar
- **D** - 13,14,15 juft
- **Y** - 16,17,18 juft
- **R** - 19,20 juft
- **S** - 21,22 juft 23-jinsiy xromasomalar XX, XY

Xromasomalar bo'linishi:

Mitoz – somatik xromasomalar bo'linishi

Meyoz – jinsiy xromasomalar bo'linishi

Mitoz hujayralar bo'lingan vaqtdan qayta bo'linishigacha bo'lgan vaqt hujayra sikli deyiladi bo'linayotgan hujayralar sikli mitoz sikli deyiladi . Mitoz sikli meyoza va interfazadan iborat. Mitozlar oraligi interfaza deyiladi.

Mitoz usulida bo'linishida 2xil jarayon kuzatiladi

1. yadroning bo'linishi -kariokinez

2. sitoplazmaning bo'linishi -sitokinez

Ba'zan mitoz noto'g'ri kechishi hujayralarning shikastlanishi soning kamayishi yoki ortib ketishiga olib keladi.

Jinsiy hujayralar meyoza usulida bo'linadi. Meyoz ketma-ket keladigan 2 bo'linishdan iborat . Ularni farqlash uchun birinchi bo'linish fazalari oldiga I, ikkinchisiga II raqami yoziladi .

Birinchi profazada ikkita xromatiddan tashkil topgan xromasomalar sipirallashadi, kaltalashadi. Gomolog xromasomalar bir-biriga yopishib, yonma-yon joylashishini **konyugatsiya** deyiladi.

Ba'zan konyugatsialashgan xromasomalar bir-biri bilan o'z xromatidlarini o'xshash qisimlarini almashadi. Bu hodisa esa **krosingover** yoki xromasomalar chalkashishi deyiladi.

Meyoz natijasida har bir diploid to'plam boshlang'ich hujayra ketma – ket 2 marta bo'linishi natijasida 4ta gaploid to'plamli jinsiy hujayralar – gametalar hosil bo'ladi.

Xromasoma kasalligi xromasomalar sonining yoki ular tuzilishining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Xromasomalar soning o'zgarishi odatda, hujayralarning bo'linish jarayonida xromasomalarning qutiblarga barobar taqsimlanmasligidan kelib chiqadi.

Odatda xromasoma kasalliklariga duchor bo'lganlar bolalik chog'idayoq halok bo'lishadi yoki o'zidan keyin nasl qoldirmaydi. Shuning uchun xromasoma

kasalliklar nasldan – naslga doimo ham berilmaydi va har avlodda yangidan paydo bo'ladi. Hozirgi kunda xromasomalar soni va tuzilishining o'zgarishi natijasida sodir bo'ladigan irsiy kasalliklardan 500 ga yaqini ma'lum. Xromasoma irsiy kasalliklari autosomalarning va jinsiy xromasomalarning soni va tuzilishining o'zgarishi bilan yuzaga chiqishi e'htimoli bor.

AUTOSOMALARGA BOG'LIK BO'LGAN KASALLIKLAR.

DAUN sindromi angliyalik vrach L.Daun tomonidan 1866 – yili aniqlangan edi. Daun kasalligi odatda 21 autosomaning oshib ketishi natijasida sodir bo'ladi. Bunday kasalliklarda 46 o'rniga 47 xromasoma kuzatiladi. Kasallik autosomalar soning o'zgarishi bilan yuzaga chiqqanligi uchun erkaklarda ham ayollarda ham kuzatiladi. Kasal bolalarning bo'yi past, kallasi kichik va yumaloq, burunlari kalta, ko'z kesimi egri, quloq suprasi kichik, og'zi yarim ochiq og'zidan ko'pincha tili chiqib turadi. Til, teri, lablari ko'rik va ko'pincha ko'zda g'ilyalik bo'ladi. Tishlar bir tekisda bo'lmaydi. Boshda sochlar siyrak silliq, qo'l barmoqlar kalta va yog'on bo'lib, 5 – barmoq juda ham kichik. Kaft terisida faqat bitta ko'ndalang ketgan egatcha bo'ladi. Barmoq uchlari terisi chiziqlarning shakli asosan ulnar tomonga ochiladigan ilmoqsimon bo'ladi.

Muskullar sistemasi ham juda sust rivojlangan, shuning uchun bunday bolalar faqat aqliy emas, jismoniy tomonidan ham juda zaif bo'ladilar. Ularda mustaqil ravishda bir ishni bajarish xususiyati yo'q. Ayrimlarini yozish va o'qishga o'rgatish mumkin, lekin sanashni o'rgana olmaydi. Ular xo'jalikdagi juda oddiy ishlarnigina bajarishlari mumkin bo'lib, ularda bosh miya yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Gipofiz bez, jinsiy bezlar va ikkilamchi jinsiy belgilar juda sust rivojlangan. Qizlarda oylik sikilning buzilishi kuzatiladi. Odatda Daun kasalligiga duchor bo'lganlarda farzand bo'lmaydi. Ammo farzandli bo'lganlar ham ma'lum, lekin bolalarining yarmi Daun kasalligi bilan tug'iladi.

Daun kasalligi bor bolalarda imunitet past bo'lganligi uchun ular har xil yuqumli kasalliklarga bardosh bera olmasdan yoshligidayoq o'lib ketadilar. Hozirgacha bu kasallikning hosil bo'lishi sabablari anik o'rganilgan emas. Pekin ma'lumotlarga ko'ra qishloq aholisiga qaraganda shahar aholisi o'rtasida Daun kasalligi ko'p uchraydi. Onaning yoshi ulg'aygan sari uning farzand Daun kasalligi bilan tug'ilishi e'htimoli ham ko'payadi.

DAUN kasalligi xromasoma sturukturasining o'zgarishi bilan, yani xromasomalar translokatsiya natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda ayollarda 21-juft xromasomaning asosiy qismi 13-15 xromasomalarga erkaklarda esa 20 xromasomaga kelib birlashadi. Natijada kariotibda xromasomalarning soni 45ta bo'lsada 46ta xromasoma uchun genetik material yetarli bo'ladi. Shuning uchun bu o'zgarishni muvozanatlashgan **teraslokasiya** deyiladi. Shunday teraslokasiyasi bor kishilardan nazariy jihatdan to'rt xil gametalar hosil bo'lishi mumkin va ular normadagi gammetalar bilan urug'langanda quyidagi zigotalar hosil bo'ladi.

Agar ota-onadan birida Daun kasalligi tronslokasiya hisobiga yuzaga kelgan bo'lsa shu oilada sog'lom bolaning tug'ilish e'htimoli juda kam bo'lib 33% tashkil etadi. Odatda Daun kasalligiga sitogenetik va dermatoglifik usullar yordamida tashxis qo'yiladi. Lekin kasallikni savolash usullari hozirgacha aniq emas. Edvars kasalligi.

1960 yili D.Edvars kasal qizning kariotipini aniqlaganda, unda birta ya'ni 18-xromasoma ortikcha ekanligini topdi (46+1) va bu kasallikni belgilarini to'liq o'rgandi. Edvard kasalligi bilan tug'ulgan o'g'il bolalar uzoq yashamasdan hayotining dastlabki oylarida yoki vafot etadi. Qiz bolalar esa 2-3 yoshgacha yashashi mumkin. Bunday kasalligi bor bolalar 3 oylik bo'lib tug'ulgan bo'lsada, vazni juda kichkina bo'ladi. Kasallikni belgilari quyidagilardir: ensa burtib chikgan, boshi uzunchoq, jag'lar va og'iz bo'shligi kichik, tanglay baland, quloqlar juda past joylashgan, qon aylanish sistemasi, ko'rish kobilyati va buyrakning tuzilishi buzilgan. Qo'l barmoqlari juda kalta. Kaftda ko'ndalang ketgan burma bo'lib deyarli barcha barmoqlar uchida yoysimon chiziqlar kuzatiladi. Bu kasallik 4500, 6500 sog'lom bolaga birta to'g'ri keladi.

Patau kasalligi. Kasallikni birinchi bo'lib K. Patau 1961 yil o'rgangan. Kasallik birta xromasomaning ortib ketishi bilan yuzaga chiqadi (46+1). Bu ortiqcha xromasoma 13-15 juft xromasomalardan biri bo'lib, qaysi bir juftga kirishini aytish qiyin. Chunki 13, 14, 15 juft xromasomalar bir-biriga juda o'xshash. Shuning uchun Patau kasalligini D guruhga mansub xromasomalardan birining oshishiga bog'lab tushuntiriladi. Bunday kasallik bilan bolalar odatda sog'lom ota-onalardan tug'iladi va 3500, 4000 sog'lom bolaga birta kasal bola to'g'ri keladi. Kasallikga xos belgilar quyidagilardir: bolalarning vazni, bo'yi juda kichik va ko'pincha vaqtdan oldin tug'iladi. Yuqori labida va tanglayida yoriqcha bo'ladi. Ko'z bo'lmasligi ham mumkin, bosh miya yaxshi rivojlanmaydi, barmoqlar soni odatdagidan ko'p. Buyrakda, yurakda, ichakda, taloqda, qizlarning bachadonida, o'gil bolalarning esa moyagida ko'pgina o'zgarishlar bo'ladi. Dermatoglifika belgilaridan asosiy triradius 180 S ga teng. Odatda kasal bolalar tug'ilgandan keyin 2-3 hafta ichida vafot etadilar. Kamdan-kam chaqaloqlar 2-3 yoshgacha yashashi mumkin. Jinsiy xromasomalarga bog'liq bo'lgan kasalliklar.

Kleynfelter kasalligi. Eraklarda uchraydigan kasallikni 1942 yil K. Kleynfelter aniqlagan edi. Kleynfelter kasalligida X xromasomalar soni ortiqcha bo'ladi, ya'ni 44 XXY. Ushbu kasallik bilan tug'ilgan bolalarning sog' bolalarga nisbati 1:1000 bo'lib, bu nisbat katta yoshdagi kishilarda ham saqlanib qoladi.

Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: bo'y, qo'l va oyoqlar uzun, yelka tor, toz suyagi keng, muskullar va urug' chiqiruvchi kanal yaxshi rivojlanmagan, urug'don juda kichik bo'lib spermatogenez kuzatilmaydi. Ko'pchilik holatda aqliy zaiflik yuzaga keladi va ayrim holatlardagina aqliy tomondan normada bo'lishi mumkin. Barmoq uchlari terisidagi tasvirlar ko'pincha yoysimon bo'lib, ulardagi egatlarning umumiy soni ancha kamaygan. Kasallikni XXY genotipligidan tashqari XXXY, XXXXY, XYY, XXYY, XXYYY genotiplari ham uchrab, o'ziga xos fenotipli bo'lishi mumkin.

Shereshevskiy-Terner kasalligi. Kasallikni 1925 yili N.A.Shereshevskiy 1938 yil Ternerlar izoxlab berganlar. Bu kasallik ayollarga xos bo'lib 1:5000 nisbatda uchraydi. Shu kasalligi bor ayollarda xromasomalar soni 45ta bo'lib, 1ta xromasoma kam bo'ladi. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: past bo'yli, yengil vazinli, bo'yin juda qisqa va burmali bo'ladi, tuxumdon va ikkilamchi jinsiy belgilar yaxshi rivojlanmagan, yelka keng bo'lib toz suyagi va oyoqlar kalta. Oylik

sikl kuzatilmaydi. Ko'krak bezlari rivojlanmay, ular o'rniga yog' to'plamlari paydo bo'ladi. Yuz ko'rinishi o'zining yoshiga qaraganda qari ko'rinadi. Kaftdagi asosiy triradiusi kengaygan. Barmoqlar uchida aylanasiimon tasvirlar uchraydi. X xromosoma ko'pincha trisomiya kasalligi. Bu kasallik odatda ayollarga xos bo'lib, 44 XXX genotipli bo'ladi va 1:1000 nisbatda uchraydi. Fenotip juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Tuxumdon o'zgargan, aqliy zaif bo'lib, jismoniy rivojlanish orqada qolgan, tanglay qatiq va Yuqori joylashgan bo'lib, kariotipi normalda bo'lgan soglom nasil qoldirishi mumkin. Ayrim holatda uzun bo'yli bo'lib, tuxumdon yaxshi rivojlangan bo'lmaydi, shuning uchun pushsizlik erta paydo bo'ladi. Kaft va barmoq terisidagi naqshlar o'zgargan, lekin normada ham bo'lishi mumkin. Kariotip barchasida deyarli bir xil ya'ni 44 XXX, lekin ayrim holatlarda 44 XXXX va 44 XXXXX genotiplilari ham uchraydi. Bunday gepotipli kasallarda tashqi belgilarida o'zgarishlar ko'prok bo'ladi.

Xromasomalar strukturasining o'zgarishiga bog'lik bo'lgan kasalliklar.

"Mushuk chinqirigi" kasalligi: Kasallikni 1960 yili Djekobe o'rganadi. Keyinchalik esa (1963) bir oilada ikkita bolaning shu kasallik bilan tug'ulganligi aniqlanadi. Bu bolalarning fenotipik jihatda sog'lom bo'lgan onasining 5- chi xromosomada uzilish (deletsiya) bo'lganligi va xromosomaning shu uzilgan bo'lagining 13- 15- chi juft xromosomalardan biriga kelib birikkanligi (translokatsiya) aniqlangan. Bunday muvozanatli translokatsiya natijasida onada o'zgarish kam bo'lgan. Onadagi uzilish bo'lgan 5-chi xromosoma bolalarga o'tsa bolalarda "mushuk chinqirig'i" kasalligi paydo bo'ladi. Bolaga 5-chi xromosomaning uzilgan bo'lagi bo'lgan, ya'ni translokatsiyasi bor 13-15 chi xromosomalar o'tsa, bolada yuqoridagi kasallikka xos belgilar sodir bo'lmas ekan.

"Mushuk chinqirigi" kasalligi bilan tug'ilgan bolalarning sog'lom bolalarga nisbatan uchrash nisbati aniq emas, lekin keyingi paytlarda bu kasallikka duchor bo'lgan bolalar sonining ko'payganligi ma'lum. Kasallikning asosiy belgilari quyidagilar: ovoz paylarida o'zgarish bo'lganligi uchun mushuklarning chinqirib miyovlashiga o'xshash ovoz chiqaradi, aqliy, jismoniy zaiflik, yuz tuzilishi yumaloq, kalla suyagi kichik, ko'z kesimi antimongoloid tipda. Kasallarning 50% da hiqildoq noto'g'ri tuzilishga ega va 25% da esa yurak: tuzilishida o'zgarish bo'ladi. Kariotipda 5 – chi xromosomaning kichik yelkasida uzilish (deletsiya) bo'lganligi tufayli u sezilarli darajada kichiklashgan.

18-chi juft xromosomaning uzun yelkasidagi uzilish.

Xromosomada bo'ladigan bu o'zgarish 1964 yili o'rganildi. Xromosomasida shunday o'zgarish bo'lgan bolalarda kalla suyagi kichik, burun kichik, ovoz yutish yo'li toraygan, g'ilaylik, qiyshik oyoq, barmoqlarning bo'lmasligi kuzatiladi. Ichki organlarda ham katta o'zgarish bo'ladi. Xromosoma kasalligi xromosomalar sonining yoki ular tuzilishining o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Xromosomalar sonining o'zgarishi odatda, hujayralarning bo'linish jarayonida xromosomalarning qutblarga barobar taqsimlanmasligidan kelib chiqadi.

Xromosoma kasalliklariga duchor bo'lganlar bolalik chog'idayoq halok bo'lishadi yoki o'zidan keyin nasl qoldirmaydi. Shuning uchun xromosoma kasalliklari nasldan naslga doimo ham berilmaydi va har avlodda yangidan paydo bo'ladi.

Xromosoma irsiy kasalliklari autosomalarning va jinsiy xromosomalarning soni va strukturasi o'zgarishi bilan yuzaga chikishi mumkin.

Xromosoma kasalliklariga quyidagi patologiyalar kiradi, qaysikim rivojlanish poroglari bilan klinik ko'rinishda kechadi. Genetik tomonidan esa organizm normal hujayralarida xromosoma materialining disbalans kuzatiladi. Ko'pgina xromosoma kasalliklar sporadik bo'lib, ular sog'lom ota – onada genom mutatsiyasi orqali yuzaga chiqishi yoki zigotaning bo'linishi vaqtida uchrashi mumkin, bu nasliy o'tmaydi, qaysikim reproduktiv davrgacha yuqori o'lim tugallanadi.

Xromosom kasalliklarining fenotipining asosini erta embriogenez rivojlanishining buzilishi tashkil etadi. Eng ko'p uchraydigan xromosom kasalliklar 3 ta bo'lib ularga: Daun, Klaynfelter, Shereshevskiy Turner sindromlari kiradi.

Barcha xromosom kasalliklarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin,

1. Xromosomalarning soni o'zgarishi, lekin strukturasi saqlangan – genom kasalliklar.

2. Xromosomaning strukturasi o'zgarishi – xromosom kasalliklar.

Individual xromosomalar soning o'zgarishi hujayralarga gametogenezning bir va ikki meoz bo'linishida Xromosomalarning teng taqsimlanmaganligidan kelib chikadi. Bu quyidagi variantlarda uchraydi:

A. Anafazda reduplikatsiyalangan Xromosomaning ajralishi buziladi. Natijada ikkilangan xromosoma bitta qiz hujayraga o'tadi.

B. Gomologik xromosomalarning konyugatsiyasining buzilishi. Bu xil xromosomaning ajralish buzilishiga olib keladi.

S. Anafaza davrida xromosoma ajralishining orqada qolishi. Bu xromosomaning yo'qotilishiga olib keladi. To'g'ri quyilgan tashxis genetik xatarni aniq hisoblashga imkon beradi. Ammo shuni unutmaslik lozimki, hatto xatar ko'rsatkichi 0% bo'lganda ham sog'lom bola tug'ilishiga to'liq kafolat berishi qiyin. Chunki bu bolada genetik xatar aniqlangan kasallikdan boshqa kasallik ham namoyon bo'lishi mumkin. Har qanday oilada turli anomaliyalari bo'lgan bolalarning tug'ilishi ehtimoli 3 - 5% ga teng (umumiy populyatsiya xatar ko'rsatkichi). Masalan, Dyushenn miopatiyasi nisbatan xatar ko'rsatkichi 0 % bo'lganda, oilada Ayer sindromli bola tug'ilishi mumkin.

Bu esa yangi mutatsiyaning natijasidir.

Kam holatlarda xatar ko'rsatkichi 100% bo'lishi mumkin. Masalan odatda ham onada ham autosoma – retsessiv tipda irsiylanadigan fenilketonuriyaning klassik shakli uchraganda, yoki otada ham onada ham daltonizm (X-ga birikkan irsiylanish tipi) uchraganda xatar kursatkichi 100% ga teng bo'ladi.

Xatar kursatkichini hisoblashni 2 xil yo'l bilan amalga oshirish mumkin.

1. Genetik qonuniyatlarga asoslangan nazariy hisoblash yordamida aniqlash.

Bu usul monogen kasalliklarda qo'llaniladi. Bunday hisoblash ota – onalar genotipi aniq bo'lgan holda qanday tipdagi gametalar hosil bo'lishi, populyatsiyada geterozigotalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2. Empirik usul – xatar ko'rsatkichlari jadvallar yordamida aniqlash.

Bu usul xromosomalar soni va strukturalarining o'zgarishiga bog'lik bo'lgan kasalliklarda hosil bo'ladigan gametalar va ularning elimina- siyasi

xisobga olingan xolda va mul'tifaktorial kasalliklar uchun kullaniladi. 3 . Xar ikkala usulni kushib foydalailadi. Bunday xisoblash ota - onadan birida muvozanatlashgan translokatsiya uchraganda foydalaniladi. Ma'lum oila uchun xatar darajasi aiiiklanganidan keyin uni umumpopulyatsiyaxatar kursatkichi (3 - 5%) bilan tokkoslanadi va xatar ko'rsatkichi baholanadi. Xatar ko'rsatkichini baxolashga har xir endoshish mumkin.

Xatar ko'rsatkichi 5% gacha bo'lsa past, 10% gacha engil darajadagi, 20% - o'rtacha, 21% dan ortik bulsa yukori deb pisoblanadi. Lekin farzand ko'rishga maslaxat berishda fakatgina xatar kursatkichiping qanday darajada ekanligini aniklashning uzi kifoya qilmaydi. Ba'zi irsiy kasalliklarda xatto yuñori xatar kursatkichi ham bola ko'rsatmaslikka asos bo'la olmaydi. Masalan, daltanizm, refraktsiya anomaliyalarida shaxsning umumiy moslanuvchanligi deyarli bu^ilmaydi keksalikda yuzaga keladigan kasalliklar eki davolasa buladigan kasalliklar shunday kasalliklarga kiradi.

Kuyidagi xatar darajasi umumiy populyatsiya xatar darajasi yukori bulgan xolatlarda bola kurishga maslaxat berish mumkin emas.

A. davolash mumkin bulmagan irsiy kasalliklar;

B. autosoma dominant eki retsessiv geterosoma dominant eki Retsessiv subletal va letal gen kasalliklari;

V. ruxiy kasalliklar;

G. xromosoma kasalliklari;

Odatda urta darajadagi genetik xatar bola kurishda maslaxat be Rilmaslikka asos bo'ladi.

Prenatal diagnostika utkazish kuyidagi xolatlarda maksadga muvofikdir. Tuplangan ma'lumotlarga kura axolining 5-10% genetik maslaxatga muxtojdir. Shuning uchun ham 1 million axoliga bitta tibbiet-genetika maslaxatxonasi zarur deb xisoblanadi.

Tibbiet - genetika maslaxatini ikki xil tarzda amalga oshirish mumkin:

1. Perspektiv maslaxat-kasal bola tugilishi extimoli bulganda, masalan er eki xotinga tashki muxitning zararli omillari ta'sir kilganda, xomiladorlik paytida virusli infektsiya kuzatilganida utkaziladi.

2. Retrospektiv maslaxat- oilada kasal bola tugilgandan keyin, keyingi bolalar kanday tugilishini apiklash uchun utkaziladi.

Tibbiet-genetika maslaxati 4 boskichda amalga oshiriladi:

I-boskichda tashxis aniklanadi. Buning uchun genetik vrachning mijozni maslaxatga yuborgan mutaxxasis - vrach bilan hamkorligi talab qilinadi. Tashxisni aniqlash uchun genetik taxlilning hama usullaridan foydalaniladi.

2 - boskichda kasal bolaning tugilishi xatari darajasi aniqlanadi.

3 - bosqichda - genetik vrach ma'lum xulosaga keladi. Xulosa yozma ravishda tayyorlanadi.

4-bosqichda genetik - vrach maslaxatga kelgan shaxsga uz xugyusasi ma'nosini tushuntirib, aniq bir qarorga kelishiga yordam beradi.

Prognozning aniq tuzilishi tashxisni aniq quyilishiga, to'plangan genelogik ma'lumotlarning ishonchliligiga, vrachning tibbiyot genetikasi soxasida to'liq ma'lumotga egaligiga bogliqdir.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talabalar xromosoma kasalliklari etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasini, klassifikatsiyasini to'liq biladi va ular haqida mustaqil fikr bildiradi. Tibbiy genetik maslahat ko'rsata oladi, xromosomalar strukturasi buzilishi bilan kechadigan kasalliklarni xromosoma sonining o'zgarishi bilan kasalliklardan ajrata oladi. Autosoma va jinsiy xromosoma patologiyasi bilan kechadigan kasalliklarni bir – biridan mukammal dif.diagnostika qila oladi.
71 – 85 ball	Talabalar xromosoma kasalliklari etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasini, klassifikatsiyasini to'liq biladi. Tibbiy genetik maslahat ko'rsata oladi, xromosomalar strukturasi buzilishi bilan kechadigan kasalliklarni xromosoma sonining o'zgarishi bilan kasalliklardan ajrata oladi. Autosoma va jinsiy xromosoma patologiyasi bilan kechadigan kasalliklarni bir – biridan dif.diagnostika qila oladi.
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, xromosoma kasalliklari etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasini, klassifikatsiyasini bilmaydi. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi
0 – 55 ball	xromosoma kasalliklari etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasini, klassifikatsiyasi haqida jada ham sayoz bilimga ega. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi.

Amaliy mashg'ulot № 3

Mavzu: Monogen kasalliklari.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	4. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 5. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 6. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.

	silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish • Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. • Meditsinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman -Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P.,Zaxarov A.F.,IvanovV.I.,Meditsina,1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Əshonkulov O.Ə. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar, qo'shimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar. Toshiriqni oladilar.

Mavzuga oid savollar

1. Monogen kasalligi etiologiyasi klinikasi, patogenezini va davolash choralarini aytib berish
2. Aminakislatalar va oqsil almashinuvi buzulishi kasalligi etiologiyasi klinikasi, patogenezini va davolash choralarini aytib berish

3. 3.Agammaglobulinemiya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
4. Albinizm etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
5. Araxnodaktiliya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
6. Fenil ketanoiya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
7. Alkaptonoriya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
8. Dyushen mushak distrofiyasi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
9. Galaktazimiya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
10. Essensial fruktozuriya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
11. Mukopolisaxaridoz etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
12. Mukaviscidoz etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
13. Sfingo miyelinli etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
14. Mukolippidoz etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
15. Gemofliya etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

“Muammo” o'yini

O'yin uchun kerak:

1. Alohida qog'ozlarda pechat qilingan savollar to'plami.
2. Toza oq qog'ozlar
3. Guruxdagi talabalar soniga mos tartib nomerlar
4. O'yin borishi.
5. O'yinning umumiy vaqti - 45 min
6. Guruh 3 ta kichik guruhlarga bo'linadi (har bir kichik guruxga 3-4 talaba)
7. Har bir kichik guruh alohida stolga o'tiradi. Toza qog'oz tayyorlaydi va bitta ruchkani oladi.
8. Qog'ozga sana, guruh nomeri, o'yinning nomi va shu guruh qatnashchilarning ismi sharifi yoziladi.
9. Qatnashchilardan biri konvertdan savol yoki vaziyatli masalani oladi (guruh uchun savol yoki vaziyatli masalani o'qituvchining o'zi tanlab oladi)
10. Har bir guruh uchun alohida savol yoki vaziyatli masala tanlab olinadi, lekin ularning murakkabligi bir xil bo'lishi kerak

11. 15 min vaqt beriladi
 12. Kichik guruh savolni muhokama qilinadi, o'zining fikrini yozadi.
 13. Assistent studentlarning ko'chirmasligiga va qo'shni kichik guruh bilan qatnashmasligiga e'tibor berishi kerak.
 14. 15 minutdan so'ng qog'ozlar terib olinadi
 15. Ish o'qituvchiga topshiriladi.
 16. Barcha qatnashchilarga quyidagi ball qo'yiladi. Maksimal ball 0,8 ball
0,8-0,7 –“5”
0,6-0,4 “4”
0,4-0,1 “3”
0-“2”
 17. Javobalarning oxiriga assistent ball va imzo qo'yadi.
 18. Talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy baxoga ta'sir k'rsatadi
 19. Jurnalning pastki b'ys kismiga y'tkazilgan uyin belgilab k'yiladi, gurux sardori imzo kuyadi.
- Talabalarning ishi ukituvchi tomonidan saklab kolinadi.

Mashg'ulot mazmuni:

Organizm fenotipining qanday bo'lishi, undagi belgilarning rivojlanish darajasi, uning genotipiga hamda irsiy axborotning yuzaga chiqishi muhit sharoitiga bog'liq bo'lmay, balki tashqi sharoit o'zgarishi oqibati fenotipda yuzaga keladigan xili modifikatsion o'zgaruvchanlik deb ataladi. Bu turdagi o'zgaruvchanlik bir xil genotipga ega bo'lgan organizmlarda ularning har xil sharoitda yashashlari oqibatida namoyon bo'ladi.

Modifikatsion o'zgaruvchanlik chegarasi organizmning genotipiga, irsiy xususiyatlariga bog'liq, organizmdagi byuliglarning tashqi muhit omillarining ta'sirida muayyan doirada genotipga bog'liq holda o'zgarish qobiliyatiga reaksiya normasi deb ataladi. Organizmdagi belgilar modifikatsion o'zgaruvchanlikka moyillik darajasi bilan o'zaro farq qiladi.

Modifikatsion o'zgaruvchanlikka himoya quyonlari junining rangini misol qilib olish mumkin. Bu zotga mansub quyonlarining ko'zida pigment bo'lmaganligi uchun ko'zi qizil rangda bo'lib, tanasi oq junlar bilan qoplangan, lekin oyoqlari, quloqlari va dumidagi junlari pigment bo'lmaganligi uchun qora rangda bo'ladi. Bu belgilar faqat ma'lum muhit sharoitlaridagina yuzaga chiqadi. Quyonlarining getopi faqat rast haroratdagina pigment ishlab chiqarish mumkin. Shu sababli quyon tanasining qaysi qismida qon bilan ta'minlanish susaygan bo'lsa, o'sha qismida qora pigment paydo bo'ladi. Oq rangli quyon taansining ma'lum qismidagi junini qirib tashlasak va shu joydan junning o'sib chiqishini past haroratda olib borsak oq o'rniga qora junlar paydo bo'ladi. Agar quyonlarining qora rangi junlarini qirib tashlab, ularni issiq haroratli joyda bog'ilsa, yangi hosil bo'lgan junlar yana oq rangda bo'ladi.

Genotipi bir xil bo'lgan monozigotali egizaklar har xil iqlim sharoitiga tushib qolsa, ularda ham har xil o'zgarish bo'lishi mumkin. Demak, belgilarning yuzaga chiqishi faqat genotipga bog'liq bo'lmasdan, shu genotipning qaysi muhit sharoitida

bo'lishi ham bog'liqdir. Odam ko'zining rangi o'g'il yoki qiz bo'lib tug'ilishidan va boshqalar albatta genotipga bog'liq, lekin quyosh nuri ta'sirida teridagi pigmentning hosil bo'lishi miqdori atrof muxit sharoitiga bog'liq.

Belgining yuzaga chiqishi genotipning ma'lum bir tashqi muxit ba'siriga myilligiga bog'liq. Shuning uchun ma'lum bir joyda tarqalgan yuqumli kasalliklar bilan shu joy axolisiing hammasi ham kasal bo'lavermaydi. Kasallik genotipida shu kasallikka moyilligi bor kishilardagina yuzaga chiqadi.

Hayvon va odamlarda kuzatiladigan vaznning har xilligi, bo'yinning uzunligi ham modifikatsion o'zgaruvchanlikdir.

Modifikatsion o'zgaruvchanlikka fenokopiyani (tashqi ko'rinishi o'xshashlik-fenonusxalanishni) ham olish mumkin. Fenokopiya - ma'lum bir genotipgabog'liq bo'lgan va tashqi muxit ta'sirida yuzaga chiquvchi o'zgarishning boshqa genotip bo'yicha yuzaga chiqadigan o'zgarishga o'xshash bo'lishi. Fenokopiya fizik, kiyoviy va biologik ta'sirlar hisobiga yuzaga chiqadi. Onada bo'lgan ayrim yuqumli kasalliklar (qizamik, toksoplazmoz) bolada har xil irsiy kasalliklarga o'xshash bo'lgan o'zgarishning sodir bo'lishiga olib keladi. Chunki ona organizmi shu embrionning o'sishida muxit hisoblanadi. Fenokopiyaning mavjudligi ayrim kasalliklarga tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi.

Masalan, tug'ilgan bolada ko'z gavharinig tiniq bo'lmasligi retsessiv irsiy kasallikning, qizamiq kasalligining yoki onaning xomilador paytida onlashtiruvchi nurlar olganligi oqibati bo'lishi ham mumkin. Qizamik kasalligi natijasida yuzaga kelgan karlik (eshitmaslik) irsiy bo'lgan karlik kasalligiga o'xshash bo'ladi.

Kuzatilayotgn belgilarning o'zgarishini sonlar bilan ifodalab, ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida to'liq tushuncha olish mumkin. Buning uchun o'rganilayotgan (son jixatdan) belgi ko'rsatkichi eng kichigidan boshlab eng kattasigacha, ketma-ket joylashtirilib chi'iladi, bunga variatsion qator deyiladi.

Odatda, son jihatidan o'rganilayotgan o'zgaruvchanlik ikkiga ajratiladi: uzlukli, uzluksiz. Uzluksiz o'zgaruvchanlikda har bir olingan son bir -biridan juda kam farq qiladi. Agar ularni kichigidan boshlab bir qatorga joylashtirib chiqilsa, uzluksiz qator hosil bo'ladi. Shuning uchun, bu o'zgaruvchanlik uzluksiz deb ataladi. Bunga o'lchash mumkin bo'lgan barcha belgilar kiradi. Masalan, odamniing og'irligi, buyi vahokazolar.

Uzlukli o'zgaruvchanlikda esa variatsion qatorda joylashtirilgan o'zgaruvchanlikning kattaligi bugun son bilan ifodalanadi. Shuning uchun bu o'zgaruvchanlik uzlukli yoki diskret deb ataladi. Bunga faqat butun sonlar sonlar bilan ifodalanadigan va sanash mumkin bo'lgan barcha belgilar kiradi.

Xar ikkala o'zgaruvchanlikda ham belgilarni hisoblashning boshlanishi bir xil bo'lib, o'zgaruvchanlikning eg kichik va eng katta qiymatini, ya'ni o'zgaruvchanlik ko'lami aniqlanadi.

Genetik materialning o'zgarishlari -mutatsiyalar

Genotipik o'zgaruvchanlikning kashf qilinishi genetikaning gurkirab rivojlanib borishi uchun turtki bo'ldi. 1898 yili rus olimi S.I Korjinskiy genetik o'zgarishlar bo'lishini topdi, ikki yildan keyin esa golland botanigi G.De Friz

mutatsiya tushunchasini fanga kiritdi. G.De Friz ko'p yillar davomida o'simliklarda uchraydigan mutatsiyalarni o'rgandi.

U enotera deb nomlangan (Kipreyalar oilasiga mansub o'simlik. Ularga Kiprey yoki Ivan choy o'simligi kiradi) o'simlikni 17 yil mobaynida kuzatib boradi. U juda ko'p o'simliklarni kuzatib, avvaliga uchta mutantni topadi: ularning biri pakana, ikkinchisi poyalari uzun-uzun bahaybat, gullari, meva va barglari yirik. Uchinchisining barglari va mevalarida qizil tomirlar bor edi. Olim mutantlar va ularning bo'g'imlarini uzoq vaqt davomida kuzatib, xulosalab, 1901-1903 yillari o'zining mutatsiya nazariyasini yaratdi. Ushbu mutatsiya nazariyasida ilgari surilgan qoyalar quyidagilardir:

1. Mutatsiyalar to'satdan paydo bo'ladi;
2. Mutatsiya natijasida hosil bo'lgan yangi belgilar turgundir;
3. Mutatsiyalar irsiy bo'lmagan o'zgaruvchanlikdan farqli o'laroq, irsiydir. Nasldan -naslga beriladi;
4. O'zgaruvchanlikning o'rtamiyona shakli tevaragida uzluksiz qator hosil qilmaydi. Chunki mutatsiya natijasida sifat jihatidan o'zgarish sodir bo'ladi;
5. Mutatsiyalar har xil ko'rinishlar paydo bo'lib, foydali va zararli bo'lishi mumkin;
6. Mutatsiyalarning uchrash ehtimoli o'rganilgan organizmlar soni bogliq;
7. O'xshash mutatsiyalar bir necha marta paydo bo'lishi mumkin.

Mutatsion ta'limot keyinchalik har tomonlama rivojlantirildi va mutatsiyalarning ko'plab turlari aniqlandi. Mutatsiya deb normal belgilar saqlovchi genlarda turli tashqi muhit omillari ta'sirida nasldan-naslga o'tadigan kimyoviy o'zgarishlar paydo bo'lishiga aytiladi. Mutatsiyalar tashqi va ichki muhit ta'sirida paydo bo'lishi mumkin.

Mutatsiyalar organizm tuzilishi va funktsiyasining xilma-xil belgilariga daxildor. Masalan, drozofilada qatorlar shakli, gavda rangi, badanda tuklar rivojlanishi, ko'z rangi (ko'zi sariq, oq, to'q qizil), shuningdek, ko'pgina fiziologik belgilar (umr uzunligi, serpushtlilik, zarar etkazuvchi turli ta'sirlarga chidamlilik va hokazo) ning mutatsiya o'zgarishlari ma'lum.

Mutatsiyalar tabiatda doim bo'lib turadi. Bu tabiatning oddiy xodisasidir. Mutatsiyalar ko'pincha spontan va yo'naltirilmagan holatlarda paydo bo'ladi, ya'ni ular foydali, befarq, lekin ko'pincha zararli yoki hatto o'limga olib boradigan (letal) bo'ladi.

Foydali mutatsiyalar evalyutsiya natijasida saqlanib turlarning yashovchanligi oshiradi va yangi turlarning hosil bo'lishiga olib keladi. Zararlilari esa turlarni yashovchanligini kamaytirib, mayib - majrux organizmlarni hosil bo'lishiga, turni regresga uchrashiga olib keladi. Ko'pincha irsiy kasalliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabbachiga aylanadi.

Shunday qilib mutatsiyaga uchragan genning keyingi avlodlar organizmida yuzaga chiqishi natijasida shu vaqtgacha nasl kasalliklari yo'q oilada nasl kasalliklari boshlanadi va zurriyotga tarqala boshlaydi.

Tabiiy sharoitda mutatsiyalarning hosil bo'lish tezligi juda kamdir. Odam genlarni nasldan -naslga o'tishda hosil bo'ladigan mutatsiyalar o'rtacha 1:10 dan 1:10 gacha to'g'ri keladi. Bu million xujayralardan faqat bittasi yangi mutatsiya hosil bo'lishi

mumkin, degandir. Lekin genlarning soni g'oyat katta ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, erkak gametalarining ham, ayol gametalarining kamida 10 foizi yangidan paydo bo'ladigan qandaydir biror mutatsiyaga ega bo'ladi.

Paydo bo'lishiga qarab hosil bo'lgan mutatsiyalar dominant va retsessiv tipda nasldan-naslga o'tib boradi. Agar retsessiv tipda mutatsiya hosil bo'lsa, unda bir necha avlodlarda yuzaga chiqmay yashirin holatlarda saqlanishi mumkin.

Qachonki shunday gen saylovchi organizm bilan chatishgandagina bu narsa yuzaga chiqadi. Agar dominant tipda mutatsiya hosil bo'lsa, unda mutatsiyaning yuzaga chiqishi shu organizmning yashovchanligiga va nasl qoldirish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan: axondroplaziya (yoki xondrodistorofiya) suyak sistemasining umumiy kasalligidir: naysimon suyaklar epifizar topaylarining o'smay qo'yishi, kalla asosi va burun suyaklari shaklining o'zgarib qolishidan iborat. Bu patologiya gavda va bosh hajmlari odatdagicha bo'lgani holda qo'l-oyoqlarning nomutta -nosib ravishda kalta bo'lib qolishiga olib keladi. Peshonaning do'ng va qansharning egarsimon bo'lishi bunday odamning ko'rinishini yanada g'alati qilib qo'yadi. Bunday kasallikka uchragan odamlarning sotsial va biologik sabablariga ko'ra nasl qoldirish xususiyati normadan ancha kamdir.

Gen kasalliklari

Gen kasalliklarining kelib chiqish sababi gen tuzilishining mutatsiya natijasida o'zgarishidir. Gen kasalliklarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. monogen kasalliklar - (monofaktorial, ya'ni bir omilli) bitta genning o'zgarishi tufayli kelib chiqadi.
2. poligen kasalliklar - (multifaktorial, ya'ni ko'p omilli) bir necha genning o'zgarishi tufayli kelib chiqadi.

Monogen kasalliklar Mendel qonunlariga to'liq to'g'ri keladi.

Agar odamda taxminan 100 ming gen bor deb taxmin qilsak, shuncha miqdorda gen ta'sirida hosil bo'ladigan irsiy kasalliklar bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon ma'lumotlariga ko'ra bir genda kamida 500 nukleotid bo'lib, ular bir necha o'n, yuz marta mutatsiyaga uchrashi mumkin.

Gen kasalliklari oqsillarining shikastlanishiga qarab 3 guruxga bo'linadi:

I gurux strukturaviy oqsillarning shikastlanishi

II gurux-transport oqsillarining shikastlanishi

III gurux-fermentlarning shikastlanishi

Uchinchi gurux, ya'ni enzimopotiya nisbatan yaxshi o'rganilgan monogen kasallikdir.

Enzimopotiyalar ko'pincha ma'lum bir ferment bo'lmasligi yoki etishmasligi natijasida hosil bo'ladi va biokimyoviy reaksiyalarning susayishi yoki to'xtab qolishi olib keladi. Enzimopotiyalar tegishli fermentning sintezlanishi ta'minlab beradigan genlarning mutatsiyalarga uchrashi tufayli kelib chiqadi. Ko'pchilik hollarda enzimopotiyalar aqliy holoqlik bilan birga o'tadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda uchrash nisbatan 0,1-0,5% ni tashkil qiladi. Ammo irsiy kasalliklar uchrashi nisbatan turli populyatsiyada va turli geografik xududda ancha farq qiladi. Bular bir qancha sabablarga: izolyatsiya, muxitning ta'siriga, tanlash omiliga bog'liq bo'ladi.

Qaysi bir moddalar almashinuvi buzilganligiga qarab bir necha guruhdagi gen kasalligi farq qilinadi. Uglevodlar almashinuvi, aminokislotalar, lipidlar, tsirkulyatsiyadagi oqsillar buzilishidan kelib chiqadigan (gemoglobinopatiya, oqsillar strukturasining buzilishi va boshqalar) irsiy kasalliklar.

Aminokislotalar almashinuvining buzilishi. Almashinuvning irsiy kamchiliklari orasida irsiy aminoatsidopatiya eng katta guruxni tashkil qiladi. Nasldan -naslga berilishi autosom- retsessiv tipda. Kasallikning rivojlanishi aminokislotalar katobolizmi yoki anobolizmga javob beruvchi u yoki bu fermentning etishmovchiligi tufayli yuzaga keladi.

Fenilketonuriya Bu kasallikni birinchi marta norvegiyalik vrach F.Fyoling 1934 yilda aniqlangan. Shuning uchun ko'pincha Fyoling kasalligi deb ham nomlanadi. Fyoling rivojlanishida orqada qolgan ikki bolaning siydigini biokimyoviy usulda tekshirib, ma'lum bir xidi borligi, ko'p miqdorda fenilpirovinograd kislotasi borilgini aniqlagan. (kasal siydigiga FeCl_3 qo'shganda yashil rangda bo'yalgan.). sog'lom odamda bu modda uchramaydi. Hozirgi kunda bu irsiy kasallik ekanligi aniqlangan. Irsiy kamchilik ovqat bilan kiruvchi fenilalaninni tirozinga katalizlovchi fenilalanin gidroksilaza etishmovchiligi natijasida yuzaga kelib ma'lum bo'ldi.

Bola tug'ilishining birinchi oylarida ko'pincha kasallik belgilari ko'rinmasligi mumkin, vazn jihatdan ham yaxshi rivojlanadi. Shunisi qizig'i, 90% bolalar oq sariq sochli, oq badan va havorang ko'zli bo'ladilar (uchrash chastotasi ko'pchilik evropoid irq'larga mansub). Ba'zi chaqaloqlar tug'ilgan kunidan boshlab bo'shashgan, uyquchan, zaif bo'ladilar, o'yinchoqlarga e'tibor bermaydilar, tovushlarga qayrilib qaramaydilar.

Kasallikning boshlang'ich belgisi qusishdan iborat. Bolaning 2,5 yoshidan boshlab boshqalarga nisbatan o'sishining to'xtashi ravshanroq bilinadi, bola tuyg'usi (emotsiya) pasayadi. Ular hech narsa bilan qiziqmaydilar, diqqatlari susayadi, ot-onalar va boshqa bolalarga intilmadilar, jismoniy rivojlanishi ham pasayadi. Kasal bolalarning o'tira olishi yoki turishi, yura boshlashi tengdoshlariga qaraganda ancha kechikadi. Bunday bolalarning tishi chiqishi 11-12 oylargacha kechikadi.

Fenilketonuriya bilan kasallangan bolalarda muskul tonuslari oshib ketishi sababli, gavda tuzilishi buziladi: ularning qo'llari bukilib, oyoqlari egilib qoladi. Bemorning yurishi qiyinalashdi, mayda-mayda hadam tashlab, tez-tez qolilib yuradilar. Bunday hol ustugi yana tutqanoq kasalligi qo'shiladi.

Kasallik nasldan - naslga autosom-retsessiv tipda o'tadi. Davoalsh yaxshi natija beradi.

Davosi: Dietoterapiya. Fenilalanin miqdori kamaytirilgan uglevod, mineral tuzi, vitaminlarga boy dieta buyuriladi.

Al'binizm Bu kasallik tirozin degan aminokislotani melanin pigmentiga aylantiruvchi tirozinaza fermenti bo'lmasligidan iborat. Ayrim bemorlarda melanin mutlaqo hosil bo'lmaydi yoki shu qadar kam miqdorda hosil bo'ladiki, odamning terisi, sochlari juda oppoq, ko'zlari esa qizil bo'lib qoladi (pigment yo'qligidan to'r pardaning qon tomirdari to'silmay qoladi). Yorug'likka qaray olmaslik va ko'zlarning odatdan tashqari rangda bo'lishi bunday odamlarni qora ko'zoynak taqib yurishga majbur qiladi. Ekvatorial Afrikada butun bir qabila albinoslar chaqlanib

qolgan. Amerikada ham to'liq albinizmli kishilar yashaydigan qishloq bor. Ular faqat kechisigina tirikchilik qilishadilar, kunduzi esa uylaridan tashqariga chiqishmaydi.

Amerikalik olimlar ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazib turishadi. hozirgi kunda ular uchun teriga surtiladigan dori yaratilgan. Bu dori yordamida odam quyoshda 2 soat yurishi mumkin.

Klinik ko'rinishlari bo'yicha albinizm quyidagi shakllarda uchraydi.

1. Ko'z - teri albinizm
2. Ko'z albinizmi
3. Teri albinizmi

Ko'z teri albinizmning o'ziga xos xususiyatlari bor. Ulardan ko'pchiligi aftasom - retsessiv ko'rinishda nasldan -naslga beriladi. Ko'z albinizmi X-xromasoma bilan birikkan retsessiv belgi sifatida, nasldan naslga o'tadi.

Alkaptonuriya

Bu kasallikda fenilalanin va tirazin keyingi ko'rinishlarda o'tish jaroyoni buziladi. Fenilalanin xisobiga va ovqat bilan organizmga tushgan terozin normada R- gidroksifenilpiravinograd kislotasiga aylanadi. Bu esa ferment yordamida gomogentezin kisbotaga aylanadi. Kasallikda esa ferment sintezini belgilovchi gen mutatsiyaga uchragani uchun organizmda bu ferment juda kamayib ketadi. Natijada to'g'imalarda fiziologik suyuqliklarda gomogenetizin kisbotasi to'planib qoladi.

Bu kasallikda siydik tarkibidagi alkapton havoda oksidlanib qora rangda bo'yaladi. Yoshlikda kasallik sezilarsiz o'tib, yoshi ulg'aygan sari uning belgilari paydo bo'la boshlaydi. Bo'yinlardagi tog'aylar sariq binafsha rangda kiradi, quloq suprasi va burun tog'aylari qorayadi.

Davosi: parhez bo'lib, bemor fenilalanin va terazini ko'p bo'lgan ozuqali kam istemol qilish kerak. Katta dozaga S - vitamin beriladi.

Uglevodlar almashunivining buzilishi.

Uglevodlar almashunivining buzilishi bilan yuzaga chiqadigan kasalliklar xilma xildir. Organizmdagi mono-di va polisaxaridlarni parchalovchi fermentning sintezida qatnashuvchi genning mutatsiyasi natijasida galaktozimiya, fruktozimiya fentozuriya, qanday kasalligi va boshqa kasalliklar yuzaga chiqadi.

Galaktozimiya

Bu kasallikdan uglevodlar almashinuvi buziladi. Bu kasallik jigar faoliyatining izdan chiqishida, to'qimalarda (qonda ham) galaktoza to'planib qolishiga bog'liq. Davo qilinmasa jigar tserrozi boshalanadi: hayot uchun muhim bo'lgan boshqa organlar ham patologik jarayonga qo'shiladi. Pirovar natijada kasallik oqibatida esipast bo'lib qolib barvaqt o'ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqq sut olaboshlash bilan badani sarg'ayib, qayt qilaboshlaydi: dispektik o'zgarishlar paydo bo'ladi, tanasining massasi kamayib boradi. Kasallik barvaqt aniqlanganda 3 yashargacha bo'lgan bolalar sutsiz ovqatga o'tkaziladi, ya'ni ularning ovqatidan sutli masalliqalar chiqarilib tashlanadi. Bunday bolalar sutsiz ovqatga o'tkaziladi, va ular psixikasida o'zgarishlar kuzatilmaydi. Shu

kasallikka olib keladigan gen tashuvchanlik, ya'ni geterozigotalar soni o'rta xisobda 1: 70 mingni tashkil etadi.

Mukopolisaxaridozlar

Bu kasallik mukopolisaxarilar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadi. Mukopolisaxaridlar lizasomalarda ko'plab to'planadi, chunki lizasomada ularni parchalovchi ferment bo'lmaydi. Bu kasallik bilan skelet bosh suyagi, ko'z, yuz va ichki organlar tuzilishi o'zgaradi va aqliy zaiflik kuzatiladi. Bular taloq, tog'ay, suyak ko'migi va boshqa to'qimalarda to'planib kom va siydikka ajralib chiqadi. Bu kasallik bilan og'rigan bolalar uzog'i bilan 12 yoshgacha yashashi mumkin.

Hozirgi kunda mukopolisaxaridlar kasaligining 4 xili mavjud bo'lib, barchasi bir xil fenotipik ko'rinishni yuzaga chiqaradi. Mukopolisaxaridozlarning barcha turi aftosomadagi retsessiv gen orqali irsiyatga o'tadi.

1- tip Gurler sindromi deyilib, 1919 yili Gurler tomonidan ta'riflangan. Yangi tug'ilganda hech qanday tashqi belgilar bo'lib (faqat tana vazni ko'proq bo'ladi). 2-oyligidan boshlab tanasi yuz tuzilishi o'zgarib boradi. Og'zi ochiq xolda bo'ladi. Asosan 10 yoshlargacha yashaydi. L-idurolitaza fermenti etishmasligi va mukopolisaxaridlarni katabolizmining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

2- tip Xanter sindromi deyilib, 1917-yil Xanter tomonida tariflangan. Bu kasallikda tug'ilgan bolada 1-2 yoshgacha hech qanday klinik belgilari hosil bo'lmaydi. Faqat ayrim xollarda tashqi nafas olish organlari riniti yoki makro va skafotsifaliya, kindik churrallari kuzatiladi. 2 yoshdan oshganda bo'y o'sishi sekinlashib tana terisi qalinlashib, kalta bo'yin va tishlar chiqishi kamayadi.

3- tip Sanfilipo sindromi deyilib 1963 yil Sanfilipo tomonidan ta'riflangan bu tip kasallik boshqalarga nisbatan ancha engil klinik ko'rinishga ega bo'lib bolalarni 2-3 yosh ba'zan maktab yoshigacha o'sishi normada bo'ladi. Keyinchalik bolalar psixasiga o'zgarishlar sodir bo'ladi.

4- tip Markio va Braylsford sindromi deyilib 1929 yili Markio va Braylsford tomonidan ta'riflangan. 2-yoshidan boshlab bo'yi o'sishi sekinlashib suyak defarmatsiyalari kuzatiladi.

Kadnli diabet kasalligi

Bu kasallik organizmda modda almashinuvi, asosan qand almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadi. Diabet kasalligida qonda qand miqdori oshib ketadi. Qand siydik orqali ham ajrala boshlaydi. Qandning siydikdagi miqdori kasalning og'ir - yengilligini ko'rsatgichi xisoblanadi.

Modifikatsion o'zgaruvchanlik

Organizm fenotipining qanday bo'lishi, undagi belgilarning rivojlanish darajasi, uning genotipiga hamda irsiy axborotning yuzaga chiqishi muhit sharoitiga bog'liq bo'lmay, balki tashqi sharoit o'zgarishi oqibati fenotipda yuzaga keladigan xili modifikatsion o'zgaruvchanlik deb ataladi. Bu turdagi o'zgaruvchanlik bir xil genotipga ega bo'lgan organizmlarda ularning har xil sharoitda yashashlari oqibatida namoyon bo'ladi.

Modifikatsion o'zgaruvchanlik chegarasi organizmning genotipiga, irsiy xususiyatlariga bog'liq, organizmdagi byueliglarning tashqi muhit omillarining ta'sirida muayyan doirada genotipga bog'liq holda o'zgarish qobiliyatiga reaksiya

normasi deb ataladi. Organizmdagi belgilar modifikatsion o'zgaruvchanlikka moyillik darajasi bilan o'zaro fark kiladi.

Modifikatsion o'zgaruvchanlikka himoya quyonlari junining rangini misol qilib olish mumkin. Bu zotga mansub quyonlarining ko'zida pigment bo'lmaganligi uchun ko'zi qizil rangda bo'lib, tanasi oq junlar bilan qoplangan, lekin oyoqlari, quloqlari va dumidagi junlari pigment bo'lmaganligi uchun qora rangda bo'ladi. Bu belgilar faqat ma'lum muxit sharoitlaridagina yuzaga chiqadi. Quyonlarining getopi faqat rost haroratdagina pigment ishlab chiqarish mumkin. Shu sababli quyon tanasining qaysi qismida qon bilan ta'minlanish susaygan bo'lsa, o'sha qismida qora pigment paydo bo'ladi. Oq rangli quyon taansining ma'lum qismidagi junini qirib tashlasak va shu joydan junning o'sib chiqishini past haroratda olib borsak oq o'rniga qora junlar paydo bo'ladi. Agar quyonlarining qora rangi junlarini qirib tashlab, ularni issiq haroratli joyda bog'lsa, yangi hosil bo'lgan junlar yana oq rangda bo'ladi.

Genotipi bir xil bo'lgan monozigotali egizaklar har xil iqlim sharoitiga tushib qolsa, ularda ham har xil o'zgarish bo'lishi mumkin. Demak, belgilarning yuzaga chiqishi faqat genotipga bog'liq bo'lmasdan, shu genotipning qaysi muxit sharoitida bo'lishi ham bog'liqdir. Odam ko'zining rangi o'g'il yoki qiz bo'lib tug'ilishidan va boshqalar albatta genotipga bog'liq, lekin quyosh nuri ta'sirida teridagi pigmentning hosil bo'lishi miqdori atrof muhit sharoitiga bog'liq.

Belgining yuzaga chiqishi genotipning ma'lum bir tashqi muhit ba'siriga myilligiga bog'liq. Shuning uchun ma'lum bir joyda tarqalgan yuqumli kasalliklar bilan shu joy aholisiing hammasi ham kasal bo'lavermaydi. Kasallik genotipida shu kasallikka moyilligi bor kishilardagina yuzaga chiqadi.

Hayvon va odamlarda kuzatiladigan vaznning har xilligi, bo'yinning uzunligi ham modifikatsion o'zgaruvchanlikdir.

Modifikatsion o'zgaruvchanlikka fenokopiyani (tashqi ko'rinishi o'xshashlik-fenonusxalanishni) ham olish mumkin. Fenokopiya - ma'lum bir genotipga bog'liq bo'lgan va tashqi muxit ta'sirida yuzaga chiquvchi o'zgarishning boshqa genotip bo'yicha yuzaga chiqadigan o'zgarishga o'xshash bo'lishi. Fenokopiya fizik, kiyoviy va biologik ta'sirlar hisobiga yuzaga chiqadi. Onada bo'lgan ayrim yuqumli kasalliklar (qizamik, toksoplazmoz) bolada har xil irsiy kasalliklarga o'xshash bo'lgan o'zgarishning sodir bo'lishiga olib keladi. Chunki ona organizmi shu embrionning o'sishida muhit hisoblanadi. Fenokopiyaning mavjudligi ayrim kasalliklarga tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi.

Masalan, tu'ilgan bolada ko'z gavharinig tiniq bo'lmasligi retsessiv irsiy kasallikning, qizamiq kasalligining yoki onaning homilador paytida onlashtiruvchi nurlar olganligi oqibati bo'lishi ham mumkin. Qizamik kasalligi natijasida yuzaga kelgan karlik (eshitmaslik) irsiy bo'lgan karlik kasalligiga o'xshash bo'ladi.

Kuzatilayotgn belgilarning o'zgarishini sonlar bilan ifodalab, ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida to'liq tushuncha olish mumkin. Buning uchun o'rganilayotgan (son jihatdan) belgi ko'rsatkichi eng kichigidan boshlab eng kattasigacha, ketma-ket joylashtirilib chiqiladi, bunga variatsion qator deyiladi.

Odatda, son jihatidan o'rganilayotgan o'zgaruvchanlik ikkiga ajratiladi: uzlukli, uzluksiz. Uzluksiz o'zgaruvchanlikda har bir olingan son bir -biridan juda

kam farq qiladi. Agar ularni kichigidan boshlab bir qatorga joylashtirib chiqilsa, uzluksiz qator hosil bo'ladi. Shuning uchun, bu o'zgaruvchanlik uzluksiz deb ataladi. Bunga o'lchash mumkin bo'lgan barcha belgilar kiradi. Masalan, odamning og'irligi, buyi vaxokazolar.

Uzluqli o'zgaruvchanlikda esa variatsion qatorda joylashtirilgan o'zgaruvchanlikning kattaligi bugun son bilan ifodalanadi. Shuning uchun bu o'zgaruvchanlik uzluqli yoki diskret deb ataladi. Bunga faqat butun sonlar sonlar bilan ifodalanadigan va sanash mumkin bo'lgan barcha belgilar kiradi.

Xar ikkala o'zgaruvchanlikda ham belgilarni hisoblashning boshlanishi bir xil bo'lib, o'zgaruvchanlikning eg kichik va eng katta qiymatini, ya'ni o'zgaruvchanlik ko'lami aniqlanadi.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talaba monogen kasalliklarni, etiologiyasini, klinikasini haqida to'liq ma'lumotga ega, mustaqil fikrlay oladi, hamda ularning klassifikatsiyasini, diagnostikasi va davolash prinsiplarini to'liq biladi. Genetik maslahat bera oladi. Mukovitsidozlarni fermentopatiyalardan yaxshi dif.diagnostika qila oladi.
71 – 85 ball	Talaba monogen kasalliklarni, etiologiyasini, klinikasini, klassifikatsiyasini, diagnostikasi va davolash prinsiplarini biladi. Genetik maslahat bera oladi. Mukovitsidozlarni fermentopatiyalardan dif.diagnostika qila oladi.
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, monogen kasalliklarni, etiologiyasini, klinikasini, klassifikatsiyasini, diagnostikasi va davolash prinsiplarini bilmaydi. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi
0 – 55 ball	Monogen kasalliklarni, etiologiyasini, klinikasini, klassifikatsiyasini, diagnostikasi va davolash prinsiplarini haqida jada ham sayoz bilimga ega. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi.

Amaliy mashg'ulot № 4

Mavzu: Biriktiruvchi to'qimalarni almashinuvini buzilishi kasalliklari

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
----------------------------------	------------------------	--------------------------

Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	7. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 8. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 9. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish • Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. • Meditsinskaya genetika dlya vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman -Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P.,Zaxarov A.F.,IvanovV.I.,Meditsina,1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., Əshonkulov O.Ə. Abu Ali Ibn Sino, 2000	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar, qo'shimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar. Toshiriqni oladilar.

--	--	--

Mavzuga oid savollar

1. Tubulopatiya nima?
2. Tubulopatiyaning etiopatogenezi qanday kechadi?
3. Tubulopatiyaning klinik belgilarini ayting.
4. Mukopolisaxaridozlarning etiologiya, klinika, davolash prinsiplari.

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

“Doira stoli”

O'yin uchun kerak.

Savollar to'plami va vaziyatli masala, aloxida qog'ozda chiqarilgan

Har bir talaba va guruh uchun alohida bo'lish kerak

Toza qog'oz va ruchka

O'yin borishi.

Guruh 3 ta kichik guruhlariga bo'linadi (har bir kichik guruhga 4 talaba)

Har bir kichik guruh alohida stolga o'tiradi. Toza qog'oz tayyorlaydi va bitta ruchkani oladi.

Qog'ozga sana, guruh nomeri, o'yinning nomi va shu guruh qatnashchilarning ismi sharifi yoziladi.

Qatnashchilardan biri konvertdan savol yoki vaziyatli masalani oladi (guruh uchun savol yoki vaziyatli masalani o'qituvchining o'zi tanlab oladi)

Har bir guruh uchun alohida savol yoki vaziyatli masala tanlab olinadi, lekin ularning murakkabligi bir xil bo'lishi kerak

Doiradagi hammaga list tarqatiladi.

Har bir talaba shu listga o'z javob variantini yozadi.

Talabalarga har bir savolga javob yozishga 3-min vaqt ajratiladi

Vaqt o'tgandan keyin, talabalar ishini o'qituvchilarga topshiradi

Barcha natijalar taxlili qilinib eng to'g'ri javob tanlab olinib, maksimal ball beriladi.

Taxlil qilish 15 min davom etadi

Barcha qatnashchilarga quyidagi ball qo'yiladi. Maksimal ball 0,8 ball

0,8-0,7 –“5”

0,6-0,4 “4”

0,4-0,1 “3”

0-“2”

Talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy bahoga ta'sir ko'rsatadi

Jurnalning pastki bo'sh qismiga o'tkazilgan o'yin belgilab qo'yiladi, guruh sardori imzo qo'yadi.

Talabalarning ishi o'qituvchi tomonidan saqlab qolinadi.

Doira stoli vaziyatli masalasida savollar to'plami

Tubulopatiya nima?

Tubulopatiyaning etiopatogenezi qanday kechadi?

Tubulopatiyaning klinik belgilarini ayting.

Mukopolisaxaridozlarning etiologiya, klinika, davolash prinsiplari.

Tubulopatiya kasalliklari klassifikatsiyasi, etiologiyasi, patogenezi klinik belgilari

Raxit kaslligi

Raxit etiopatogenezi

Raxit simptomlari

Raxitda suyakdagi o'zgarishlar

Rekonvalesensiya davrida raxit belgilari

Raxitni davolash

Raxit kechish jarayoni

Raxit profilaktikasi

Enzimlar haqida tushuncha bering

Mashg'ulot mazmuni

Raxit 2 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida keng tarkalgan kasallikdir. Raxitni kechki rivojlanishi xollari xam uchrab turadi, bunday xolat skelet va tananing intensiv usish davriga tugri keladi. Raxit kasalligi juda avvaldan ma'lum bulib bunda Sorana Efeyskiy 98-138 yy. Bizning eramizdan avval va Galen (131-211 y bizning eramizdan avval) mexnatlari yodga olinadi. 1960 yil ingliz ortopedii F.Glisson raxit kasalligiga klinik va patologianatomik asos solgan. Ushbu kasallik Angliyada juda tez tarkalganligi sababli «Ingliz kasalligi» deb xam yuritilgan. Inglizcha nomi rickets ya'ni kadimgi inglizcha wricken suzidan kelib chikib, kiyshayish ma'nosini bildiradi, Glisson esa uzgartirib grekcha rachitis

V.Osner ma'lumotlariga Karaganda 1928 yil XX asr bolalarida Avstriya va Angliyalarda raxit kasalligi bilan taxminan 50-80% bolalar kasallanganlar. XX asrning birinchi yarmida Rossiyada 46-68% bolalar raxitga chalingan. Yilning kupismi kuyoshli kunlarga tugri keladigan Bolgariyada xam bir yoshgacha bulgan bolalar orasida kasallik 20%ni tashkil kilgan. Oxirgi yillarda raxit gudak bolalar orasida _____% dan _____%ni tashkil kiladi.

etiopatogenezi.

Klassik raxitning asosiy va kup sabablaridan biri bu vitamin Dni ozik-ovkat orkali organizmga Kirishi yoki terida uning etarlicha xosil bulmasligidir.

Raxit kasalligiga moyillik tugdiruvchi omillar.

Ona								tomonidan
1.Onaning	yoshi	(17	dan	kichik	va	35	dan	ortik)
2.Xomiladorlik								toksikozlari
3.Ekstragenital	patologiyalar(mod	almashinuv	kasalliklari,	oshkozon,	ichak	va	buyrak	patologiyalari)
4.Xomiladorlik	va laktatsiya davrida	ovkatlanish	etarlicha bulmasligi	(oksillar defitsiti,	Sa, R,vit.D,V1,V2,V6	defitsitlari)		
5.Kun	tartiblariga	rioya	kilmaslik(insolyatsiyani		etishmovchiligi,			gipodinamiya)
6.Asoratli								tugruk
7.Ijtimoyi-iktisodiy	sharoitning	nomutanosibli	gi (jumladan	bozor	iktisodiyotiga	utish		jarayonida)

Bola									tomonidan
1.Tugilgan	vakti	(iyun	oyidan	boshlab	dekabr	oylari	oraligida	tugilgan	bolalar)

2.Chala		tugilgan,		morfofunksional		etishmaganlik.
3.Tugilganda	tana	vazni	katta	bulishi	(4	kgdan ortik).
4.Birinchi	3	oylikda	«tana	ogirligining	keskin	ortishi».
5.Kukrak	suti	bilan	bokish,	lekin	emizuvchining	«eski» sut bilan bokishi.
6.Ona	suti	tarkibiga	moslashtirilmagan	sutni	aralashmalar bilan	erta sun'iy va aralash ovkatlantirish.
7.Toza		xavodan		etarlicha		foydalanmaslik.
8.Xarakat	tartibining	etarlicha	bulmasligi(kattik	yurgaklash,	LFK	va massajning yukligi).
9.Perinatal		entsefalopatiya	III	korinchaning		zaralanishi bilan.
10.Teri,	jigar	buyrak		kasalliklari,		malabsorbtsiya sindromi.
11.Tez-tez		URYuK		va	ichak	kasalliklari.
12.Tutkanokka	Karshi	dorilarni(fenobarbital		kabilar	va	boshkalar) kabul kilish.

Vitamin D ning almashinuvi juda murakkabdir. Xozirgi vaktida aniklanishicha vitamin D (xolekaltsiferol) ma'lum uzunlikdagi (280-310 mkm-Dorno nuri) ultrabinafsha nurlar ta'sirida terida xosil buladi. Uzbekistonda kuyosh nurlari asosan ultrabinafsha nurlarini saklaydi, Dorno nurlari diapazoniga kirmaydi. Bizning mamlakatimizda kuyosh nurining etarlicha bulganiga karamasdan raxit juda kup tarkalgandir. Bola terisida yaxshi ashroit vitamin D etarli mikdorda xosil buladi, kuyosh nuri etarlicha bulmagan sharoitda ob-xavoga boglik xolda (tez-tez tuman tushishi, bulut bulishi, atmosfera xavosini dim bulishi) yoki maishiy sharoitlar vitamin Dsintezi intensivligini kamaytiradi. Shuning uchun raxit bilan kasallanish ayniksa kuz va kish oylarida kishlok joylardagiga nisbatan ishlab chikarish tumanlarida yukorirokdir. Oshkozon-ichak traktiga vitamin D xolekaltsiferol(D3) xolda kiradi. Ushbu vitamin DZ xayvon maxsuoltilariga taalluklidir yoki ergokaltsiferol D2 dori preparatidir. Tana murakkab uzgarishlar yuli orkali jigarda va buyrakda Ushbu vitamin D yanada faol metabolitlarga aylanadi, bu esa Sa va R ni ingichka ichakda surilishi va suyaklarda Sa va R ni tuplanishiga imkon beradi. R-Sa gomeostazni kup komponentli regulatsiyasi asosan paratgormon, vitamin D va kaltsitonin tomonidan bajariladi. Sa va R gomeostazi buzilgan xollarda yukorida aytilgan almashinuv xodisalari turli xil (suyak kumigi, oshkazon-ichak kanali, jigar, buyrak) xujayralarida Sa ni ichki va tashki xujayralarida tezda tiklanishiga imkon beradi. Aytilgan a'zo va biokimyoviy tizimni funktsiya va strukturasini buzilishi turlixil gipokaltsemik xolatlariga olib keladi. Sa almashinuvi buzilishining asosiy zvenosini aniklash uchun Sa-R gomeostazini umumiy boshkarilishining chizmasini kuz oldimizga keltirishimiz kerak. Sa ning kondagi pastki chegarasi-2; yukorigisi-28 mmolG`l. Giopkaltsemiya xolat paratireoid gormonining sintezini tezda

aktivlaydi, bu esa Sa ni suyak tukimasidan kongra ajralib chikishini tezlashtiradi, shuningdek buyraklarda R ni ekskretsiyasi kuzatiladi, natijada buyrak kanallarida reabsorbtsiya pasayadi va Sa:R normal nisbat yuzaga keladi (normada bu 2:1 nisbatni tashkil kiladi).

Sa gomeostazining ikkinchi asosiy boshkaruvi bu vitamin D dir. Buning gomeostatik xarakati kondagi pasaygan Sa ni tiklashga karatilgan bulib va bu paratgormonga nisbatan sekin kechadi. Gipokaltsemiya sharoitida vitamin D suyakka ta'sir kilib paratgormonga xos bulgan ya'ni suyak tukimasida surilishini yaxshilaydi: osteoblastlar sonini oshirishga yordam beradi, suyakdan surilishi va kortikal porozlikni kamaytiradi. Kupgina organ xujayralar vitamin D3 retseptorlariga ega, bu esa xujayra ichi fermentativ regulyatsiyasini ta'minlaydi.

U yoki bu sabab natijasida yuzaga kelgan gipokaltsemiya murakkab patofiziologik protsesslarning birinchi zvenosi xisoblanadi. Gipokaltsemiya kalkonsimon oldi bezining faoliyatini aktivlaydi va paratgormon giperfunktsiyasini chakiradi xamda noorganik Sa ni suyaklardan chikarilishini ta'minlaydi. Shuningdek oshkozon-ichak trakti va buyraklarda uning joylanishi aniklanadi. Xususan Sa va R tuzlarining surilishi ingichka ichaklarda buziladi, fosfatlar va aminokislotalar surilishi buyrak kanallarida pasayadi. Natijada tezda gipofosfatemiya va gipoproteinemiya yuzaga chikadi, kondagi ishkoriy rezervni va atsidoz rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek atsidozning ortib borishi strat xosil bulishi xisobigadir. Gipofosfatemiya organik tukimalardan R ni ajralishini tezlashishiga olib keladi. Birinchi navbatda bu fosfatidlarga, ya'ni mushak tukimasidagi trifosfatkislota xujayra va nerv uzagining mielin kavatiga taaluklidir. Kuzgalish protsessining ustunligi dimielinizatsiyaga boglikdir, sungra yakkol tormozlanish reaksiyasi bilan almashinadi. Mushak tukimasida energetik xajm buziladi va tonus pasayadi. Atsidoz universal mikrotsirkulyatsiya buzilishini chakiradi. Buning natijasida MNS va ichki organlarda patologik reaksiyalar ruy beradi, ayniksa uzining tuzilish buyicha kushimcha chikaruv organi bulib xizmat kiladi. Kon-tomir devori, shillik ishlab chikaruvchi oshkozon ichak trakti bezlari va upkaning porozligi oshadi, bularda moddalar almashinuvining oksidlanmagan maxsulotlari ortadi. Atsidozda yana vegetativ nerv sistemasining distoniyasi rivojlanadi, odatda vagotoniya ustunlik kiladi. Yakkol almashinuv buzilishlar avvaliga funktsional, sungra ichki organlarning ayniksa nafas va ovkat xazm kilish organlarining morfologik uzgarishlariga olib keladi. Immunologik ximoya pasayadi, shu katorida premorbid fon rivojlanadi va kasallikni chuzilib, ogir kechishiga yordam beradi. Sa, R almashinuvining uzgarishi natijasida osteogenez buziladi.

Klinik manzarasi.

Kasallik rivojlanishi yoki avjiga chikish kech kuz va kish oylariga tugri keladi. Kech baxor va yoz oylarida uzini uzi davolash kuzatilishi mumkin.

Sa va R almashinuvining buzilishi natijasida va vitamin D ni aktiv metabolit defitsitida MNS, suyak tukimasi, kupgina ichki organlar tomonidan uzgarishlar kuzatiladi. Odatda raxit kasalligining birinchi simptomi xayotning 1-2 oylarida namoyon buladiklinik manzaraning yakkol kurinishlari 3-6 oylariga tugri keladi. Raxitning xarakterli klinik kurinishi uning asosiy diagnostikasida xizmat kiladi. Umumiy kasallik bulganligi uchun, raxit turli xil simptomlari bilan namoyon buladi.

Raxitning boshlang'ich davrlaridagi simptomlar.

Markaziy	va	vegetativ	nerv	tizimi.
Bezovtalik , kurkuv, kuzgaluvchan, yoruglikdan ,		baland ovozdan chuchish,	uykuning buzilishi, terlash (yopishkok)teri	
namlikning oshishi, turgorning pasayishi,		issiklik toshishi,	ensa soxasidagi sochning tukilishi.	
Mushak tizimi,		qabziyat,	mushak	gipotoniyasi.
Suyakdagi				uzgarishlar
Katta likildok		chetlarining	biroz	chukkanligi.
Laborator				kursatkichlar
Sa konda norma, R konda norma yoki pasaygan, kondagi ishkoriy fosfataza kamaygan. Metabolik atsidoz.				Rentgenologik
uzgarishlar				
Odatda				aniklanmaydi.

Raxit kasalligi aloxida organlarning zararlanishi ketma-ketlikda namoyon buladi. kasallikning boshlangich klinik kurinmalari (kup terlash, uykuning buzilishi, ishtaxaning yukolishi, kizil dermografizm) birinchi oylarining oxiri, ikkinchi oylarining boshlarida ota-ona tomonidan kuzatilishi mumkin. Ushbu kurinmalar vegetativ buzilishlarga boglikdir. Bu tez orada MNS tomonidan uzgarishlarni keltirib chikaradi: notinchlik, yukori kuzgaluvchanlik, yoruglikdan, baland ovozdan chuchish kabilardir. Bola uykusi yomonlashib kup boshini yostikka ishkalaydi, natijada ensa sochlari tukiladi, kup terlaydi, ter xidlri nordon xarakterga egadir. Terida issiklik tosha boshlaydi. Xaraktaerli belgilaridan biri bu mushaklar tonusining pasayishi va kabziyatga moyillikdir, bu davrda suyak tomonidan uzgarishlar deyarli aniklanmaydi, fakatgina katta likildok chetlari chukkanligini aniklash mumkin.

Suyaklar rentgenografiya kilinganda uzgarishlar aniklanmaydi. Biokimyoviy tekshiruv utkazilganda kondagi Sa mikdori normada, biroq R ning kondagi mikdori pasaygan va uning siydik orkali ajralishi ortgan buladi. Boshlangich davrning davomligi urtacha 2-3 xaftadan 2-3 oygacha davom etishi mumkin va bu bolaning yashash garoit moyilliklariga boglikdir. Uz vaktida sababini aniklash va davolash bir necha xaftadan sung raxit kasalligini tulik tuzalishiga

erishish mumkin. Uz vaktida davo utkazilmasa suyakdagi uzgarishlar bilan kechishi mumkin. Ayniksa shu davrdagi intensiv usuchi suyaklar kuprok zararlanadi. Raxit kasalligida suyak tizimidagi erta belgilardan biri-bu KRANIOTABESDIR. Kupincha tepa suyaklarining orka kismi va ensa suyaklar, kamdan-kam xollarda boshka suyaklarning yumshab kolishi bilan kechadi. Yana bir xarakterli uzgarishlardan, bosh suyagining bitmagan joylarining chukkanligidir. Kupincha kraniotabes kup xollarda 6 oygacha bulgan bolalarda aniklanadi. Bundan tashkari raxit kasalligida immunitet pasayadi. Ushbu uzgarishlarga yukori va pastki nafas yullarining tez-tez yalliglanishi kasalliklari sabab buladi. Shu bilan bir katorda mushaklar gipotoniya xisobiga yurak chegaralarining xam kengayishi kuzatiladi. EKG uzgarishlarida tishlar voltajining pasayishi, P-Q intervalining uzayishi, QRS kompleksining kengayishi va sistolik kursatkichlari ortishi kuzatilishi mumkin.

Raxit kasalligining klinik ko'rinishi yaqqol namoyon bo'lgan davrlardagi belgilar.

Markaziy	va	vegetativ	asab	tizimi
Kup terlaydi. Umumiy xolsizlikning kuchayishi. Psixomotor rivojlanishdan orkada kolish.			Emotsional labillik.	Mushak tizimi
Mushaklar	gipotoniya	(tez-tez	kabziyat	bulishi).
«baka	korin».		Bugimlarning	uynab
		Diafragmaning	yukori	turishi.
Suyakdagi				uzgarishlar
Kraniotabes.Ensa suyagining yassilashishi. Boshning kvadratsimon bulishi . peshona va ensa dumboklarining kattalashishi				
«olimpik peshona», «egarsimon burun». Tishlar chikishini buzilishi (kiyshik va uz vaktida emas). Tishlashning buzilishi. kukrak kafasi deformatsiyasi (etiksion kukrak, «tovuk kukragi», kifoz, lordoz, skolioz). Pastki aperturaning uzgarishi (garrison etagi).				
Uzun naysimon suyaklarning kiyshayishi. Raxitsimon yassi toz , kovurgalarda tasbex. Bilaklarda bilakuzuk. Kul barmoklari orasida		marvarid		shodalari.
Laborator				kursatkichlar
Kondagi Sa va R mikdori pasaygan. Kondagi ishkoriyfosfataza ortgan. Siydikda R ning mikdori me'yorida yoki ortgan.				
Rentgenologik				kursatkichlar
Osteoporoz.	Metafizlarning		bokalsimon	kengayishi.

Shuni aytish kerakki, mushaklar gipotoniya va elektrolit uzgarishlar raxit bilan kasallangan bemorlarda oshkozon-ichak trakti motorikasi buzilishi va kabziyatga moyillik bilan kechishi mumkin. Korin oldi devori mushaklar gipotoniya xisobiga «baka» korin xarakteridagi uzgarishlarga olib kelishi mumkin. Kupchilik bemorlarda gipoxrom anemiya kuzatiladi. Suyaklarda yakkol deformatsiya va ichki organlardagi uzgarishlar xar doim xam kuzatilavermaydi, ogir kechgan shakldagisi aniklanadi. Oxirgi yillarda kam uchrayotganligi sababli tubulopatiyalar (raxitsimon kasalliklar) bilan differentsial tashxis utkazilmokda. Raxit

kasalligining engil shakli 1 yoshgacha bulgan bolalarning 60% dagina uzgarayapti. Rekonvalestsentsiya davrida umumiy axvoli birmuncha yaxshilanadi, vegetativ va nevrologik uzgarishlar yukoladi, kondagi Sa va R mikdori noamallashadi. Raxit kasalligini boshidan utkazgan va davolanmagan bolalar keyinchalik uishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin. Suyaklarda yakkol deformatsiya, skolioz, yassi tovonlik saklanib koladi. Goxida toz suyaklarining deformatsiyasi (yassi raxitsimon toz) rivojlanishi xam mumkin. Sut tishlarining , keyinchalik doimiy tishlarining kariesi tez-tez aniklanadi. Ogir xollarda kechganda esa xattoki usishdan orkada koladi. Maktab yoshida yakinni esa kura olmaslik miopiya rivojlanishi mumkin.

Rekonvalessensiya davridagi raxitga xos alomatlar.

<u>Markaziy</u>	<u>va</u>	<u>vegetativ</u>	<u>asab</u>	<u>tizimi</u>	
Terlashning	kamayishi.	Uykuning	tiklanishi.	Axvolining	tiklanishi.
<u>Mushak</u>					<u>tizimi</u>
Mushaklar	gipotoniyasi	kamayadi.	Bugimlarning	xarakati	ortadi.
Suyakdagi uzgarishlar.					

Bosh suyagining kvadratsimon shaklda bulishi. «olimpik peshona», «egarsimon burun». Tishlarning chikishini buzilishi. Tishlar kariesi, emal defekti. Kukrak kafasi deformatsiyasi. Pastki aperturaninig uzgarishi(«garrison egati»). Umurtka pogonasi deformatsiyasi (kifoz, lordoz, skolioz). Uzun naysimon suyaklarning kiyshayishi. «Raxitsimon yassi tos», kovurgalarda «tasbex». Bilak soxasida «bilakuzuk». Kul barmoklari bugimlar orasida marvarid shoxlari. Laboratoriya kursatkichlari

Konda Sa mikdori birmuncha pasaygan yoki me'yorida. Kondagi R mikdori me'yorida yoki ortgan. Ishkoriy fosfataza me'yorida. Alkaloz .

Rentgenologik uzgarishlar.

Suyaklarda	usish	zonalarining	notekis	zichlashishi.
------------	-------	--------------	---------	---------------

Raxit 1 darajasi ogirlikda kechganda MNS, mushak va suyak tizimi tomonidan uzgarishlar bilan xarakterlanadi. Raxit 2 darajali ogirlikda kechganda suyak va mushak tizimi tomonidan yakkol xarakterdagi uzgarishlar bilan namoyon buladi. Raxit 3 darajali ogirlikda kechganda bosh suyaklar asosini yumshab kolishi, ekzoftalm, burun egatining chukishi , olimpik peshona, kukrak kafasi va umurtka pogonasi deformatsiyasi, oyok suyaklarining epifiz kismining ingichkalanishi kuzatiladi. Raxit bilan kasallangan bolalarda tishlarining chikish vakti va chikish ketma-ketligi buziladi. Mushaklar gipotoniyasi yakkol kurinadi, korin xajmi kattalashadi, shuningdek, statik, motor funktsiyalarining (utirish, yurish, turish) rivojlanishi orkada koladi. Ichki organlar va tizimlarning funktsiyasi buzilishi kuzatiladi.

Kupgina xollarda gipoxrom anemiya rivojlanadi, bu Fe etishmovchiligi natijasida emas, balki eritrotsit membranalarining struktur-funksional uzgarishlar bilan boglikdir.

Raxit kechish jarayoni.

1.O'tkir- ko'pincha bolalarning birinchi yarim yilligida kuzatiladi.4 kg dan ortiq tugilagan bolalarda yoki xar oyda me'yoridan kup vazni kushadigan bolalarda uchraydi. Ushbu xolatda xarakterli:

-simptomlarning tez ortib borishi

-osteoid giperplaziya jarayonidan osteomalyatsiya jarayonining ustunlik kilishi.

2.Utkir osti kechuvchi-kupincha xomilda ichi yoki postnatal gipotrofiyali bolalarda, chala tugilgan bolalarda erta gudak yoshidagilarda, xayotining birinchi yarim yilligida vitamin D ni etarlicha dozasini kabul kilmaganlarda uchraydi. Bu xarakterlagadi :

-kasallikni asta sekin rivojlanishi ;

-osteoid giperplaziya simptomlarining osteomalyatsiya jarayonlaridan ustunlik kilishi.

Raxit utkir osti kechganda, utkir respirator kasalliklar bilan kechgan bolalarda utkir kechuviga utib ketishi mumkin.

3.Retsidivlanuvchi kechuvida-kasallik kechishining klinik kurinishi yaxshilanishi, yomonlashishi davrlari bilan kechadi.

4.Terapiya utkazmaslik yoki tulik davolanmaganda raxit uzluksiz-retsidivlanuvchi kechuviga ega bulishi mumkin.

Raxitga xos klinik kurinishlar:

-kraniotabes

-likildoklar va bosh suyagi choklarining bitishini kechikishi.

-peshonaning burtib chikishi (dunpeshona)

-tishlarning emalining defekti

-paypaslaganda bilaklarda raxitsimon bilakuzuklar

-O va X simon oyoklar kurinishi

-«tovuk» kukragi , «etikduz» kukragi.

-«garrison» egati

-kovurgalarda «raxitik» tasbexlar

Raxitni davolash

Raxit kasalligini davolash maksadida Sa-R almashinuvini yaxshilash, atsidozni yukotish. Vitamin D defitsitini yukotishga

karatiladi. Raxit kasalligini davolash kompleks asosida bulishi kerak. Bola uchun kun tartibini tashkil etish kerak, bu esa bolaning yoshiga mos xolda olib boriladi, xamda bola uchun ta'sir kiladigan yorugliklardan, kuchli shovkin-suronlardan mustasno kilish lozim. Ochik xavoda etarlicha sayr kildirish, uy xonalarini muntazam shamollatib turish kerak. LFK ,massaj, vannalar va ishkashlar muxim rol uynaydi. Agar bola kukrak suti bilan ovkatlantiriladigan bulsa, unda uning onasining ovkatlanishiga e'tibor kursatish kerak. Agar bola sun'iy ovkatlantirishda bulsa albatta moslashtirilgan aralashmani tanlash kerakki, bu ona sutiga yakin bulishi kerak va vitamin D3 ni uzida saklash kerak. Undan tashkari raxitni davolashda vitamin D3 ni kullash kerak. Odamda vitamin D3 ni davolash dozasi 2000-5000 XB kuniga, 35-40 kun mobaynida buyuriladi, sungra profilaktik dozasi 500x5 kuniga buyuriladi, buni 2 yil mobaynida xar kuni va 3-chi yili kishsh oylarida kabul kilishi kerak. Xozirgi kunda yangi, suvda eruvchi vitamin D3 chikarilgan (TERPOL, POLSHA) . Yogdagi eritmasiga nisbatan bir kancha afzalliklarga ega :
-OIT da tez suriladi (odatdagiga karaganda 5 marta tez)
-ta'siri davomlidir (suvda eruvchi vitamin D3 buyurilgandan sung ta'siri 3 oygacha saklanib turadi). Suvda eruvchi vitamin D3 tomchi xolda chikariladi (1 tomchisi 500 XB ga teng). Tekshiruv natijalaridan xulosa kilib aytganda bolalarda raxitni davolashda vitamin D3 ning effektivligi yukori.
Ushbu preparatning nojuya ta'siri yukdir.
Bundan tashkari raxitni davolashda tabiiy ovkatlantirishdagi va chala tugilgan bolalarga kaltsiy preparatlari buyuriladi. Kaltsiy preparatlari xayotning 1-chi va 2-chi yarim yilidagi bolalarga 3 xafta mobaynida buyuriladi. Sa glitserofosfatning dozasi 0,05 gr 2-3 marta kuniga, kaltsiy-glyukonat 0,15-0,25gr 2-3 marta kuniga. Xayotining 2- chi yilida kaltsiyga boy bulgan ozik ovkatlar bilan oziklantiriladi. Sa tuzlarining manbai tuxum puchogidir.
3G`1-4G`1 choy koshigida limon sharbati bilan aralashtirilib 1G`4 (suvda) yoki sitrat aralashmasi bilan birgalikda buyuriladi. Bu esa ichaklarda Sa va R ni uzlashtirishni yaxshilaydi va buyraklarda R ni reabsorbtsiyasini oshiradi (10-12 kun bir choy koshikda 3 maxal).
Kalkonsimon oldi bezining funktsiyasini normallashtirish va vegetativ buzilishlarni kamaytirish maksadida kaliy preparatlari kushiladi (panangin, asparkam) sutkasiga 10 mgG`kg xisobidan 3-4xafta mobaynida.
Metabolik jarayonlarni tezlashtirish maksadida kaliy-orotat 10-12mgG`kg. Sutkasiga karnitin-gidroxlorid (20 % suvdagi eritmasi 4012 trigidon 3 maxal 1-3 oy beriladi), buy, ogirlik kursatkichlarini yaxshilaydi, mushaklar gipotoniyasini, modda almashinuv jarayonlarni yaxshilaydi.
Raxit ogir kechgan bolalarga ATF 0,5 mg mushak orasiga 15-30 kun mobaynida kilinadi. Kompleks ravishda medikamentoz terapiya utkazilgandan sung LFK va massaj buyuriladi. Terapiya boshlangandan 1 oydan sung vannalar kabul kilinadi. Engil kasallangan bolalarga xvoyli vannalar tavsiya etiladi (10 litr suvga 1ch.k. ekstrakt 360S DA birinchi vanna kabul kilish 5 minut, keyingisi 8-10 minut davomiylikda 13-15 ta muolaja utkaziladi). Tuzli vannalar asosan xolsiz, kam xarakatli bolalarga (10 l

suvga 2 osh koshik dengiz yoki osh tuzi solinadi, birinchi vanna 3 minut keyingilari 5 minutdan 8-10 muolaja). Utli vannalar (sachratki, air ildizi, moychechak va boshkalar) buyuriladi. Vannalar bilan davolash yilda 2-3 marta olib boriladi. Dispanser nazorati ostida ogir kechgan xollarda 3 yil mobaynida turadilar. Ular xar kvartalda kuruvda bulishlari kerak. Spetsifik profilaktika 2 yil mobaynida kuz va kish oylarida, 3 yili esa fakat kish oylarida olib boriladi. Raxit kasalligi profilaktik karshi kursatma bula olmaydi. Vitamin D3, sung 2-3 xaftadan keyin vaktsinatsiya kilinadi.

Raxitni oldini olish

1. Antenatal (xomila davrida) bu spetsifik va nospetsifik bulishi mumkin. Nospetsifik profilaktika bola tugilmasdan ancha avval kilinadi. Xomilador ayol kun tartibiga rioya kilishi kerak. Kunduzgi va kechgi uykusi etarlicha bulishi kerak. Shunisi axamiyatliki xar kuni 2-4 soat ochik toza xavoda sayr kilishi, ratsional ovkatlanishi : ya'ni 180-200 g gusht, 100gr balik, 150 gr tvorog, 30gr pishlok, 500 ml sut yoki katik, xamda mikroelement va makroelementlarga boy bulgan ozik ovkatlar bilan oziklanish kerak.

Xavf guruxi bulgan xomilador ayollarga (nefropatiya, kandli diabet, gipertoniya, revmatizm) kushimcha xomiladorlikning 28-32 xaftasida vitamin D 1000-1500 XB sutkasiga 8 xafta mobaynida yil faslidan kat'iy nazar buyuriladi. Kish va baxor oylarida, shimoliy rayonlarda esa yil davomida vitamin D preparati urniga 1-2kurs UFO (1,4 biodozadan boshlab, sekin-asta 2,5-3 dozagacha oshiriladi). UFO xolekaltsiferolni endogen sinteziga yordam beradi.

2. postnatal-bola tugilgandan sung asosiy chora tadbirlardan biri bu tugri ovkatlantirishni tashkil kilishdir. 2 oygacha bulgan bolalar eng yaxshisi bu kukrak suti bilan bokishdir. Emizikli ayol kun tartibiga rioya kilishi va tugri ovkatlanish kerak. Polivitamin preapratlari, sut maxsulotlari muntazam iste'mol kilib turish kerak. Kukrak suti bilan bokilmagan xolatlarda kukrak sutini urnini bosuvchi moslashtirilgan ya'ni vitamin D3 saklovchi aralashmalar buyuriladi. Bolaning fizik rivojlanishiga va chinikishiga katta axamiyat berish kerak: bu toza xavoda sayr kilish, LFK, massaj, suvli muolajalar utkaziladi, sistematik olib boriladi : muntazam, uzok muddat, asta-sekin. Spetsifik profilaktika vitamin D orkali amalga oshiriladi, soglom vaktiga etib tugilgan chakalok uchun profilaktik toza 400-500 XB sutkasiga bu 3-4 xaftalikdan boshlab, kuz-kish-baxor oylarida beriladi va bolaning yashash sharoiti va xavf guruxi kasallikli bolalarga karabtayinlanadi. Spetsifik profilaktika chakaloklarga kuz-kish-baxor oylarida 1-chi va 2-chi yilida buyuriladi . Raxit xavfi bor bolalarga xar kuni vitamin D 1000XB kuz-kish-baxor oylarida 2 yil mobaynida buyuriladi. Birinchi darajali chala tugilgan bolalarga raxitning spetsifik profilaktik dozasi xayotining 10-14 kunidan boshlab 400-500XB sutkasiga xar kuni yozkunlaridan tashkari 2 yil mobaynida buyuriladi. 2-3 darajali chala tugilgan bolalarga 1000-2000XB sutkasiga xayotining birinchi yil mobaynida, 2 yili esa 500-1000XB sutkasiga yoz oylaridan tashkari buyuriladi. Raxitni spetsifik profilaktikasini vitamin D3 suvli eritmasida olib borgan ma'kul, ayniksa chala tugilgan bolalar uchundir, chunki ularda ichaklarda

fermentativ aktivligining etishmaganligi sababdir. Vitamin D3 profilaktikasiga karshi kursatmalar bulishi mumkin:
-Idiopatik kaltsiyuriya.

-Gipofosfatizm.

-MNS ning organik zararlanishi , mikrotsefaliya va kraniostenoz simptomi bilan. Likildok kichik ulchamda bulgan bolalar vitamin D buyurilishiga nisbiy karshi kursatmalarga ega. Ularga raxitni spetsifik profilaktikasi xayotining 3-4 oylaridan boshlab beriladi

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talaba irsiylangan fosfat diabet, tonidebrifankoni, Ellers-Danlo va beriktiruvchi to'qima moddalar almashinuvining buzilishi bilan kechadigan kasalliklarning haqida to'liq malumotga ega va ularning etiologiyasi, klinikasini, diagnostikasini va davolash prinsiplarini biladi. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila oladi.
71 – 85 ball	Talaba irsiylangan fosfat diabet, tonidebrifankoni, Ellers-Danlo va beriktiruvchi to'qima moddalar almashinuvining buzilishi bilan kechadigan kasalliklarning etiologiyasi, klinikasini, diagnostikasini va davolash prinsiplarini biladi. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila oladi
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, irsiylangan fosfat diabet, tonidebrifankoni, Ellers- Danlo va beriktiruvchi to'qima moddalar almashinuvining buzilishi bilan kechadigan kasalliklarning etiologiyasi, klinikasini, diagnostikasini va davolash prinsiplarini haqida to'liq bilmaydi. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi
0 – 55 ball	Irsiylangan fosfat diabet, tonidebrifankoni, Ellers- Danlo

	kasalliklari haqida jada ham sayoz bilimga ega. Ularni bir-biridan dif.diagnostika qila olmaydi.
--	--

Amaliy mashg'ulot № 5

Mavzu: Multifaktorial kasalliklar

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 2. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 3. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish • Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. • Meditsinskaya genetika dlya	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.

	vrachey. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman -Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina 1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P.,Zaxarov A.F.,IvanovV.I.,Meditsina,1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., ʻOshonkulov O.ʻ. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlarga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu bo'yicha berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlarga bo'linadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar, qo'shimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar. Toshiriqni oladilar.

Mavzuga oid savollar:

1. Multifaktorial kasalligi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
2. Sindrom Dauna etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
3. Patau sindromida etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
4. Shershevskiy – Turner sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
5. Klaynfelter sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
6. Mashuq chinqirigi sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

“Zinama-Zina”

O'yin uchun kerak:

Mavzuga oid savollar mavjud kartochkalar (Kartochkalar soni gurux talabalari soni bilan mos bo'lishi kerak, har bir kartochkada 5 ta savol) sekundamer.

Ishni borishi:

O'yinning umumiy vaqti 45 minut

O'yin og'zaki ko'rinishda olib boriladi

Talabalar navbat bilan savolli kartochkalarni tortadilar. 3 daqiqa davomida har bir talaba 5 ta savolga og'zaki javob beradi

O'qituvchi to'g'ri javoblar sonini sanaydi

O'yinga hamma talabalar qatnashadi

To'g'ri javob berilmagan savollar taxlil qilinadi

talabalarning javoblari quyidagi shaklga baxolanadi: 5 ta to'g'ri javob 0,8 ball 4 ta to'g'ri javob 0,7 ball, 3 ta to'g'ri javob 0,5 ball, 2 ta to'g'ri javob 0,3 ball, 1 ta to'g'ri javob 0,1 ball

“Zinama-Zina”

o'yiniga Multifaktorial kasalliklar bo'yicha savollar

Mltifaktorial kasalliklari bor deb gumon qilishga imkon yaratuvchi assosiy belgilarni aniqlash.

multifaktorial kasalliklari etiologiyasi, patogenezi, haqidagi ma`lumotlarni to`plash
 multifaktorial belgilari va klassifikatsiyasini belgilash.
 Citogenetik va bioximiyaviy tekshirishlarga ko`rsatma
 multifaktorial kasalliklarni dastlabki tashxis qo`yish
 multifaktorial kasalliklar klinik manzarasini yoshga qarab o`zgarishini aniqlash
 Prenatal diagnostika va neonatal skrining usullarini ularga bo`lgan ko`rsatmalarni o`rgatish
 multifaktorial kasalliklarning klinik instrumental funktsional tekshirish usullarini o`rgatish
 multifaktorial kasalliklari bor bemorlarga vrach magistr malaxatiga ko`rsatma berish
 multifaktorial kasalliklari davolash bosqichlarini reabilitatsiya va dispanser nazoratiga olish
 Multifaktorial kasalligi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
 Sindrom Dauna etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
 Patau sindromida etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
 Shershevskiy – Turner sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
 Klaynfelter sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish
 Mashuq chinqirigi sindromi etiologiyasi klinikasi, patogenezi va davolash choralarini aytib berish

Mashg`ulot mazmuni:

Me`da va o`n ikki barmoq ichakning yara kasalligi

Me`da va o`n ikki barmoq ichakning yara kasalligi—sikl bilan davom etadigan surunkali kasallik bo`lib, oshqozon va o`n ikki barmoq ichakda yara paydo bo`lishi bilan kechadi. Yoki boshqacha ta`rif berish ham mumkin. Yara kasalligi—turli-tuman klinik manzara bilan va me`da yoki o`n ikki barmoq ichak shilliq pardasida gastroduodenal zonadagi sekretor trofik jarayonlarni tartibga solib turadigan nerv-gumoral mexanizmlarning buzilishi natijasida yara hosil qilish bilan siklli kechadigan kasallikdir. Shu sababli oshqozon shirasida pepsin va xlorid kislota ko`paygani holda, undagi shil-liqning himoya qilish xususiyati pasayadi va yara paydo bo`li-shiga olib keladi. Bu kasallik har xil yoshda, ayniqsa, 30—40 yoshda ko`p uchraydi. Aholining 5% i shu kasallikka chalinadi. Shaharlik aholi qishloqlardagiga nisbatan ko`p, erkaklarda ayollarga nisbatan 6—7 marta ko`p uchraydi.

Etiologiyasi. Kasallikning kelib chiqish sabablari ko`p bo`lganligidan (40 tagacha) bu kasallik polietilogik hisoblanadi. Bu sabablar 2 ta katta: asosiy va yordamchi guruhga bo`linadi. Asosiy sabablarga doir bir necha nazariyalar mavjud:

1. Mexanik nazariya: qattiq, dag`al, achchiq, sho`r, yomon chaynalgan ovqatning oshqozon shilliq qavatiga mexanik ta`siri

natijasida yara paydo bo'ladi.

2. Nevrogen nazariya: ruhan charchash, o'tkir va surunkali ruhiy kechinmalar, barotravma, bosh miyaning jarohatlanishi tufayli oshqozon va o'n ikki barmoq ichak faoliyatining buzilishi natijasida yara paydo bo'ladi.

3. Peptik nazariya: bunga, asosan, oshqozon shirasida xlorid kislota va pepsin ko'payadi, shu bilan bir qatorda, oshqozon shirasidagi shilliqning himoya qilish xususiyati kamayib, o'z-o'zini hazm qilishi kuzatiladi.



4. Infektsion nazariya, 1988- yilda aniqlangan spiralsimon bakteriya *Helicobacter pylori*ning oshqozonda yara hosil bo'lishida ishtirok etishi ilmiy tekshirishlarda isbotlandi.

Yordamchi sabablar:

1. Odamning tuzilishi va irsiy xususiyatlari, oshqozonda yordamchi shilliq bezlarining ko'payishi, qon gruhi, xususiyatlari.

alohida

2. Tashqi sharoit ta'siri (namlik, havo bosimi, harorat).

3. Tamaki chekish va ichkilik ichish.

4. Qo'shimcha kasalliklar (ovqat hazm qilish kasalliklari— jigar sirrozi va h.k.).

Kasallikning rivojlanish jarayoni yaxshi o'rganilmagan. Har xil sabablar natijasida miya qobig'i va gipotalamo-gipofiz tizimi faoliyatidagi o'zgarish (kortikoliberinni ko'p ishlab chi-qarish natijasida gipofizda AKTG gormoni ishlab chiqarish ko'payadi) natijasida vegetativ nerv tizimi parasimpatik qismi-ning faolligi oshadi. Vagotoniya oshqozon va o'n ikki barmoq ichak harakatini o'zgartiradi va oshqozon shirasini oshiradi. Bu sabablar organizmning irsiy-konstitutsional xususiyatlari bilan birga, kislota-peptik faoliyatining oshishiga olib keladi. Bunga buyrak usti bezining kortizol ishlab chiqarishi oshishi natijasida gastritning ko'payishi ham sabab bo'ladi. Yana buyrak usti bezi faoliyatining o'zgarishi oshqozon shilliq pardasining kislota—peptik ta'siriga qarshilik faoliyatini pasaytiradi, natijada shilliq pardaning regeneratsiya faoliyati pasayadi, shilliq kam ishlab chiqarilishi natijasida shilliqning xususiyati buziladi. Oshqozon harakatining buzilishi o'n ikki barmoq ichak yarasida uning ovqat moddalaridan bo'shashining tezlashishi, oshqozonda ko'p miqdordagi nordon suyuqlikning o'n ikki barmoq ichakka tushishiga olib keladi.

Oshqozon yarasi kasalligida harakat va evakuatsiya faoliyati buzilishi natijasida oshqozondagi ovqat evakuatsiyasining pasa-yishi va o'n ikki barmoq ichak bo'shlig'idagi ovqat moddalarining oshqozonga o'tishi kuzatiladi. O'n ikki barmoq ichak yarasida kislota-peptik faoliyatining oshish omili va oshqozonning bo'shalishi tezlashishi ahamiyatli bo'lganda, oshqozon yarasida esa regenerativ faoliyatning pasayishi, oshqozon bo'shashining pasayishi bilan shilliq modda himoya faoliyatining pasayishi katta ahamiyatga ega.

Kasallik turlari.

1. Klinik-morfologik belgilariga qarab: oshqozon yara kasalligi va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligi.

2. Yaraning joylashishiga qarab: me'daga kirish qismida, chiqish qismida, kichik egrilik sohasida, o'n ikki barmoq ichak sohasi

3. Kasallikning kechishiga qarab: qaytalanishi, pasayib qaytalanishi, pasayishi.
4. Kasallikning og'ir-yengilligiga qarab: yengil kechadigan, surunkali (o'zgarmaydigan), kuchayib boradigan.
5. Asoratlariga qarab: asoratli, asoratsiz.

Asoratlari. Oshqozondan qon ketishi, penetratsiya, oshqo-zonning perforatsiyasi, o'smaga aylanishi, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak stenozi.

Kasallik belgilari. Asoratlanmagan yara kasalligining asosiy belgisi og'riqdir. Ko'p bemorlarda me'da sohasidagi og'riq kuchli kechuvchi, sanchiqli bo'lsa, ba'zilarida kuchsiz va siquvchi og'riq bezovta qiladi. Og'riq belgisining ifodalanganligi yaraning chuqurligiga, me'da harakat faoliyatining buzilish darajasiga, bemorning o'ziga xos sezuvchanligiga bog'liq. Og'riq belgisining paydo bo'lishi mavsumiy bo'lib, ko'proq bahor va kuz oylarida kuzatiladi. Bu davrda kasallik ko'proq qaytalanadi. Og'riq xuruji paytida bemorlar majburiy holatni (qoringa yotib, oyoqlarni qorni tomonga bukib, oldinga engashib) egallashga harakat qiladilar va bunda og'riqning biroz pasayishiga erishadilar.

Yara kasalligida og'riq ma'lum darajada takrorlanib, kunning ma'lum vaqtlarida kuzatiladi va ovqatlanishga bog'liqdir. Ovqatlanish bilan bog'liq og'riqning erta, kech, och qoringa va tungi turlari kuzatiladi. Ovqatlanishdan keyin qisqa muddatda (20—30 daqiqada) paydo bo'ladigan erta og'riqlar me'da yara kasalligiga xos. Och qorinda bezovta qiladigan, tungi va kech (ovqatlanishdan 1,5-3 soat o'tgach paydo bo'ladigan) og'riqlar o'n ikki barmoq ichak yara kasalligiga xos bo'lib, ovqatlanish og'riqni pasayishiga olib keladi. Natriy gidrokarbonat va boshqa antatsid dorilarni qabul qilish ham og'riqlarni kamaytiradi. Yara kasalligining og'riqsiz turi mavjudligini ham yodda saqlash lozim. Yara kasalligidagi og'riq qator dispeptik belgilar: ko'ngil aynishi, qusish, jig'ildon qaynashi, kekirish, qabziyat bilan kechadi. Yara kasalligi bilan og'rigan bemorlarda ishtaha yo'qolmaydi, ammo ovqatlanish bilan doimiy takrorlanuvchi og'riq tufayli bemorlar ovqatlanishdan yuz o'giradilar. Shu sabab-li kasallik qaytalanish davrida bemorlar yana ham ozib ketadilar. Bemorlar ko'zdan kechirilganda ularning ozg'inligi, asa-biylashganligi, ko'p terlashga moyilligi, ifodalangan qizil, ba'zan ba'zi bemorlarda oq dermografizm aniqlanadi. Til ko'zdan kechirilganda uni karash qoplaganligi, yorilishlar, trofik o'zga-rishlarini aniqlash mumkin.

Rentgen nuri bilan tekshirilganda yara kasalligining asosiy belgisi - „tokcha“ belgisi bemorlarning 3/4 qismida aniqlanadi. Yara kasalligini aniqlashda gastroduodenofibroskop bilan tekshirish-ning ahamiyati muhim. Laboratoriya tekshirish usullaridan najas-da yashirin qonni muntazam aniqlash ahamiyatli. Qonashni aniqlash yara kasalligi qaytalanganligidan dalolat beravchi belgi hisoblanishi mumkin.

Hozirgi vaqtda diagnostika maqsadlarida peritoneoskopiya (laporoskopiya) - qorin bo'shlig'i o'rganlarini laporoskop yordamida

koʻzdan kechirish qoʻllanilyapti.

Davolash. Oshqozon yarasi bilan ogʻrigan bemorlar yara xuruji kuchaygan bosqichda kasalxonada davolanadilar. Kun tartibiga, ovqatlanish tartibiga qattiq rioya qiladilar. Parhez ovqatlar buyuri-ladi (№-l,a.v. parhezi).

Yara kasalligida oqsil, yogʻ, uglevodlar, vitaminlar, mikro-elementlar fiziologik meʼyorda boʻlishi shart. Ovqatlanish kuniga 5 marta buyuriladi. Ovqatlar yaxshi qaynatilgan, maydalangan va bugʻda pishirilgan boʻlishi kerak. Yogʻliq goʻsht, baliq, shoʻrvalar, sabzavot va qoʻziqorin quyuq qaynatmalar, pishirilmagan, maydalanmagan va shoʻr taʼmli sabzavot va mevalar, tuzlangan va dudlangan meva va goʻsht mahsulotlari, achchiq, xamir mahsulotlari, qora non, sovuq ichimliklar, muzqaymoq, tarkibida koʻp miqdorda SO₂ saqlagan mineral suvlar isteʼmol qilish taqiqlanadi.

Dori-darmonlar bilan davolash quyidagi asosiy yoʻnalishlarda olib boriladi:

— markaziy asab tizimi faoliyatini yaxshilovchi, tinch-lantiruvchi, uyqu chaqiruvchi;

— ortiqcha ishlab chiqarilgan xlorid kislota pepsinni neytrallash va biriktirib oluvchi;

— oshqozon va oʻn ikki barmoq ichak harakati va oʻtka-zuvchanligini yaxshilovchi;

— shilliq himoya qavati faoliyatini koʻpaytiruvchi;

— shilliq qavat toʻqima elementlari regenerativ xususiyatlarini oshiruvchi va distrofik yalligʻlanish jarayonini kamaytiruvchi.

— campilobacter piloriga qarshi antibakterial davolash.

M—xolinolitiklar (atropin, metatsin, platifillin va boshqalar)

tayinlanadi. Bu dori moddalari ogʻriqni qoldirishda yordam beradi. 0,1% atropin eritmasidan 0,5—1ml, 0,1% li metatsin eritmasidan 0,2 ml, platifillin eritmasidan 1—2 ml, kuniga 2—3 marta, ovqatdan 30—40 minut oldin buyuriladi.

Gastrotsepin xlorid kislota ishlab chiqarishni 10—12 soatga pasaytiradi. Bir sutkada 75—100 mg, kuniga 2 marta buyuriladi. U 4—5 haftada yaraning chandiqlanishiga olib kelib, boshqa modda-lar singari nojoʻya taʼsirga ega emas, shuning uchun uni glaukoma, yurakning ishemik kasalligi, xafaqon kasalligi, nevrosteniya va boshqa kasalliklar bilan kechganda ham qoʻllash mumkin.

Gistamin N₂ retseptorlarning sezuvchanligini kamaytirish maqsadida simitidin, ranitidin va famotidinlar qoʻllaniladi.

Parvarishi. Poliklinika shifokori kuzatuv ostida boʻlgan bemor tayin qilingan dori-darmonlar va mineral suvlarni ichish bilan birga gigiyenik tavsiyalarni ham bajarishi: yaxshi chaynab yeyishi, sutkasiga kamida 8—9 soat uxlashi, tishlar ahvolini kuzatib borishi, zarur boʻlganda protez tishlar qoʻydirishi kerak. Ratsional kun tartibiga rioya qilish lozim: har kuni sof havoda sayir qilish (kamida 1 soat), fizkultura mashqlari kompleksini bajarishi lozim.

Bemor meʼda va oʻn ikki barmoq ichakni yara kasalligidan parhezga uzoq vaqt qatʼiy ravishda, hatto ahvoli yaxshilangan-dan keyin ham amal qilgan taqdirdagina xalos boʻlishi mumkin. Bemor oʻzini soppa-sogʻ his qilishi mumkin, biroq kasallik remissiya fazasiga oʻtgan, biroq, umuman, tugatilmagan boʻladi. Parhez buzilganda kasallik qoʻzishi mumkin. Yara kasalligiga qarshi

ovqatlanish kursi bir oy: bemor 10-12 kun parhez №-1 a, 10-12 kundan keyin parhez №-1 b, so'ngra parhez №-1 oladi. Maksimal darajada ehtiyot qiladigan parhezlar №-la va №-1 b og'riqlar va dispeptik hodisalarning (zarda qaynashi, achchiq kekirish, ko'ngil aynishi) to'xtashiga yordam beradi. Ratsionga o'simlik moyi kiritish ichak funksiyasiga yaxshi ta'sir etadi (qabziyatni yo'qotadi). Me'da va o'n ikki barmoq ichakning yara kasalligi bilan kasallangan bemorlar mehnatga layoqatli bo'lganlaridan keyin ham uzoq vaqtgacha (1 yildan 3 yilgacha) parhez qilib yuradilar. Turli-tuman ovqatlar yeyishga davolovchi shifokor ruxsatidan keyingina o'tish lozim.

Yara kasalligi sababli operatsiyaga ko'rsatmalar xirurg bilan hamkorlikda belgilanadi, asoratlari xirurgik davolanadi. Tibbiyot hamshirasi parhez buzilishining oldini olishi kerak. Bemorda „kofe quyiqasi“ aralashgan va „qatronsimon“ axlat paydo bo'lganda (qon ketish belgilari) bu haqida shifokorga xabar qilishi lozim. Yara kasalligida davo qilishning muhim shartlariga to'g'ri parhez rejimini tayinlash, bemorning ishtahasi yaxshi bo'lishi to'g'risida g'amxo'rlik qilish va og'iz bo'shlig'ini qunt bilan par-varish qilish kiradi. Tibbiyot hamshirasi bemor har gal ovqatdan so'ng og'zini chayishini kuzatib borishi lozim. Buni u mustaqil bajara olmasa, hamshira og'iz bo'shlig'ini birorta dezinfeksiya qiladigan eritma bilan artib qo'yadi. Og'iz bo'shlig'ini baloncha bilan yuvsa ham bo'ladi. Yuqori jag' tishlarini artishda quloqoldi bezining chiqaruv yo'liga infeksiya tushirmaslik uchun lunjini shpatel bilan tortib turish kerak.

QANDLI DIABET.

Qandli diabet ko'p tarqalgan kasalliklardan bo'lib, ichki sekresiya bezlarini Zaharlanishi oqibatida kelib chiqadi.

Etiologiya va patogenezi. Qandli diabet me'da osti bezi pankreasning yetarli miqdorda insulin ishlab chiqarmasligi natijasida paydo bo'ladi. Dastlab rus vrachi L. V. Sobolev 1902 yilda me'da osti bezini Langergans orolchalarida ishlanib chiqadigan gormon-insulin qonda qand miqdorining bir tekisda bo'lishini ta'minlovchi muhim omil ekanligini, ana shu orolchalar faoliyatining buzilishi, qandli diabetni kelib chiqishiga sabab bo'lishini ko'rsatib o'tdi. Hozirda qandli diabetga faqat Langergans orolchalarining faoliyati bo'zish-gina emas, balki gipofizdagi yetishmovchilik va boshqa endo-krin bezlari funksiyasining bo'zilishi ham sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Qo'rqish, uzoq muddat tashvishlanish, jismoniy mehnat bilan kam shug'ullanish qandli diabetni paydo bo'lishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Belgilari. Kasallik ko'pincha sekin-asta rivojlanib boradi. Bemor xatto o'zida bu kasallik paydo bo'la boshlagan-ligiga ishongisi ham kelmaydi. Kasallikni dastlabki belgilaridan biri siydik ajralishining ko'payishi natija-sida bemor ko'p tashna bo'lishidir. Keyin a'zoyi badani bo'shashib, bemor tez charchaydigan, tajang bo'lib qoladi. Ozib ketadi va kam qonlik belgilari namoyon bo'ladi. Kasallikning asosiy belgilaridan biri qandli diabetni og'ir formasida siydik ajratish ko'payib sutkasiga 3-5 litrga

yetadi. Siydik-dagi qand miqdori esa 3-10% xatto undan ham yuqori bo'lishi mumkin. Siydikda qand bo'lishi, siydikni solishtirma og'irligi 1030-1050 gacha bo'lishiga olib keladi.

Qandli diabetda to'qimalar faoliyati susayib ketadi. Natijada badandagi xatto kichik bir jarohatni bitishi ham qiyinlashib, ekzema va chipqon paydo bo'lishiga olib keladi. Qandli diabetni yengil va og'ir formasi bo'lib, yengil formasida siydikda qand bo'lmaydi, og'ir formasida esa xatto bemor ozig'ida uglevodlar bo'lmasa ham, siydikda qand bo'ladi. Qandli diabetni yengil formasi yillab davom etishi va bemorga xech qanday xalal bermasligi mumkin. Og'ir formasida esa bemor butunlay xoldan toyishi, xatto insulin bilan davolash ham yordam bermasligi mumkin. Qandli diabetda boshqa kasalliklar (masalan, sil) qo'shilib ketishi oqibatida bemor diabetik komadan halok bo'lishi mumkin.

Qandli diabet modda almashinuvi, asosan, uglevod alma-shinuvi buzilishiga olib keladigan insulin yetishmovchiligi bilan bog'liq kasallik.

Etiologiyasi. Qator omillar: irsiyat, semizlik, haddan tash-qari ko'p ovqat yeyish, rahiy va jismoniy zo'riqish, oshqozon osti bezining o'smasi, zahm, sil va hakazolar ahamiyatga ega.

Patogenezi. Diabetning hamma alomatlari organizmda in-sulin yetishmovchiligi bilan bog'langan. Insulin yetishmov-chiligi birlamchi yoki ikkilamchi bo'lishi mumkin. Pankreatik yetishmovchilikda oshqozon osti bezining B hujayralarida insulin sekretsiyasi va sintezi buziladi. Pankreasdan tashqari yetishmovchilikda insulin me'yordagi miqdorda ishlab chiqa-riladi va sintez qlinadi, lekin uning faoliyati pasayadi.

Diabetda semirish muhim o'rin tutadi, chunki bunda yog' kislotalarining miqdori ortadi, ular insulin faolligini pasay-tiradi. Insulin yetishmovchiligi giperglikemiyaga olib keladi. Giper-glikemiya ketidan glukozuriya rivojlanadi, u buyrak koptok-chalarida glukoz filtratsiyasining ortishi va kanalchalarda uning qayta kam so'rilishi bilan bog'liq. Glukoza konsen-tratsiyasining ortishi natijasida kanalchalarda birlamchi siy-dikning osmotik bosimi ortadi va suvning qayta so'rilishi buziladi, poliuriya vujudga keladi. Organizmning suvsizlanishi, chanqoqlik polidipsiyani keltirib chiqaradi. Yog' almashinuvinin buzilishi, yog' parchalanishining kuchayishi va ko'p miqdorda erkin yog' kislotalari hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi, ular jigarga to'planib, yog'ga aylanadi va jigarni yog' bosishga olib keladi. Ko'p miqdorda yog' kislotalari parchalanishi natijasida keton tanachalari paydo bo'ladi. Keton tanachalar markaziy nerv sistemasiga tonik ta'sir ko'rsatadi, kislota ishqor muvozanati asidoz tomonga o'zgaradi. Natija-da natriy, kaliy, magniy ionlarining organizmdan chiqib keti-shiga imkon yaratiladi, bu esa muskul to'qimasining, shu jum-ladan, miokardning holatiga ta'sir etadi. Insulin tanqisligida oqsillar sintezi buziladi, shu jumladan, antitanalar ham kamayadi, bu organizm reaktivligi pasayishiga imkon yaratadi, yaralar sekin bitadi.

Qandli diabetda oqsillar sintezining buzilishi qon-tomir yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Qandli diabetda xolesterin sintezi

ko'payadi.

Klinikasi. Kasallikning dastlabki alomatlari umumiy bo'ladi. Shikoyatlari - endokrin buzilishlar: poliuriya, polidipsiya, tez charchash, quvatsizlik, mehnat qilish qobiliyatining buzilishi va boshqalar, ba'zan glukozuriya va giperglikemiya kuzatiladi. Kasallikka xos belgilardan yana biri ozib ketish yoki semirish hisoblanadi. Poliuriya. Bunda siydik miqdor me'yoriga nisbatan ko'-payib, 2,5-3,0 litrdan 5-10 litrgacha yetadi. Agar bemor bunga ahamiyat bermagan bo'lsa, undan necha marta hojatga borgani va har gal qancha siydik ajralgani, uning miqdori va rangi so'raladi. Diabeti bor bemorlar siydik yo'li kasalliklaridan farqli o'laroq, oz-ozdan siydik ajratadi. Siydik miqdori tungiga nisbatan kunduzi ko'p bo'ladi. Shunga mos ravishda glukozuriya ham kunduzi ko'p, siydigi yopishqoq bo'ladi. Polidipsiya. Kuchli chanqoq kasallikka xos belgi hisoblanadi. Dastlab bemor uni sezmaydi, u kuniga 2-3 litrdan ortiq suv ichadi. Sababsiz terlaydi, qizib ketadi, hatto ishtaha kuchli bo'lsa ham, ozish rivojlanaveradi. Ba'zi bemorlarda semirib ketish kuzatiladi. Semirish deb vaznning me'yordan 20% ortib ketishiga aytiladi. Polifagiya Doimiy yuqori ishtahada bo'ladi. Bunday bemorlarni „ovqat ishqibozlari“, „ovqatni qizg'anadiganlar“, deb atashadi. Moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan keyingi guruh belgilar: adinamiya, lanjlik, asteniya hisoblanadi. Bu belgilar ko'pincha bemorlarni bezovta qiladi va ular doimo shifokorga shikoyat qilib turadilar. Adinamiya (quvvatsizlik) asta-sekin, boshqa belgilar qatori zimdan rivojlanadi. Ozgina jismoniy harakat qilganda yengil charchash paydo bo'ladi. Dam olgandan so'ng ahvol yaxshilanadi. Muskul charchashi og'riq xurujlari va oyoq-qo'llarining sal-pal titrashi bilan namoyon bo'ladi.

Kasallikka xos belgilardan yana biri teridagi va to'qimalardagi ba'zi bir o'zgarishlar hisoblanadi. Bu o'zgarishlar moddalar almashinuvi sindromining yomonlashishi yoki yaxshilanishi bilan paydo bo'lib va yo'qolib turadi. Shikoyatlardan yana biri teri qichishi hisoblanadi. Qichishish ko'pincha jinsiy a'zolar sohasida va orqa chiqaruv teshigi atrofida bo'ladi. Uzoq vaqt tuzal-maydigan, qaytalanadigan, odatdagi muolaja bilan davolab bo'lmaydigan chipqonlar diabet bilan birga kechishi mumkin. Ekzemalar, dermatozlar, soch mikroblari, tirnoqlarning trofik yarasi kuzatilishi mumkin. Diabetda jarohatlar sekin bitadi, ichki a'zolar shikastlanishiga xos qator belgilar paydo bo'ladi. Oshqozon-ichak yo'llari tomonidan: og'iz qurishi, kuchli chan-qash kuzatiladi. Bemorlar og'zida shirin ta'm paydo bo'ladi. Tishlari qimirlab, tushib ketadi. Yurak-qontomir sistemasida turli o'zgarishlar: atero-sklerozning xilma-xil joylashishi, yurak sanchig'i, miokard infarkti, qo'l-oyoq tomirlari shikastlanishi (oyoq-qo'llarning uvushishi, achishishi, oyoqning sovqotishi va boshqalar) belgi-lari kuzatiladi. Asab sistemasi tomonidan nevrirlar, polinevrirlar kelib chiqadi. Ko'rish, jinsiy a'zolar ishi buziladi. Bemorning hayot tarzini so'rab-surishtirish vaqtida kasallik rivojlanishidagi o'zgarishlar sog'lig'idagi chetga chiqishlarni so'rab-surishtirish kerak, chunki ular diabetdan oldin yoki u bilan birga kechadi. Atrof-muhit sharoiti: kasallik ko'pincha moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanmagan oiladagi odamlar orasida, ko'proq shahar aholisi o'rtasida rivojlanadi. So'rashda ovqatlanish xususiyati,

yeydigan ovqatning miqdori, uning kaloriyasi, bemorning turmush tarzi, ixtisosi, o'tkir yoki surankali ruhiy shikast-lanishlar bilan bog'liqligiga ahamiyat berish kerak.

Irsiy omil 10-50% hollarda ta'sir etadi. Otasi va onasi kasal bo'lsa, kasallanish xavfli bo'ladi, ulardan biri yoki boshqa qarindoshlari kasal bo'lsa, xavf kamroq bo'ladi.

Streptokokkli infeksiya, gripp, epidemik parotit (tepki), o'tkir va surankali pankreatit, kalla suyagining, miyaning shi-kastlanishi, qorindagi jarohatlar katta ahamiyatga ega. Bemorni diqqat bilan ko'rish bemorning vazni ortganligini yoki u ozgan-ligini, charchoqlik sezayotganligini aniqlashga imkon beradi. Lunjning yoki peshonaning o'ziga xos to'q pushtirangga bo'ya-lishi kasallikka xos belgi hisoblanadi.

Og'iz bo'shlig'i - lablari, tili, halqum shilliq pardalari quruq. Ko'pincha stomatit, gingivit, tish kariyesi, paradontoz kuzatiladi. Yurak-qon tomir sistemasini tekshirganda EKGda o'zgarishlar va toj tomirlarning aterosklerozi aniqlanadi. O'pka tomonidan bronxitlar, zotiljam, sil uchraydi. Oshqozon shirasining kislotaliligi pasayadi, jigar kattalashadi. Buyrakda simptomatik arterial gipertenziya, proteinuriya, retinopatiya, surankali piyelonefrit, buyrakning aterosklerozi rivojlanishi mumkin.

Ko'zda retinopatiya, katarakta kuzatiladi. Terida chipqon, xo'ppozlar izi, chandiqlar bo'lishi, teri burmalarida bichilish, ekzema, epidermofitiya bo'lishi mumkin.

Qandli diabet alomatlari qanchalik namoyon bo'lmasin kasallikka tashxis qo'yishda, albatta, qondagi qand miqdorini aniqlash katta ahamiyatga ega. Glukoza miqdorini nahorda yoki kunning istalgan vaqtida aniqlash mumkin. Agar nahordagi miqdor 6,7 mmol/l (120 mg%) yoki undan ortiq (200 mg%) bo'lsa, demak bu qandli diabet borligini bildiradi. Kasallikning klinik belgilariga qarab, qondagi glukoza miqdoriga hamda berilayotgan davoga qarab qandli diabetning yengil, o'rtacha, og'ir turlari farqlanadi. Kasallik yengil kechganda qon va siydikdagi o'zgarishlar uncha katta bo'lmaydi. Odatda, qondagi glukoza miqdori 7,8 mmol/l (140 mg%) dan ortmaydi, kasallikning asoratlari bo'lmaydi, bemorlar ish qobi-liyatlarini saqlab qoladilar.

Kasallik yengil kechganda qand miqdorini pasaytiruvchi preparatlar qo'llanmasdan, faqat parhez yordamida qondagi glukoza miqdorini me'yorda saqlab turish mumkin. Kasal-likning yengil turi, asosan, II turdagi diabet bilan og'rigan semiz kishilarda uchraydi, I turdagi diabetda esa kamdan kam aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan ko'pincha bemorlar yaxshi davo-lanmasligi natijasida kasallik og'irlashib, o'rtacha og'irlikdagi turga o'tadi.

Qandli diabet o'rtacha og'irlikda kechganda qondagi glukoza miqdori 14,0 mmol/l (250 mg%) gacha ko'tariladi, uncha og'ir asoratlar bo'lmaydi, bemorning ish qobiliyati birmuncha pasayadi. Kasallikning bu turida faqat parhezning o'zigina yordam bera olmaydi. Qondagi glukoza miqdorini saqlab turish uchun parhez bilan bir qatorda, qand miqdorini pasaytiruvchi dorilar ichish, sutkasiga 60 TB gacha insulin qabul qilish zarur bo'ladi.

Qandli diabet og‘ir holda kechganda qondagi glukoza miqdori ancha yuqoriga, 14,0 mmol/l (250 mg%) dan yuqoriga ko‘tariladi, bemorda diabetning og‘ir asoratlari mavjud bo‘lib, ularning ish qobiliyatlari pasayadi yoki butunlay yo‘qoladi. Kasallikning bu turida qondagi glukozani me‘yorida saqlab turish uchun sutkasiga 60 TB dan ortiq insulin talab qilinadi. Qandli diabetning yuqorida keltirilgan ochiq klinik shakli namoyon bo‘lguncha yashirin bosqichni o‘taydi. Kasallikning yashirin davri I turdagi diabetda juda qisqa, II turdagi diabetda ancha davomli bo‘lib, bir necha yillarga cho‘zilishi mumkin. Yashirin diabeti bo‘lgan bemorlarni ko‘pincha hech narsa bezovta qilmaydi, kasallikning belgilari deyarli bo‘lmaydi. Qondagi glukoza miqdori me‘yorida ushlab turiladi. Siydikda qand bo‘lmaydi. Ba‘zi bir bemorlarda bu davrda teri ostiga yiringli yara chiqishi, milklarning yallig‘lanib, tish tushib ketish hollari uchraydi. Bu holat yashirin diabet bor deb gumon qilishga asos bo‘ladi. Yashirin diabet organizmning glukozaga turg‘unligini aniqlash orqali topiladi. Buning uchun tekshirilayotgan odam 10-14 soat ovqat yemasdan, ertalab och qoringa glukoza miqdorini aniqlash uchun barmog‘idan qon topshiradi, so‘ngra 250-330 ml suvda eritilgan 75 gr glukozani 5-15 minut davomida ichadi. Glukoza ichganidan 2 soat o‘tgach, qondagi glukoza miqdori yana qaytadan aniqlanadi. Yashirin diabetda och qoringa tekshirilgan glukoza miqdori 6,7 mmol/l (120 mg%) dan kam bo‘ladi. Glukoza qabul qilingandan 2 soat o‘tgach, tekshirilgandagi glukoza miqdori 7,8 mmol/l (140 mg%) ga teng yoki undan yuqori, ammo 11 mmol/l (200 mg%) dan oshmaydi. Laborator tekshiruvida. Sutkalik siydikdagi qand miqdori, sutkalik siydikdagi diurez va nisbiy solishtirma og‘irlikka qaratilgan holda qand va keton tanachalarini aniqlash kerak. Sutkalik diurez siydikdagi qandning foiz miqdori va qabul qilingan uglevod miqdorini tekshirish orqali uglevod balansi aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar davolashda hisobga olinadi. Suv-tuz almashinuvining buzilishi aniqlanadi. Qonda kaliy, natriy, ishqor zaxirasi aniqlanadi (me‘yorda 55-70 hajm %). Asidoz diabet komasi yaqinlashayotganligini bildiradi. Giper-xolesterinemiya, giperglikemiya ham kuzatiladi. Asoratlari.

1. Diabet komasi. Diabet komasi qandli diabetning og‘ir asorati bo‘lib, organizmda insulin miqdorining yetishmasligi natijasida vujudga keladi. Insulin tanqisligi yuz berganda yog‘laming parchalanishi kuchayib, qonda zaharli nordon hosilalar ko‘payadi, natijada ketoatsidoz deb yuritiladigan chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu holatda qand miqdori ancha yuqori bo‘lib, siydik bilan birga, ko‘p miqdorda qand ajra-lib chiqadi, siydik miqdori ham bir necha marotaba ko‘payadi. Ko‘p siyish natijasida tana suvsizlanadi, bu esa bemorning asta-sekin hushdan ketishiga sabab bo‘ladi. Bu holat diabet komasi deb ataladi. Diabet komasi bir yoki bir necha kun davomida asta-sekin rivojlanadi. Awaliga bemor o‘zida kuchayib borayotgan holsizlik va charchoqni sezadi. Og‘zi qurib, chanqog‘i sira bosilmaydi, juda ko‘p suv ichadi. Bemor nafas olganda undan aseton hidi kelib turadi. Ba‘zan qorin og‘rig‘i va qayt qilish hollari ham kuzatiladi. Bemor atrofga befarq bo‘lib, savollarga noto‘g‘ri javob beradi, fikri chalkashib boradi va asta-sekin hushini yo‘qotadi. Nafas olish awaliga tezlashib, keyin sekin va chuqur bo‘ladi. Tomir urishini aniqlash qiyin bo‘ladi.

2. Diabet angiopatiyalari Diabet angiopatiyalari qandli diabetning qon tomirlariga beradigan surankali asorati bo'lib, ular ikki turga - diabet angiopatiyalari va makroangiopatiyasiga bo'linadi. Mayda qon tomirlarning, ya'ni kapillarning qandli diabet ta'sirida o'zgarishi diabet mikroangiopatiyasi deyiladi. Bunda mayda qon tomirlar devori qalinlashib, ularning ichki yuzasi g'adir-budur bo'lib, qon oqishi qiyinlashadi, bu mayda tomirlarning bekilib qolishiga sabab bo'ladi. Ba'zan qon tomir devorlarining mo'rt bo'lib qolishi natijasida ba'zi tomirlar ken-gayib, xaltachalarni hosil qiladi. Mo'rt bo'lgan tomirlar yorilib, atrof to'qimalarga qon quyilishi mumkin. Bu ko'pincha ko'z tubi to'r pardasida yaqqol ko'riladi. Ko'z to'r pardasidagi kapillar tomirlarning o'zgarishi natijasida ko'z xiralashadi. Ko'rish qobiliyatining bu susayishini ko'zoynak taqish bilan ham tuzatib bo'lmaydi. Ba'zi hollarda ko'z qon tomirlaridagi o'zgarishlar ko'rlikka olib kelishi mumkin. Diabet ta'sirida ko'z tubi to'r pardasidagi o'zgarishlar diabet mikroangiopatiyasi ichida eng ko'p uchraydigan tur hisoblanadi. Qandli diabet bundan tashqari yana buyrakka ham zararli ta'sir qiladi. Ko'pincha diabet nefropatiyasi mikroblar keltirib chiqargan surunkali yallig'lanish (surunkali piyelonefrit) bilan birga kechadi. Bu holat diabet nefropatiyasining kechishini og'ir-lashtiradi. Qandli diabeti bor bemorlar buyrakda biroz o'zgarish sez-ganda darhol uni davolash chorasini ko'rishlari, siydiklarini tez-tez umumiy tekshirtirib turishlari kerak.

Davosi. Qandli diabet organizmda insulin yetishmasligiga bog'liq bo'lgani sababli, davolash organizmga insulin yubo-rishga asoslangan. Kasallikning yengil darajasida insulin qo'lla-nilguncha diyetoterapiya o'tkaziladi (9- stol). Insulin ikki turga bo'linadi: 1) ta'sir muddati qisqa yoki oddiy insulindir; 2) ta'sir muddati uzaytirilgan insulin. Insulinning ta'sir kuchi 6-8 soat-ga boradi.

Uzoq muddat ta'sir qiladigan insulin qatoriga protamin rax insulin suspenziyasi, rax insulin kristall suspenziyasi kiradi. Insulinni qorin, yelka, son terisiga yuborish mumkin. Insulindan tashqari qand miqdorini pasaytiravchi dorilar ham mavjud, bularga: butamid, oranil, maninil va adebitlar kiradi. Qand miqdorini pasaytiravchi dorilar ko'pincha, ertalab va kechquran ovqat iste'mol qilayotgan vaqtda qabul qilinadi. Diabetik kora. Qonda qand miqdorining ortishi, organizm-da moddalar almashinuvi barcha turlarining buzilishi nati-jasida turli xil zaharli moddalar miqdorining ko'payishiga bog'liq. Koma holatining vujudga kelishiga sabab: noto'g'ri davolash, parhezni buzish, asabiylashish, homiladorlik, turli infeksiyon kasalliklar, operatsiyalar.

Shoshilinch yordam ko'rsatishda darhol biryo'la 50-100 TB insulin yuboriladi, 50 TB teri ostiga, 50 TB venaga. Keyinchalik hushsizlik holati davom qilaversa, insulinni 20-30 TB teri ostiga har ikki soatda, sutkasiga taxminan 200-300 birlik kiritish kerak. Insulin bilan bir vaqtda 20-30 ml 40 % II glukoza eritmasi vena ichiga yuboriladi, bundan tashqari, 600-800 ml 5% II glukoza eritmasi teri ostiga yuboriladi. Asidozni kamaytirish uchun fiziologik eritmani glukoza va soda bilan (50 g glukoza,

25g natriy bikarbonat, 1000 g fiziologik eritma) tomchili klizma qilinadi. Kollapsga qarshi kurashish uchun kamfora, kofein, kordiamin buyuriladi.

Gipoglikemik koma. Gipoglikemik koma diabeti bor bemorlarga insulin dozasini ko'p yuborish natijasida vujudga keladi. Insulin kiritilgandan so'ng, odatda, 1-2 soat o'tgach yuz beradigan keskin darmonsizlik, ko'p terlash oyoq-qo'llarning titrashi, isitma sezgisi, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, yurak urishi, ochlik his qilish, rang o'chishi gipoglikemiyaning asosiy alomatlaridan hisoblanadi. Agar bemorning hushi joyida bo'lsa, 50-100 g non va 1-2 chaqmoq qand yediriladi yoki bir stakan shirin choy ichiriladi. Behush holatdagi bemorga 50 ml 40% glukoza eritmasi venaga yuboriladi. Agar u hushiga kelmasa, 5-10 minut o'tkazib teri ostiga 500-600 ml 5%li glukoza eritmasi va 0,5-1 ml 0,1% adrenalini eritmasi takror yuboriladi. Parvarishi. Bemorni statsionarda o'ziga o'zi ukol qilishni o'rgatish o'rinli. Shprisdan qanday foydalanish kerakligini, unga qanday qilib insulin olinishini hamshira bemorga ko'rsatib beradi va bemorni sterillik qoidalariga rioya qilishga o'rgatadi. Dastlab bemor hamshiraning ko'z o'ngida o'ziga inyeksiyalar qiladi, hamshira uning xatolarini tuzatib turadi. Qandli diabeti bo'lgan bemor ovqatni qat'iy belgilangan soatlarda yeyishi, ovqat yeyishning insulin inyeksiyalari bilan bog'liq holda olib borilishiga aniq rioya qilishi kerak. Diabetli har bir bemorga terming yiringli kasalliklari profilaktikasini qunt bilan ta'minlash kerak, chunki diabetda ularga moyillik bo'ladi. Bemor vannada issiq suv bilan sovunlab cho'milishi, ich kiyimlarini, ayniqsa, yozda badan terisi ko'p terlaydigan paytlarda muntazam alish-tirib turishi kerak.

NEFRIT (buyrak yallig'lanishi) kasalligida asosan buyrak koptokchalarining tomirlari zararlanadi. O'tkir nefrit ko'pincha anginadan so'ng yoki streptokokklar qo'zg'atadigan yuqori nafas yo'llari xastaliklaridan keyin vujudga keladi. Ba'zida esa o'pka yallig'lanishi, difteriya, toshmali terlama, ich terlama, tananing o'ta sovqotishi tufayli ham paydo bo'ladi. Nefrit boshlanishida tanaga shish keladi, arterial bosim ko'tariladi. Shish ertalab yuzda paydo bo'lib, kechga yaqin kamayadi. Keyinchalik butun badanga tarqala boradi. Siydikda oqsil, eritrotsidlar, gohida leykotsitlar aniqlanadi. Dastlabki ikki-uch kun ichida siydik miqdori sezilarli ravishda kamayadi. Bemorlar kasalxonada davolanishadi. Tuzalish davrida va keyinchalik ham sovqotish hamda juda toliqishdan ehtiyot bo'lgan ma'qul.

PIELONEFRIT (buyrak jomining yallig'lanishi) mustaqil kasallik sifatida rivojlanadi, ya'ni ko'pincha siydik ajralishini qiyinlashtirishga sabab bo'ladigan siydik-tanosil xastaliklari asorati sifatida yuzaga keladi. Pielonefrit asosan buyrak to'qimasiga mikroblar kirishidan paydo bo'ladi. Mikroblar uretrit yoki tsistitga chalingan bemorning siydik nayi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi. Yoki tanada yallig'langan joylar bo'lganida (masalan, angina, tonsillit, tishlar chiriganida) infektsiya qon tomirlaridan borib buyrakka kiradi. Et uvishishi, titrab-qaqshash, tana haroratining keskin ko'tarilishi, qattiq terlash, belning bir tomonida yoki umurtqa pog'onasining ikki yonida og'riq turishi, ko'ngil aynashi, qayt qilish, og'iz qurishi, mushaklarning bezillab og'rishi singari noxush xolatlar pielonefritga xos belgilar sanaladi. Siydik tekshirilganda unda leykotsitlar va mikroblar ko'pligi aniqlanadi. Shuni

aytish kerakki, surunkali pielonefrit yillar davomida hech qanday belgisiz kechishi mumkin, uni faqat siydikni tekshirish yo'li bilangina aniqlash mumkin. Belning bir oz og'rib turishi, sal isitma chiqishi va bosh og'rig'i unchalik kuchli bo'lmagani uchun bemor do'xtirga ko'rinmasdan yuraveradi. Lekin surunkali pielonefrit vaqti-vaqti bilan kuchayib, o'tkir turga o'tadi, bunda albatta tegishli muolaja olish zarur. Aks holda buyrakning siydik ajratish funktsiyasi o'zgaradi, buyrak to'qimasi ham asta-sekin ishdan chiqadi. Natijada tana azotli chiqindilar bilan zaharlanadi.

MASLAHAT VA TAVSIYLAR:

- To'g'ri ovqatlanish buyrak tosh kasalligini davolashning muhim omilidir. Agar buyrakda urat tuzi toshi bo'lsa, bemor sutli va o'simlik mahsulotlaridan iborat taomlarni eyishi kerak. Fosfat tuzlari toshi paydo bo'lganida esa go'shtli taomlar iste'mol qilgani ma'qul. Bunda sut va o'simlik mahsulotlaridan voz kechish lozim. Shuningdek, buyrak toshi kasalligi bor kishilarga loviya, no'xat, mosh, qalampir, qovurilgan va dudlangan taomlar qat'iy taqiqlanadi.

- Pielonefritni davolashda faqat shifokor buyurganidek ovqatlanish, muhimi tuzni kamroq iste'mol qilish zarur.

- Nefritga chalingan bemorlar og'ir jismoniy mehnatdan, sovqotishdan va asabiylashishdan o'zlarini ehtiyotlashlari shart. Shuningdek, bunday bemorlar dispanserda vrach nazoratida bo'lishlari, yuqumli kasalliklardan saqlanishlari darkor.

- Siydik tosh xastaligi, nefrit, pielonefrit singari buyrak kasalliklari bilan og'riganlar tanani chiniqtirib borishlari va streptokokklar qo'zg'atuvchi tonzillit, faringit, angina singari yuqumli dardlardan juda ehtiyot bo'lganlari ma'qul.

TABIBLAR MUOLAJASI

- Sarimsoqni pishirib turp urug'i bilan birga iste'mol qilinsa, buyrak toshining tushishiga yordam beradi.

- No'xatni ezib, choynakda quyuq damlab ichib turilsa, buyrak va qovuqda paydo bo'lgan toshlar tushadi.

- Yuz gramm tomirli petrushka va bir dona kattaroq sel derey tomirini mayda to'g'rab, unga yuz gramm asal va bir litr suv qo'shiladi, so'ngra past olovda qaynagunicha aralashtiriladi. Uch kun tindirib qo'yiladi. Keyin yana bir litr suv qo'shib qaynatiladi. Sovimasdan dokadan suziladi. O'n kun davomida ovqatdan oldin uch oshqoshiqdan ichilsa, buyrakdagi qum yuvilib tushadi.

- Buyragida yallig'lanish bor bemorlar qovoq urug'ini damlab ichsalar, foyda qiladi. Shuningdek, qovoqning etini xomligicha ezib suvi chiqariladi va kuniga yarim stakandan ichib turiladi. Bu muolaja qovug'i va buyragida qum, tosh bo'lganida foyda qiladi, u erdagi yallig'lanishlarni tuzatadi.

- Vitamin K etishmaganida ham buyrak xastaligi kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun ham tarkibida vitamin K (filloxinon) bo'lgan mahsulotlar (ismaloq, karam, qichitqining yashil qismi)dan iste'mol etib turish lozim.

Buyrak kasalliklari

Bu kasalliklarning asosiy simptomlari badanga shish kelishi, qon bosimining ko'tarilishi (gipertoniya), siydik tarkibining o'zgarib qolishi, unda oqsil, eritrositlar, leykositlar paydo bo'lishidir. Buyrak parenximasining o'tkir yallig'lanish kasalliklari – nefronning koptokcha va kanalcha apparatini zararlantiradigan kasalliklarda badanda shishlar paydo bo'ladi.

Shish tez paydo bo'lib boradi, ko'pincha odamning yuzidan boshlanib, gavdasiga qo'l oyoqlariga o'tadi. Ba'zida bo'shliqlarga suv to'planadi ya'ni istisqo paydo bo'ladi. Shish paydo bo'lgan joy terisi oqarib turadi. Buyrakka aloqador shishlar paydo bo'lishi jihatidan olganda kapillyarlar o'tqazuvchanligi buzulishi va qon plazmasida oqsil miqdori kamayib qolishiga bog'liqdir. Buyrak kasalliklarida arterial bosimning ko'tarilib ketishi buyrak ichida gemodinamika buzulishi, buyrak to'qimasida ishemiya paydo bo'lishiga aloqadordir.

Gipertoniya azob beradigan bosh og'riqlari paydo bo'lishi bilan birga davom etib boradi, yurak chap qorinchasiga tushadigan nagruzkani keskin kuchaytiradi va yurak astmasi tutib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Buyrak kasalliklarida siydikni tekshirib ko'rish juda muhim ahamiyatga ega, bundan sutkalik siydik miqdorini, siydikning nisbiy zichligi reaksiyasini, unda oqsillar bor yoki yo'qligini, siydik cho'kmasi tarkibini bilib olsa bo'ladi. Buyrak kasalliklari aksari siydikda oqsil (al'buminuriya) va shuning natijasida silindrlar paydo bo'lishi bilan birga davom etib boradi. Buyrak parenximasining o'tkir yallig'lanishlarida, buyrak va siydik yo'llari o'smalarida, qovuq, siydik yo'llari shilliq pardasining turli kasalliklarida siydikda laxtalar, qirtga o'xshash ipiripirlar ko'rinishida qon paydo bo'lishi (gematuriya), qon siydikni ba'zan go'sht seli ko'rinishiga kiritib qo'yadi (makrogematuriya) yoki siydik cho'kmasining mikroskopda tekshirib qaraganda ko'rinadigan bo'ladi (mikrogematuriya).

Siydik chiqarish yo'llari, buyrak jomlari, qovuqning yallig'lanish kasalliklari siydikda leykositlar, yiring paydo bo'lishi bilan birga davom etadi (piuriya). Qovuq bo'shalib turishi maromining o'zgarib qolishi, tunda chiqadigan siydik miqdorining ko'payib ketishi (nikturiya) va shu bilan bir qatorda Zemnitskiy sinamasi (q) bilan aniqlanadigan har bir siydik partiyasi nisbiy zichligining kam bo'lib chiqishi buyraklar konsentratsiyon funksiyasining buzilganidan darak beradi. Buyrak kasalliklarining keyingi davrlarida odatda buyrakning azotni ajratib berish funksiyasi buzilib boradi, bemorning venasidan naxorga olingan qonni qoldiq azotga tekshirib ko'rish yo'li bilan shu funktsiya buzilganligi tasdiqlab olinadi. Normada qondagi qoldiq azot miqdori 14,3 - 28,6 mmol/l ni tashkil etadi. Buyraklarning azotni ajratib berish funksiyasi buzilganligi tufayli qonda qoldiq azotning ko'payib ketishi (azotemiya) organizmning oqsillar almashinuvi mahsulotlari bilan asta –sekin zaharlana borishiga va ro'y–rost uremiya klinik manzarasi paydo bo'lishiga olib keladi. Azotli chiqindilarni me'da –ichak yo'li ajratib chiqarib, yetishmay turgan buyrak funksiyasining o'rnini bir qadar to'ldirib boradi, lekin bunda azotli chiqindilar me'da va ichak shilliq pardasining ta'sirlanib borishiga, bemor qusib, ichi surib turishiga sabab bo'ladi. Buyrak parenximasining o'tkir kasalliklari ba'zan miyada qon aylanishi

izdan chiqib qoladi, odamning ko'ngli aynib qusishi, ayni vaqtda bosh og'riq, arteriyal bosimning ko'tarilib ketishi shunga bog'liq bo'lishi mumkin.

Buyragida o'tkir yoki sezilarli darajada qo'zib qolgan xronik kasalligi bor bemor kasalxonada yotib davolanishi kerak. O'rindan turmay yotishi shart. Odamning gorizontal holda issiq o'ranib yotishi buyrak tomirlarining kengayishiga yo'l ochadi va buyrak ichidagi gemodinamikani yaxshilaydi. Bundan tashqari o'rindan turmay yotish organizm energiya sarflarini va zararlangan buyrak to'qimasiga tushadigan nagruzkani kamaytiradi. Hamshira bemorning hech o'rindan turmay yotishini juda ko'z –quloq bo'lib qarab turadi, shu qoidani buzish, ortiqcha jismoniy aktivlik qilish o'tkir formadagi kasallikning tuzalmaydigan xronik formaga o'tib ketishiga sabab bo'la olishini bemorga tushuntirib beradi.

Buyrak gemodinamikasini yaxshilash uchun bel sohasiga qo'lyiladigan grellalar ko'rinishidagi quruq issiqlikdan foydalaniladi. Chiqadigan siydik miqdori keskin kamayib ketganida (oliguriyada) bel sohasiga deatermiya buyuriladi yoki vishnyovskiy usuli bo'yicha novokain bilan paranefral blokada qilinadi. Bu muolajalarning ikkalasi ham buyrakda qon aylanishini yaxshilaydi, diurezni ko'paytiradi. Paranefral blokada qilishda hamshira vrachga qarashadi, asbob va dori - darmonlarni tayyorlab beradi, blokadan keyin bemorning ahvoriga qarab boradi.

Parhezga amal qilib borish buyrak kasalliklariga davo qilishning asosiy metodlaridan biridir. Hamshira bemorga buyurilgan yeb – ichish rejimiga bemorning amal qilishini kuzatib boradi. Badanga ancha shish kelishi va gipertoniya bilan birga o'tadigan o'tkir buyrak kasalliklarida 1 – 3 kun davomida hech narsa yeb – ichmaslik yoki suyuqliklarni cheklab qo'yib, ho'l mevalar bilan glyukoza berib turish tavsiya qilinadi. Birinchi holda bemor hech narsa yemaydi va ichmaydi, venasini vitaminlar bilan birga glyukoza yuborib turiladi. Ana shunday qattiq rejim odatda kayfu ruhiyat yaxshilanib, badandagi shishlar yuqolib ketishiga, arterial bosimining pasayib qolishiga olib keladi, shundan keyin sutkali osh tuzi miqdorini 3-4g gacha qattiq cheklab qo'ygan holda ovqat rejimi asta sekin kengaytirib boriladi. Har qanday dudlangan, tuzlangan ziravorlangan masalliqlar taqiq qilib qo'yiladi. №7 va №7b parhez ovqat ana shunday talabga javob beradi. Yangi mevalar, sabzavodlar, ko'rinishida ko'p miqdor vitamin S berib borish o'rinli. Diurezni kuchaytirish uchun yengillashtiradigan parhez – qand, meva tarvuz kunlari belgilanadi. Mana shunday kunlarni o'tkazish tartibini hamshira bemorlariga tushuntirib beradi. Kaliy tuzlari badandagi shishni kamayishiga va organizmdan suyuqlikning zo'r berib chiqarib yuborilishiga yordam qiladi, bular dori preporatlari ko'rinishida va kaliyga boy ovqatlar (guruch, bargak, kartoshka) bilan beriladi.

O'tkir hodisalar bosilib qolganidan keyin va xronik buyrak kasalliklarida buyrakning azotni ahtarib chiqarish funksiyasi saqlanib turgan mahallarda ovqat oqsillari, uglevodlar, yog'lar va vitaminlar tarkibi jihatidan bekor – ko'st bo'lishi kerak, biroq osh tuzini

boyagi – boyagidek kuniga 5g gacha cheklab qo'yish kerak; tuzlangan taomlar, spirtli ichimliklar mutlaqo taqiqlanadi. Buyrakning azotni ajratib chiqarish funksiyasi buzilib turgan mahallarda sutkalik oqsillar miqdori keskin cheklab qo'yiladi, ba'zi hollarda esa mutlaqo oqsilsiz ovqat beriladi. Bemorlarga mo'l suyuqlik ichirib turish, parenteral yo'l bilan suyuqlik yuborib turish o'rinli bo'ladi. Mana shularning hammasi azotli chiqindilar, oqsil almashinuvu mahsulotlari bilan organizmning zaharlanishini kamaytiradi. Talaygina albuminuriya bilan o'tadigan va shuning natijasida qon plazmasidagi oqsillar miqdori kamayib qoladigan (gipoproteinemiya boshlanadigan) buyrak kasalliklarida ovqat bilan birga ko'p miqdorda to'la qimmatli oqsil berib turish tavsiya etiladi, bunda bemor tana massasining 1kg ga 2g oqsil hisobidan oqsil berib boriladi. Bemorlarga qo'shimcha ravishda qaynatib pishirilgan go'sht, baliq, tvarok buyuriladi. Ichiladigan suyuqlik va osh tuzi miqdori cheklab qo'yiladi. Bunday kasallarga ba'zan qon plazmasi qo'yiladi.

O'tkir buyrak kasalligi bilan og'rigan yoki xrinik kasalligi qo'zib qolgan bemorni diqqat bilan kuzatib borish va parvarish qilib turish kerak. bemor kayfu ruhiyati va ahvolining bunday qaraganda arimasdek bo'lib ko'rinadigan o'zgarishlari daxshatli asoratlarning darakchilari bo'lishi mumkin va shu sababdan hamshira diqqat e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Badan terisining odatdan tashqari quruqshab, qichishib turishi, ishtaha pasayishi, ko'ngil aynishi, qusish, chanqashning kuchayishi buyrak yetishmovchiligi zo'rayib borayotganligi va uremiya boshlanib kelayotganidan darak beradi. Bemorlarning psixikasini kuzatib borish ham juda muhim, chunki bemorlar bo'shashib, kunduz kunlari mudraydigan va tunlari uyqusi qochadigan, ko'zi xira tortib qoladigan mahallarda ko'pincha azotemik uremiya boshlanib ketadi. Mana shu belgilarning birortasi paydo bo'lganida buni darhol vrachga ma'lum qilish kerak.

O'tkir va xronik buyrak kasalliklari aksari yurak yetishmovchiligi bilan davom etib boradi, shu munosabat bilan hamshira bemor nafasi, pulsning tezligini, arterial bosimning miqdorini kuzatib borishi kerak. Kuzatuvchilarning natijalarini hamshira davolovchi vrachga ma'lum qilib turadi. Buyrak kasalliklari bilan yuzaga kelgan o'tkir holatlarda shoshilinch yordam tariqasida aksari qon olish, venaga dorilarni oqim holda va tomchilab yuborish, me'dan yuvish, yuqoriga chiqadigan tozalovchi klizmalar qo'yish usullaridan foydalaniladi. Bemorga o'z vaqtida zarur yordamni ko'rsatadigan bo'lishi uchun hamshira mana shu muolajalarni bekor – ko'st o'rganib olishi kerak.

Buyrak tosh kasalligi

Minerallar va oqsillaralmashinuvi buzilganligi munosabati bilan buyrak jomlarida toshlar paydo bo'lishi. Siydik yo'llari infeksiyasi tosh paydo bo'lishiga sharoit tug'diradi, toshlar siydikning oqib, ketishiga halal beradi, buyrak jomlarining cho'zilib ketishiga, keyin esa buyrak parenximasining bosilib atrofiyaga uchrashiga olib keladi. Siydik dimlanib qolishi o'z navbatida

siydik yo'llarida infeksiya avj olishiga sharoit tug'diradi. Toshlar buyrak jomlari bilan siydik yo'llarining shilliq pardasini shikastlab, gematuriyaga sabab bo'lishi mumkin. Bu kasallik to'satdan tutib qoladigan buyrak sanchig'i bilan namoyon bo'ladi, buyrak sanchig'i toshning siydik yo'li bo'ylab surilib borishidan tutib qoladi. Bir sanchiq tutishi bilan ikkinchi marta sanchiq tutishi orasida o'tadigan vaqt keng doirada o'zgarib turishi mumkin. Buyrak – tosh kasalligi asorat bermagan bo'lsa, buyrak sanchig'i mutmay turgan mahallarda bemor o'zini odatda to'la to'kis qanoatlanarli darajada his qiladi. Buyrak sanchig'i bel sohasida to'satdan qattiq og'riqlar boshlanib qolishi bilan xarakterlanadi, bu og'riqlar kasal tomonda bo'ladi. Oraliq, jinsiy organlar, oyoqqa o'tadi. Zahartang qilib turishi bilan birga davon etib boradi. Ko'pincha reflector yo'l bilan qusish ham qoshiladi.

Og'riqlar tabiatan chidab bo'lmaydigan darajaga yetadi, bemor o'ziga joy topmay, har yoqqa tashlanadi, karavotda u yoqdan bu yoqqa ag'anaydi. Buyrak sanchig'i tutgan mahalda odatda mikro-va makrogematuriya paydo bo'ladi. Buyrak sanchig'ini bemor yotgan joyning o'zida bartaraf etib bo'lmasa, shu taqdirdagina bermorni kasalxonaning xirurgiya (urologiya) bo'limiga yotqizish kerak.

Spazmolitik vositalar va narkotik anal'getiklardan tashqari bel sohasiga grellkalar qoyish va bemorni issiq vannaga solish naf beradi, bu chora siydik yo'lispazmini bartaraf etadi va shu bilan toshning o'tib ketishiga yordam beradi. Hamshira vrajning hamma buyurganlarini bajo keltiradi, og'riqlar bartaraf etilmaguncha bemor yonidan nari ketmaydi. Sanchiq tutib bo'lganidan kyin siydikni tekshirib ko'rish kerak. Sanchiq tutmay turgan mahalda qilinadigan davo moddalar almashinuvini asliga keltirish va yangi toshlar paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Shu maqsadda tegishli ovqat rejimi tayinlanib mo'l – ko'l suyuqlik ichib turish; siydik yo'llari infeksiyalarini davolash buyuriladi.

Ovqat rasionining xarakteri toshlarning himiyaviy tarkibiga bog'liq bo'ladi. Urat tuzlar bo'lgan mahallarda go'sht va ekstraktiv moddalar (kofe, kakao, sero'sht shurva va qo'ziqorin qaynatmalari) iste'mol qilishni cheklab qo'yish ketak. Fosfat toshlar bo'lgan mahallarda tarkibida kalsiy bo'ladigan masallqlar (sut mahsulotlari, tuxum, oshkuklar) tavsiya etilmaydi. Go'sht, baliq, xamir taomlarni, aksincha iste'mol qilsa bo'ladi. Har kuni kamida 2 l suyuqlik ichib turish o'zinli.

Pielit – buyrak jomlarining yallig'lanishi. Buyrak jomlariga mikroorganizmlar o'tib qolishi sabab bo'ladi. Kasallikni aksari ichak tayoqchasi qo'zg'atadi. Mehanik to'siq borligi (tosh, prastata bezi adenomasi, homiladorlikda kattalakshgan bachadon) tufayli buyrak jomlarida siydik dimlanib qolishi asallik paydo bo'lishiga yo'l ochadi. Kasallikning 30 – 40 C gacha temperature ko'tarilishi qaltirash, bel sohasida simillovchi og'riqlar paydo bo'lishi bilan birdan boshlanishi harakterlidir. Aksari odamni tez – tez zahartang qilib turadi va siyish vaqtida achishish seziladi. Siydik loyqa bo'lib tushadi.

Cho'kmasi mikroskopda tekshirib ko'rilsa, bir talay leyositlar topiladi. Bemorlar ko'pincha uyda muvaffaqiyat bilan davolanadi. Temperature ko'tarili turgan davrda odam o'rindan turmay yotishi erak. Mo'l – ko'l suyuqlik ichib turish tavsiya etiladi, osh tuzi miqdori bir qadar cheklab qo'yiladi. O'tkir hollarda mikroblarga qarshi preporatlar (sulfanilamidlar, ta'sir doirasi keng bo'ladigan antibiotiklar, furadonin) ishlatish yaxshi naf beradi.

Surunkali nefrit - ko'pincha ilgari bo'lib o'tgan o'tkir nefritning oqibati bo'lib hisoblanadi. Kasallikning o'tkir davri ba'zan bemor va atrofdagilarga sezilmasdan zimdan o'tadi va ro'yi – rost xronik nefrit klinik manzarasi paydo bo'lganidan keyingina o'tkir nefrit bo'lib o'tganligi ma'lum bo'lib qoladi. Xronik nefrit vaqti – vaqti bilan qo'zib turadi, kasallikning qo'zib turishi tobora ko'proq miqdordagi koptokchalarning zararlanishiga va buyrak yetishmovchiligi hamda azotemik uremiya boshlanib borishga olib keladi (xronik nefrit bilan og'rigan bemorlarning ulimiga odatda azotemik uremiya sabab bo'ladi).

Zimnidskiy sinamasini qilib ko'rganda siydik nisbiy zichligining past bo'lib chiqib, turli porsiyalarda sal – pal farq qilib turishi, tungi siydik portiyalarining ko'payib qolishi buyrak parenximasi ko'proq zararlanib borayotgani talaygina koptokchalar ishdan chiqib, o'rniga biriktiruvchi to'qima paydo bo'layotganidan darak beradi. Kasallikning qo'zib qolishiga ko'pincha streptakokk infeksiyasi (angina, saramasga aloqador yallig'lanishlar), yuqori nafas yo'llarining viruslar tufayli paydo bo'ladigan kasalliklari, sovuq qotib qolish sabab bo'ladi. shu sababdan xronik nefrit bilan og'rigan bemor shamollash kasalliklaridan, biror joyi sovuq qotib qolishdan o'zini ehtiyot qilmog'i kerak, yilning sovuq kezlarida issiq kiyim va poyafzal kiyib yurish lozim. Ish jismoniy jihatidan zo'r berish va sovuqda qolishiga aloqador bo'lmasligi kerak.

O'tkir nefritda -siydik sindromi - proteinuriya, silindrariya, makro va mikrogematuriya bilan xarakterlanadi. Jarohatlangan koptokchalar kapillarlari devorlari orqali mayda dispers albuminlarga emas, globulinlar va fibrinogen ham ajralib chiqadi. Siydikda oqsillar soni 1 dan 10 %gacha bo'ladi, ba'zi hollarda 20 %gacha ko'payadi. Lekin siydikda oqsillar faqat dastlabki 7-10 kun mobaynida ko'payib ketadi. Shuning uchun kech tekshirishlarda siydikda albuminlar miqdori uncha baland bo'lmaydi (1 %dan kam). Uncha katta bo'lmagan proteinuriya ayrim hollarda kasallikning bosh-lanishidanoq yuzaga chiqadi, boshqa hollarda esa, umuman, bo'lmasligi ham mumkin. Siydikda oqsillarning kam miqdori o'tkir nefritda ko'p vaqt saqlanishi mumkin. Bu holat 3-4-6, ba'zida 9-12 oyda umuman yo'qoladi. Gematuriya - o'tkir glo-merulonefritning doimiy va albatta yuz beradigan belgisidir. 13-15 foiz hollarda makrogematuriya, boshqa hollarda mikrogematuriya aniqlanadi, bunda siydik cho'kmasida eritrotsitlar miqdori ko'rish maydonida 10-15 tadan ko'p bo'lmaydi. O'tkir glomerulonefritda silindrariya kuzatilmasligi mumkin. Faqat 75% bemorda gialin, donali, ba'zan epitelial silindrlar topiladi.

Oq qon tanachalari - leykotsitlar glomerulonefritda kam-dan kam uchraydigan belgi bo'lib, leykotsitlarning soni eritrot-

sitlarnikidan kam bo‘ladi. Leykotsitlarning eritrotsitdan kamligi siydik cho‘kmasini Kakovski - Addis, Nechiporenko usul-larida tekshirib aniqlanadi.

Buyrak faoliyati pasaygani tufayli ba'zan qonda oz miqdorda azot qoldig‘i, mochevina miqdori ko‘payishi mumkin. Azotemiya uzoq davom etmaydi.

O‘tkir nefritda qon tarkibida gemoglobin va eritrotsitlar kamayishi kuzatiladi. Anemiyaga gidremiya (qon shishi, boshqacha aytganda qon suyulishi) va nefrit rivojlanishiga sabab bo‘lgan infeksiya (masalan, septik endokardit) olib keladi.

Eritrotsitlarning cho‘kish tezligi keskin boshlanib, shish, hansirash, bosh og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, siydik miqdorining kamayishi, siydikda oqsil va qon paydo bo‘lishi, arterial qon bosimining ko‘tarilishi bilan ifodalanadi. Shish 2-3 hafta mobaynida kuzatiladi, so‘ngra siydik miqdori ko‘paya borib (poliuriya), arterial qon bosimi pasayadi, siydikning solishtirma og‘irligi kamayadi, lekin proteinuriya, mikrogematuriya uzoq davom etishi mumkin.

O‘tkir nefritning ikkinchi - yashirin o‘tuvchi turi ko‘pincha surunkali nefrit turiga o‘tadi. Bu turida kasallik asta-sekin boshlanadi, sezilar-sezilmas hansirash, oyoqlarda shish paydo bo‘lishi bilan kechadi. Izchillik bilan o‘tkazilgan tekshiruvlarda siydik tarkibida o‘zgarishlar topiladi, bu o‘zgarishlar 2-3 oy davom etishi mumkin. O‘tkir nefrit buyrak eklampsiyasiga olib kelishi mumkin. Eklampsiya arterial qon bosimi balandligi va haddan tashqari shish ko‘payganda rivojlanadi. Buyrak eklampsiyasida bemor-ning ko‘zi zaiflashadi, tez-tez mushaklari tirishib, tomir tor-tishadi, hushidan ketadi, u tilini tishlab olishi, beixtiyor axlat va siydigini tuta olmasligi mumkin. Bu ahvol dori-darmondan keyin tuzaladi.

O‘tkir glomerulonefritning yana bir og‘ir asorati nefrotik sindrom bo‘lib, u ko‘p oqsil yo‘qotish, nihoyatda og‘ir shishlar, qon tarkibida oqsilning kamayishi, disproteinemiya bo‘lishi, xolesterinning ko‘payishi (giperxolesterinemiya) bilan ifodalanadi. Nefrotik sindromning patogenezi ko‘pchilik tomonidan tan olingan immunologik konsepsiyaga asoslangan. Nefrotik sindromni eksperimentda hosil qilish uchun nefrotoksin zardobi-ni yuborib chaqirilgan. Nefrotik sindrom rivojlanishida buyrak bazal membranasining buzilishi ahamiyatga ega. Bazal membrana-da buyrak oqsillariga qarshi antitanalar o‘tirib oladi va doimiy ravishda komplementar reaksiya sodir bo‘lishiga olib keladi. Nefrotik sindrom avjga chiqqanda qonda komplement kamayadi. Buyrakka qarshi antitanalar ko‘payadi.

Immunitetga ta'sir qiluvchi dorilar, steroid gormonning nefritga ijobiy ta'siri bu kasallikning immunoallergik xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Nefrotik sindrom rivojlanishini izohlovchi ikkinchi taxmin modda almashinuvining buzilishi (metabolizm) konsepsiya-sidir. Bu konsepsiya bo‘yicha oqsilning siydik bilan qo‘shilib chiqishi, buyrak koptokchalarining filtrlash xususiyati buzilishi oqibatidir. Zamonaviy tekshiruvlarning ko‘rsatishicha, nefrotik

sindromda buyraklarda va siydikda eravchan oqsillarning aktivligi oshishi, qonda gistamin ko'payishi, buyraklarda lizosom fermentlarning yuqori konsentratsiyasi, ularning yallig'lanish reaksiyasini keltirib chiqarishi aniqlangan. Zardobda oqsil balansining buzilishi, ularning mayda dispers oqsil fraksiyalar-ning chiqishiga hamda organizmda immunologik siljishga olib keladi.

Boshqa ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, oqsil sintezining buzilishi nefrotik sindromda retikulo-endotelial tizimning ish qobiliyati o'zgarishi natijasida vujudga keladi. Nefrotik sindromda hosil bo'ladigan qon tarkibidagi yog'larning ko'payishi kompensator xarakterda bo'lib, bu qon tarkibidagi oqsillarning kamayishiga teskari proporsionaldir. Patogeneza shishlarning paydo bo'lishini qon tarkibidagi oqsilning kamayishi va plazma-dagi kolloid-osmotik bosimning kamayishi bilan bog'lamaslik kerak. Nefrotik sindromda organizmda natriyning ushlanib qolishi, uning qayta so'rilishi (reabsorbsiya) kuchayishi, ikkilamchi (giperaldosteronizm) aldosteronning qayta ko'p ishlab chiqarilishi bilan bog'liq va bu, o'z navbatida, qon aylanishining buzilishiga olib keladi. Nafaqat buyrak kapillarlari o'tkazuvchanli-gining kuchayishi, balki boshqa to'qimalarda kapillar to'dar-ning immunologik zararlanishi ham nefrotik sindromga olib keluvchi omildir.

Klinik nuqtayi nazardan patogeneza eng muhimi oqsilning siydik orqali chiqishi bo'lib, bu nefrotik sindromda 3 g/sutkagacha va undan ko'p kuzatiladi. Siydikda oqsilning paydo bo'lishi, asosan, koptokchalar bazal membranasining zararlanishi va o'tkazuvchanligining kuchayishiga, shu bilan birga, koptok-chalarning filtri orqali yirik oqsil molekulalarning kirishiga bog'liq. Yana shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, fagotsitlarning normal funksiyasi bazal membranalarda oqsil molekulalar-ning kirishiga to'sqinlik qiladi.

Podotsitlar	funksiyasining	buzi-
lishi natijasida oqsillar ushlanib qololmaydi va ular bazal membrana orqali kiradi. Yil davomida izziz kechadigan har qanday o'tkir nefritning kechishi xronik nefritga olib keladi. Shuni ham ko'rsatib o'tish kerakki, o'tkir boshlangan diffuz glomerulonefrit ba'zan o'rtacha o'tkir ekstrakapillar nefritga olib keladi va uning yomon progressiv kechishi yaqin oylarda surunkali buyrak yetishmovchiligiga	sabab	bo'ladi.

Tashxisi. O'tkir diffuz glomerulonefritga diagnoz qo'yish unchalik qiyin emas, chunki kasallik yoshlarda uchraydi va yaqqol ko'zga tashlanadigan klinik belgilardan boshlanadi. O'tkir nefrit bilan surunkali nefritning qaytalanishi orasidagi taqqoslash tashxisi qiyinchilik tug'diradi. Bunda kasallikning boshlanishi, infeksiya bilan bog'liqlik (tonzillit, angina, rinit va hokazo) dan boshlab o'tkir nefrit holatigacha 1-2 hafta o'tadi. Surunkali glomerulonefritga qon bosimining yuqori bo'lishi, yurakning chap qorinchasi gipertrofyasi, ko'z tubining yaqqol shikastlanishi xosdir.

Siydikdagi o'zgarishlar har xil bo'lishi mumkin, lekin surunkali nefrit uchun siydik zichligi va filtrlash vazifasi pasayishi xosdir (gipo-, izostenuriya), o'tkir nefrit uchun yurak faoliyatining yetishmasligi (hansirash, shishlar, yurak astmasi, bradikardiya), kasallikning o'tkir kelib chiqishi (makro- va mikrogematuriya) xos. O'tkir nefritning yashirin turi va piyelonefritning solishtirma tashxisi qiyinchilik tug'diradi. Bunda siydik cho'kmasida eritrotsitlarning leykotsitlardan ustunligi, oqsillarning yo'qligi,

anamnestik ko'rsatmalar yo'qligi, rentgenourologik, ultratovush, skanir, radioizotop, biopsiya tekshirishlari yordam beradi. O'tkir nefrit bilan buyrak sili va boshqa buyrak kasalliklari orasida solishtirma tashxis o'tkazish lozim. Davolash. Bu kasallikni davolashda bemorni diqqat bilan to'g'ri parvarish qilish, davo rejimini saqlash va diyetoterapiyaga amal qilish kerak. Bu jarayonda hamshiraning roli katta. Teri parvarishiga katta e'tibor berish (ya'ni shish, yotoq yaralar kelib chiqishiga), ichaklar funksiyasi va yurak ishini doimo nazorat qilish kerak. Diurezni ichilgan suyuqlikka nisbatan siydikdan tashqari organizmdan chiqib ketayotgan (ter, qusish, ich ketish) suyuqlikka nisbatan har kuni hisoblash, faqat siydik miqdorigina emas, balki uning rangi, tiniqligini ham nazorat qilish lozim. Shishlar yo'qolguncha va arterial bosim normal holatga tushguncha (3-4 hafta) o'rinda qimirlamay yotish, parhez tutish, dorilarni qabul qilish, asoratlarni, infeksiyon kasalliklarni bartaraf etish zarur. Bemorga tuzi kam parhez taomlar (7- stol), antibiotiklar (penitsillin, ampitsillin) 10-14 kun; sulfa-nilamidlardan: nitroksolin, polin gramurin va boshqalar buyuriladi. Antiallergik, desensibilizatsiyalovchi dori-darmonlar foydalidir (dimedrol, kalsiy xlor), qon bosimi yuqori bo'lsa, gipotenziv vositalardan dibazol, papaverin, adelfan, klofelin, raunatin, rauvazan, apressin tavsiya qilinadi. Siydik haydaydigan diuretiklar laziks, furosemid, gipotiazid, veroshpiron, antikoagulant va antiagregantlar ham buyuriladi.

O'tkir glomerulonefritning nefrotik sindromida va uning uzoq cho'zilib ketgan holatlarida kortikosteroid gormonlardan prednizolon 60-100 mg dan sutkasiga 4-8 hafta davomida, keyin sekin-asta kamaytirib boriladi, fizioterapevtik muolajalardan diatermiya arterial bosimni pasaytiradi va beldagi og'riqlarni, shishni kamaytiradi. Shifoxonadan chiqarilgan bemorlar 4 oygacha to'liq davolangungacha ambulatoriya nazoratida turadilar (o'tkir glomerulonefrit yaxshi kechganda ham). Oqibati. O'tkir nefritda butunlay sog'ayish kuzatiladi. O'tkir nefrit kasalligidan odam o'ladi. U faqat miyaga qon quyilishi, yurak funksiyasining yetishmasligi, o'pka yallig'lanishida yuz beradi. O'tkir nefrit 1/3 hollarda surunkali turga o'tadi. O'tkir nefritning oqibati ma'lum darajada kasallikning erta aniqlanishi va to'g'ri davolanishiga bog'liq. Hozirgi vaqtda kortikosteroid-lar qo'llanilishi tufayli kasallik ancha kamaydi. O'tkir davrda kasallar ish qobiliyatini yo'qotadilar va kasalxonalarda yotishlari kerak. Tipik kechishida 2-3 oydan keyin to'la tuzaladi. Kasallar ishga qaytishlari mumkin. Siydik sindromi va albumin qoldig'i bo'lsa ham o'tkir nefrit kasalligi bilan og'rgan bemorlarni dispanserda kuzatib turish kerak. Bu, asosan, siydik sindromi bilan og'rgan bemorlar uchun juda muhim. Kasallik qaytarilmasligi uchun organizmdagi infeksiyon zararlarni olish kerak. Kasal yil davomida sovuqotish, ayniqsa nam, sovuq ta'siri bilan bog'liq ishlardan o'zini asrashi kerak. Profilaktikasi. O'tkir glomerulonefrit bilan og'rgan bemorlar ro'yxatga olinib, shifoxonadan chiqqandan so'ng har 10 kunda, keyinchalik 1 oyda bir marotaba, so'ng 2-3 oyda bir marotaba hamshira tomonidan nazoratga chaqirilib, tekshirilib turiladi. Bu kasallik bilan og'rgan bemorlar sovuq va namgarchiligi yuqori bo'lgan xonalarda ishlamasliklari, og'ir mehnat bilan shug'ullanmasliklari kerak. Bu kasallik bilan og'rgan bemor ayolga 3 yilgacha homilador bo'lish mumkin emas. Bemor quruq va

issiq iqlimli kurortlarga yuboriladi. Infeksion kasalliklar va infeksiya o'choqlarini davolash, og'iz bo'shlig'ini sanatsiya qilish va sovqotishdan saqlanish kerak.

5.1.1. Surunkali yalpi glomerulonefrit

Surunkali glomerulonefrit - buyrak koptokchalarining uzoq davom etadigan immunoallergik yallig'lanishidir. Bu kasallik buyrak koptokchalarining asta-sekin shikastlanishi hisobiga buyrak faoliyatining susayishi, arterial qon bosimining oshishi va buyrak yetishmovchiligining rivojlanishi bilan ifodalanadi.

Sabablari. Surunkali nefrit o'tkir glomerulonefritdan so'ng va birlamchi surunkali glomerulonefrit sifatida ham rivojlanadi. Surunkali glomerulonefrit aksari immun tabiatli bo'lib, zardoblar, vaksinalar, antigenlar, zaharli moddalar, ba'zi dorilar, sovuq ta'sirida rivojlanadi. Ba'zi dorilar „o'tkir“ zaharli buyrak kasalliginigina emas, balki yalpi glomerulonefrit rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Surunkali glomerulonefrit sil, zahm, bakterial endokardit, gemorragik vaskulit, tugunli periar-terit va boshqa kasalliklarda ham rivojlanadi.

Patogenezi. Nefritning surunkali ko'rinishi makroorga-nizmdagi immunologik, ayniqsa, autoimmun o'zgarishlar darajasiga bog'liq.

Patologik anatomiyasi. Surunkali glomerulonefritning klinik ko'rinishi va buyrakdagi anatomik o'zgarishlar bir-biri bilan sindrom ustun bo'lsa, buyrak hajmi katta, ustki pardasi oson ajraydigan, yuzasi silliq, och kulrang bo'ladi (katta oq buyrak). Po'stloq qismi kengaygan och kulrang bo'lib, qizg'ish miya qismidan ajralib turadi. Mikroskopda buyrakning ilonizisimon naychalari kengayganligini, epiteliy to'qimasida shish, buj-mayish, donachali yoki vakuolali distrofiya hodisalarini ko'rish mumkin.

Buyrakni punksiya biopsiya usuli bilan tekshirish natijasida surunkali glomerulonefritning quyidagi gistologik turlari farq qilinadi: 1) pardali (membranali) glomerulonefrit - buyrak koptokchalarining bazal pardasida to'qimalarning birlashuvi va qalinlashuvi bilan kechadi; 2) to'qimalar ko'payib zichlashuvi bilan kechuvchi (mezangial) glomerulonefritda koptokchalar to'qima elementlarining o'zgarishi kuzatiladi; 3) koptokchalarda biriktiruvchi to'qima paydo bo'ladi (fibroplastik glomerulo-nefrit). Glomerulonefritning so'nggi bosqichida buyrak bujmaya-di, o'lchamlari kichrayadi, miya qismi donachalari bilan qoplanib, po'stoq qismi yupqalashadi. Koptokchalar bo'shab, o'rnida biriktiruvchi to'qima paydo bo'ladi, buyrak bujmayadi, buyrakning ikkilamchi bujmayishi paydo bo'ladi.

Klinik manzarasi. Surunkali glomerulonefritning klinik manzarasi uning turlariga bog'liq. Xastalik, asosan, uch guruh sindromlar ko'rinishidanamoyon bo'ladi. 1. Siydikdagi o'zgarish-lar: proteinuriya, gematuriya, silindruriyadan iborat. 2. Qon bosi-mi ko'tarilishi natijasida paydo bo'lgan o'zgarishlar. 3. Badanda shish paydo bo'lishi sababli paydo bo'lgan o'zgarishlar. Surunkali glomerulonefritning quyidagi klinik turlari farq qilinadi.

1. Yashirin kechuvchi (latent) glomerulonefrit eng ko‘p uchraydigan turi bo‘lib, 44% ni tashkil qiladi. Bu turdagi glomerulonefrit siydikda biroz o‘zgarishlar borligi bilan ifodalanadi, qon bosimi oshmaydi, shish ham ko‘rinarli darajada bilinmaydi. Xastalik, yashirin davr 30-40 yil o‘tgach ham yana yuzaga chiqishi mumkin. Bemorlar uzoq yillar davomida ish qobiliyatlarini yo‘qotmaydilar, xastaliklarini sezmaydilar. Ko‘pin-cha surunkali glomerulonefritning yashirin turi yo‘qotilganlikda boshqa xastalik bo‘yicha shifokorga murojaat qilish yoki dispanserizatsiya vaqtida siydikdagi o‘zgarishlar (solishtirma og‘irlik pasayganligi, qizil qon tanachalari ko‘proq ajralayotgani, tunda siydikning ko‘proq ajralishi), qon bosimining biroz oshganligi, ECHT ning tezlashgani, qonda oqsil moddasi kamaygani, xolesterin ko‘payganligi asosida aniqlanadi. Aksariyat yashirin kechuvchi surunkali glomerulonefrit buyrak faoliyati buzilib, yetishmovchilik rivojlanganda aniqlanadi. Buyrak yetishmovchiligi esa qonda qoldiq azot, mochevinaning miqdori oshishi bilan yuzaga chiqadi.

2. Surunkali glomerulonefritning nefrotik ko‘rinishi. Siydik orqali katta miqdorda oqsil ajralishi (sutkada 3,5 g dan ko‘p), qonda oqsil moddasi (gipoproteinemiya), ayniqsa albumin/globulin koeffitsiyentining kamayishi (disproteinemiya), xolesterin moddasining ko‘payishi (giperxolesterinemiya) - 600 - 800 mg%) bilan ifodalanadi. Bemorlarning badanida gipoproteinemik (oqsil kamayishi natijasida) shishlar paydo bo‘ladi. Bunday shishlar boshqa shishlardan farqli bo‘lib, yuz-ko‘z qovoqlaridan boshlanadi va asta-sekin butun badanga tarqaladi. Ular doimiy xususiyatga ega bo‘ladi, hatto ichki a‘zolarga, yurak, o‘pka va qorin pardalariga, bo‘shliqlarga tarqaydi. Teri shilliq pardalari quriydi, mushaklar kichrayadi (atrofiya), oqibat natijada teri bujmayadi.

Siydik orqali oqsil chiqishi bilan birga, qon tarkibida uch-glitsid va ozod xolesterin ko‘payadi. Surunkali glomerulonefritning nefrotik ko‘rinishi nefrotik sindrom va buyrak yallig‘lanishi belgilari (siydik bilan qon chiqishi, buyrak filtrlash xususiyatining pasayishi) bilan birga namoyon bo‘ladi. Xastalikning boshlang‘ich davrida qon bosimi oshmasligi mumkin, lekin so‘nggi davrida balandlashadi.

3. Surunkali glomerulonefritning gipertonik ko‘rinishi. Ko‘pin-cha yashirin kechuvchi glomerulonefritga xosdir. Bemorlarni tekshirishda, asosan, qon bosimi ko‘tarilganligi aniqlanadi. Qon bosimi xastalikning boshlanishida doimiy bo‘lmaydi, aksariyat

sovuq va asab buzilishi ta'sirida kechga tomon ortadi. Buyrak faoliyati pasaygach, sistolik va diastolik bosim muntazam oshib borib, 200/120 mm simob ustuniga yetadi, asta-sekin yurak faoliyati ham buziladi, yurak cho'qqisining turtkisi kuchayadi, cho'qqi sohasida I ton susayib, sistolik shovqin paydo bo'ladi, aortada II ton kuchayadi, ot chopganda eshitilgani kabi yurak tovushlari tez va baland gupirlab eshitiladi, so'ngra yurak faoliya-ti yetishmovchiligi qo'shiladi, yurak astmasi xuruji va hatto o'pka shishi paydo bo'lishi mumkin. Surunkali glomerulonefritda qon bosimi asta-sekin oshadi, yurakning ishemik kasalligi, stenokardiya rivojlanadi. Ko'z tubidagi tomirlarda o'zgarishlar paydo bo'ladi, ko'z tubida qon quyilish hodisasi ham uchraydi. Kasallikning oxirgi davridagina ko'z to'r pardasida davolab bo'lmaydigan jiddiy o'zgarishlar paydo bo'lishi mumkin. Qon bosimi buyrakning qonsirashi va renin faolligining ko'payishi natijasida oshadi. Arterial qon bosimi buyrak yetishmovchiligi davrida va kasallik shiddatli kechganda juda baland va turg'un bo'ladi. Bemorda miokard infarkti, bosh miyaga qon quyilish hollari ro'y berishi mumkin. Surunkali glomerulonefritning aralash ko'rinishi. Bu ko'rinish uchun qon bosimi oshishi va nefrotik sindrom borligi xosdir. Ammo bu sindromlarning belgilari bir xil darajada yuzaga chiqmasligi mumkin. Aksariyat kasallik avj olgan davrda 1 yoki 2 sindrom yuzaga chiqadi. Masalan, siydikdagi o'zgarishlar sindromi (proteinuriya, gematuriya, silindruriya), bemorning umumiy ahvoli 2-5 yil o'zgarmay, qoniqarli bo'ladi, so'ngra buyrak faoliyatida yetishmovchilik rivojlanadi. Surunkali glomerulonefritning klinik kechishi 2 bosqichdan iborat: 1. Buyrakning azot ajratish faoliyati saqlanadi. Bu bosqich uzoq davom etib, yashirin o'tadi va faqat siydikda paydo bo'la-digan o'zgarishlar orqali namoyon bo'ladi. 2. Buyrak faoliya-ti-ni-ni buzilish bosqichi. Bu bosqich xastalik boshlangandan so'ng 1 oydan 30 yilgacha davr ichida boshlanishi mumkin. Xastalikning shiddatli turida tezroq, yashirin o'tuvchi turida kechroq bosh-lanadi. Bu bosqichda buyrak faoliyati pasayadi. Azot ajratish, siy-dikni quyuqlashtirish faoliyati pasayadi. Siydikdagi o'zgarishlar kamayadi, solishtirma og'irligi kamayib, 1007-1008 atrofida bo'ladi. Siydik bilan oqsil moddasi muttasil ajralib turadi. Qon bosimi muntazam baland bo'ladi. Badanda shish paydo bo'ladi, qon tarkibidagi mochevina, kreatinin, indikan ko'payadi, oqsil esa kamayadi. Tashxisi va solishtirma tashxisi. Agar bemor ilgari o'tkir nefrit o'tkazgan hamda surankali nefritning hamma klinik manzarasi yaqqol bo'lsa, tashxis qo'yish qiyin bo'lmaydi. Lekin surankali nefrit yashirin kechsa yoki gipertoniya surankali nefrit bo'lsa, tashxis qo'yish mushkullashadi. Bemor o'tkir nefrit o'tkazmagan bo'lsa, lekin siydigida bir-oz oqsil hamda gematuriya aniqlansa, unda buyrakning boshqa kasalliklari haqida (piyelonefrit, buyrak tomirining qisilib qolishi, buyrakning anomaliyasi) o'ylash kerak va shu kasalliklardan farqlash lozim. Surankali nefritning gipertonik xilini gipertoniya kasalligi bilan taqqoslash qiyin bo'ladi. Surankali nefritda siydikdagi o'z-garishlar gipertoniya-gacha, yurakning chap qorinchasi gi-pertrofiyasi gipertoniya kasalligiga nisbatan kamroq bo'ladi.

Gipertoniya xuruji „krizi“ surunkali nefritda kamroq uch-raydi. Surankali nefritda gipertoniya kasalligiga nisbatan yurak toj tomirining aterosklerozi sekin va kam rivojlanadi. Surankali nefritni surankali piyelonefrit bilan taqqoslash tashxisi o'tkazilganda siydik cho'kmasidagi eritrotsitlar, leykotsitlar soniga ahamiyat beriladi. Leykotsitlar sonining ko'pligi, aktiv leykotsitlar bo'lishi, buyrakni rentgenourologik tekshirganda buyrak jomlari strukturasining o'zgarganligi surankali piyelonefrit bor-ligidan dalolat beradi.

Surankali nefritning nefrotik xilini buyrak amiloidozi, diabetik glomeruloskleroz, jigar sirrozi bilan taqqoslash lozim. Surankali nefritning nefrotik xilida buyrakning yallig'lanish belgilari (gematuriya, gipertoniya), buyrak koptokchalari filtratsiyasining kamayishi va buyrakning konsentratsiya qilish faoliyatining pasayishi diagnoz qo'yishda asosiy rol o'ynaydi. Buyrakni biopsiya qilib tekshirish tashxisini aniqlaydi. Amiloidozdan farqlash uchun og'iz shilliq pardasi gisto-logik usulda tekshiriladi. Rentgen nuri yordamida buyrak va siydik ajralish yo'llarini ko'zdan kechirish, izotop va kontrast modda yordamida buyrakning rentgen suratini olish, UZD yordamida tekshirish, buyrak tomirlarini tekshirish (angiografiya) kerak. Buyrak to'qimasini tekshirish - punktsion biopsiya usulini qo'llash xastalikni aniqlashga yordam beradi.

Xronik nefrit qo'zib qolgan davrida bemor kasalxonaga yotib davolanishi lozim huddi o'tkir nefritda qilinganidek, hech o'rinday turmay yotish va qattiq parhez qilib borish lozim. Buyraklarning azotni ajratib chiqarish funksiyasi buzilganini ko'rsatadigan belgilar (tobora ko'p chanqash, badan terisi va shilliq pardalarning qurib turishi, ishtaha pasayishi ko'ngil aynishi, qusish ich surishi, og'izdan ammiyak hidi kelishi, AD bosimning odatdagidan ko'ra ko'tarilishi, uyqu maromining buzulishi, boshashib qolish, qondagi qoldiq azot miqdorining ko'payib ketishi) paydo bo'lganidan sutkalik oqsil iste'moli keskin cheklab qo'yiladi (25g.gacha), dezintoksikatsiya maqsadida teri ostiga yoki venaga tomchi usulida 5% glyukoza eritmasi va 0,85% NaCl eritmasi yuborib turiladi, meda ichak yo'li orqaliajraladigan azotli chiqindilarni chiqarib tashlash uchun meda takror – takror yuviladi. Ichiladigan suyuqlik cheklanmaydi, sutkalik osh tuzi 8g gacha yetkaziladi. Spirtli ichimliklar ichish qat'iyan taqiqlab qo'yiladi.

O'tkir nefrit. – Buyrak koptokcha aparatining infeksiyon – allergik yallig'lanishi (glomerulonefrit) bu kasallik odatda odam streptokokk infeksiyasi (angina, skarlatina, saramas)ni boshidan kechirgan va sovug'da qolib ketganidan keyin paydo bo'ladi. kasallik badanga shish kelishi bosh og'rig'i gipertaniya bel sohasida simillab turadigan og'riqlar paydo bo'lishi temperatura ko'tarilishi bilan birdan boshlanadi. Dastlabki kunlarda oliguriya ko'riladi, talaygina gematuriya borligi tufayli chiqadigan siydik aksari go'sht seliga o'xshagan bo'ladi. bemor kasalxonaga yotib davolanishi kerak. Bemor hech o'rnidan turmay yotishi kerak badanga sezilarli darajada shish kelgan va gipertoniya bo'lgan mahallarda bemorga hech nima yeb ichmasdan yotish buyuriladi (ochlik va chanqoqlik rejimi). Miya shishib qolishi tufayli kasallikning dastlabki kunlarida ba'zan eklampsiya tutqanog'i tutib qolishi mumkinligini esda tutish kerak. Bosh og'rig'ining kuchayishi psihikaning o'zgarishi arteriyal bosimning ko'tarilib borishi ko'zning hira tortib borishi, bemorni ortiqcha ta'surotlardan (ravshan yorug'lik qattiq ovozlari va boshqalardan) ehtiyot qilish

zarur). O'z vaqtida talaygina qon olish venaga yoki muskullar orasiga magniy sulfat yuborish, klizma qilib xloralgidrat yuborish eklampsiya komasi boshlanishiga yo'l qo'ymaydi.

7a – son parhez dasturxon tayinlash uchun ko'rsatmalar. O'tkir glomerulonefrit (qandli, kartoshkali kunlardan keyin), buyrak yetishmovchilii bilan kechadigan surunkali nefrit.

Tayinlashdan maqsad. Kasal buyrakni iloji boricha ehtiyot qilish, ipertenziya va shishlarga ta'sir yetish, ularni kamaytirish.

Dasturxonning umumiy tavsifi. Tuzsiz tayyorlangan, oqsillar keskin cheklangan, yog'lar va karbonsuvlar fiziologok me'yor atrofida chearalangan parhez dasturxon. Bunda ovqat tuzsiz tayyorlanadi. Maxsus tuzsiz non yopiladi, tayyorlanayotgan ovqat mahsulotlarida natriy miqdori 400mg atrofida bo'ladi, bu esa 1g osh tuziga to'g'ri keladi.suyuqlik miqdori 1000 ml gacha bo'ladi (bunga mahsulotlardai suyuqlik ham kiradi). Azotemiyasi bo'lgan bemorlarga davolovchi vrach ko'rsatma bilan 1 – 3g osh tuzi qo'shimcha beriladi. Bu bemorlarga bundan oldingi sutkada qancha siydik ajratgan bo'lsa, shuncha miqdorda yoki undan 300 – 400ml ortiq suyuqlik berishga ruhsat etiladi. Ovqatlanish rejimi tez-tez, sutkasiga 5 – 6 marta.


Dasturxonning kaloriyasi va tarkibi. Oqsillar – 20g, yog'lar -70-80g, karbonsuvlar – 350g, kaloriyasi – 2000 – 2200. C va B guruhi vitaminlari ko'pkaytirilgan miqdorda beriladi.

Tayyorlash usuli. Barcha taomlar tuzsiz, qirilgan mahsulotlardan tayyorlanadi. Non ham tuzsiz yopiladi. Taomlarni qovurish mumkin emas.

Beriladigan tamlar. Oqsili kam, makkajo'xori kraxmali qo'shib tayyorlangan tuzsiz non, (1 kunga 100g) yoki 50g 1 kunga bug'doy unidan drojji qoshib tayyorlangan tuzsiz non mahsulotlari. Ruhsat etilgan miqdorda sabzavotli, mevali sho'rvalar (go'shtsiz). Sho'rvalarga piyoz qaynatib, so'ng ozgina passerovka qilib solinadi hamda smetana va osh ko'klar solinadi. Kuniga 50 – 60g og'irlikda yog'siz go'sht , tovuq, quyon, indyuk, baliqlarni qaynatin yoki qaynatgandan song o'zgina qovurib yoki duovkada dimlab beriladi. Kuniga 60g sut (go'sht o'rniga sutning miqdorini oshirish mumkin). Tuxum havtasiga 2-3dona (omlet yoki chala pishgan holda). Oqsili kam makaron mahsulotlari, sago, guruch kam miqdorda. Bu mahsulotlarni suv va sut qo'shilgan suyuqlikda kashasimon, palov ko'rinishida tayyorlab yoki kotlet qilib beriladi. Kartoshka va sabzavotlardan har hil taomlar tayyorlanadi (kadibiyron, mevo va sabzavot dimlamasi, bug'lama behi, ajabsanda, bug'lama qovoq va b.) Sabzavodlardan turli salatlar tayyorlanadi.

AMINOKISLOTALAR ALMASHINUVINING BUZILISHI

'Fenilketonuriya. Bu kasallikni birinchi bo'lib Norvegiyalik vrach F. Felling aniqlagan. U **ikkita** aqliy vajismoniy tomondanzaif bolalar ning siydigida ma'lum bir hid borligini sezadi. Bu bolalarning siydigini biokimyoviy usulda tekshirilganda juda ko'p miqdorda pirovinograd kislotasi borligi ma'lum bo'ladi. Sog'lom odam qonida bu modda uchramaydi. Hozirgi kunda bu kasallikning kelib chiqish sababi fenilalanin aminokislotasiga bog'liqligi aniqlangan. Fenilalanin norma-



Fenilalaninning parchalanishi.

da *fenilalanin gidroksidaza* fermenti ishtirokida tirozinga aylanadi. Tirozidan boshqa fermentlar ishtirokida DOFA yoki 3,4-digidro-fenilalanin, noradrenalin, adrenalin va melanin hosil boiadi . Agar fenilalaningidroksidaza fermentining hosil bo'lishini ta'minlovchi gen mutatsiyaga uchragan bo'lsa, bu ferment hosil bo'lmaydi va ketma-ket bo'ladigan yuqoridagi ko'rsatilgan biokimyoviy jarayonlar kuzatilmaydi. Natijada, fenilalanin tirozinga aylanmasdan qonda to'planib, siydik bilan chiqadigan pirovinograd kislotasini hosil qiladi. Bu kislota nerv hujayralarini zaharlaydi va aqliy zaiflikka olib keladi. Tirozinning hosil bo'Mmasligi esa melaninning miqdorini juda kamay-iirib yuboradi. Qonda melanin kam bo'iganligi uchun bunday kasallar-ning terisi sarg'ish oq bo'ladi. Kasallarda aqliy zaiflik ularning bir yoshligidayoq seziladi va ayrimlarida o'zidan ketib qolish holatlari (tutqanoq) kuzatiladi. Kasallik kech aniqlanib davolanmagan boisa, kasalning ahvoli juda og'irlashadi. Bu kasallik autosomadagi retsessiv genta'siridayuzagachiqib, bolalar orasida 1 : 1000 nisbatda uchraydi. Odatda aqliy zaif bolalarning 1-2 % ida fenilketonuriya kasalligi bo'ladi.

Bu kasallikni aniqlashda asosan biokimyoviy usuldan foydalaniladi. Siydikka bir necha tomchi 5% FeCl₃ eritmasidan tomizilganda yashil rang paydo bo'ladi. Kasallikni davolashda parhez asosiy rol **o'ynaydi**, ya'ni kasal fenilalanin aminokislotasi ko'p bo'lgan ozuqalarni iste'mol qilmasligi kerak. Kasallikning oldini olishda siydikning dastlabki biokimyoviy tahlili va genetik vrachning maslahati katta rol **o'ynaydi**.

Alkoptonuriya. Bu kasallikda fenilalanin va tirozinning keyingi ko'rinishlarga o'tish jarayoni (metabolizm) buziladi. Fenilalanin hiso-biga va ovqat bilan organizmga tushgan tirozin normada P- gidroksi-fenilpirovinograd kislotasiga aylanadi. Bu kislota esa, o'z navbatida *gomogentiztnoksidaza* fermenti yordamida gomogentizin kislotasiga aylanadi. Alkoptonuriya kasalligida esa, gomogentiznoksidaza fermentining sintezini belgilovchi gen mutatsiyaga uchragani uchun organizmda bu ferment juda kamayib ketadi. Natijada, to'qimalard; va fiziologik suyuqliklarda gomogentizin kislotasi to'planib qoiadi.

Alkoptonuriyalı kasal siydigidagi alkopton havoda oksidlanganligi uchun siydik tezda qorayib qoladi. Yoshlikda alkoptonuriya kasalligi sezilarisiz bo'lib, yosh ulg'aygan r.ari kasallikning belgilari paydo bo'hi boshlaydi va qo'shuvchi to'qimalarda gomogentizin kislotasi to'planib bo'g'inlardagi tog'aylar sariq-binafsha rangga kiradi, quloq suprasi va burun tog'aylari qorayadi. Yosh ulg'aygan sari tog'aylarda qoni pigment to'planib bog'in kasalliklari paydo bo'ladi. Bu kasallik 5 : 1 000 000 nisbatda uchraydi. Davolashda parhez asosiy hisoblanib. kasal fenilalanin va tirozini ko'p bo'lgan ozuqalarni kam iste'mol qilishi kerak.

Albinizm. Bu kasallik tirozinni melanining aylantiruvchi *tiroattQZa fermenti* sintezini boshqaruvchi genning mutatsiyaga uchrashi hisobig;;: sodir bo'ladi. Albinizm kasalligida terida, sochda, ko'zning rangdoi pardasida rang bo'lmaydi va ko'zning ko'rish qobiliyati ancha susayadi Albinizm kasalligi to'liq yoki qisman paydo bo'lishi mumkin. To'liq albinizm autosomadagi retsessiv gen ishtirokida yuzaga chiqsa, qisman albinizm esa autosomadagi dominant gen bilan yuzaga chiqadi. To'liq albinizm 1 : 15 000, qisman albinizm 1 : 20 000 nisbatda uchraydi. To'liq albinizmda teri va sochda pigment boimaganligi uchun teri va soch oq boiadi, ko'zning rangdor pardasida rang bo'lmaganligi uchun qon tomirlar ko'rinib turadi va shuning uchun ko'z qizil rangda bo'ladi. Qisman albinizmda terining ayrim joylaridagi oq dog'lar (pigmentsiz joylar) kuzatiladi. Ayrim holatlarda soch oq bo'lib, teri va ko'z pigmentli bo'ladi. Faqat ko'zda pigmentning bo'lmaslik holan ham kuzatiladi. Bunday kishilarga yorug'lik tez ta'sir qiladi. Ayrim holatlarda albinizm kasalligida eshitmaslik va ayrim a'zolar rivojlanishi-da qator kamchiliklar kuzatiladi. AQSH da to'liq albinizmli kishilar yashaydigan qishloq bor. Ular faqat kechasigina tirikchilik qiladi. kunduzi esa uylaridan tashqariga chiqishmaydi. Amerikalik olimlar ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazib turishadi. Hozirgi kunda ular utfiun teriga surtiladigan dori yaratdilar. Bu dori teriga surilgach odam quyoshda 2 soat yurishi mumkin.

Albinizm bir necha genokopiyalidir, ya'ni kasallardagi bir xil fenotipni har xil genotiplar yuzaga chiqaradi. Kasallik autosom retsessiv hisoblansa-da, autosom-dominant holatda ham yuzaga chiqishi mumkin. Bu esa albinizm kasalligining bir xil klinik belgini namoyon qiluvchi allel bo'lmagan genlar mutatsiyasi hisobiga paydo bo'lishini ko'rsatadi. 224

UGLEVODLAR ALMASHINUVINING BUZILISHI

Uglevodlar altnashinuvining buzilishi bilan yuzaga chiqadigan kasalliklar xilma-xildir. Organizmdagi mono-, di- va polisaxaridlarni parchalovchi fermentning sintezida qatnashuvchi genning mutatsiyasi natijasida *galaktozemiya*, *fruktozuriya*, *pentozuriya*, qand kasalligi va boshqa kasaltiklar yuzaga chiqadi. Glikogenning to'planib qolishidan glikogeneza va uglevodlar aminining to'planishidan esa mukopoli-saxaridoz kasalliklari paydo bo'ladi.

Galaktozemiya. Bu kasallik organizmda galaktozo-1-fosfatni parchalovchi galaktozo-1-fosfaturidiltransferaza fermentining yetishmasligi tufayli yuzaga chiqadi. Organizm galaktozani o'zlashtira olmaydi. shuning uchun u qonda va to'qimalarda to'planib, orga-nizmga zaharli ta'sir ko'rsata boshlaydi. Natijada, jigarda o'zgarish paydo bo'ladi; buyrak ishi buzilishidan oqsillar siydikka o'tadi. Shuning uchun bu kasallikda siydikda oqsil va aminokislotalar ko'p bo'ladi. Kasallik bolada ona sutini ema boshlagan dasllabki kunlardayoq paydo boiadi. Kasallik belgilari quyidagilardir: qayt qilish, sarg'ayish, ozish, ich keiish, organizmda suv miqdorining kamayishi, ichki organtar rivojlanishining buzilishi, aqliy zaiflik, kasallikning og'ir turida bola bir necha oydan keyin o'ladi, kasallik 1 : 70 000 nisbatda uchraydi.

Kasallikka tashxis qo'yishda qondagi galaktoza miqdori aniqlanadi. Galaktozemiya kasalligida galaktozaning miqdori oshib ketadi. Kasallikni vaqtida aniqlab, parhez bilan davolash mumkin.

Mukopolisaxaridozlar. Bu kasaUiklar mukopolisaxaridlar almashi-nuvining buzilishidan kelib chiqadi. Mukopolisaxaridlar lizosomalarda ko'plab to'planadi, chunki lizosomada ularni parchalovchi fermentlar bo'lmaydi. Mukopolisaxaridoz kasalligi bitan og'riganlarda skelet, kalla suyagi, yuz, ko'z va ichki oiganlar tuzilishi o'zgaradi va aqliy zaiflik kuzatiladi. Mukopolisaxaridlar taloq, tog'ay, suyak ko'migi va qo'shuvchi to'qimalarda to'planib, qon va siydikka ajralib chiqadi. Bu kasallik bilan og'rigan bolalar uzog'i bilan 12 yoshgacha yashashi mumkin. Hozirgi kunda mukopolisaxaridoz kasalligining 7 xili mavjud bo'lib, barchasi ham bir xil fenotipni yuzaga chiqaradi. Mukopoli-saxaridozlarning barcha turi autosomadagi retsessiv gen orqali irsiyatga o'tadi.

PURIN VA PIRIMIDIN ALMASHINUVINING BUZILISHI

Purin va pirimidin almasliinuvining buzilishidan kelib chiqadigaJ irsiy kasallik organizmda *qipoksantin-fosforibozil-transferaza* (GFRT)B fermentining yetishmasligidan paydo bo'ladi. bu ferment erkin holat-B dagi purin birikmalari bo'lgan guanin va gipoksantinining nukleotid-M larga aylanish jarayonini tezlashtiradi. Agarbu ferment yetishmaydigatm bo'lca, organizmda siydik kislotasining miqdori oshib ketadi. Agail sog' odamda normada 1 g siydik kislotasi boisa purin va pirimidinH almashinuvining buzilishidan paydo bo'ladigan kasalliklarda uniiigl miqdori 20-3p g ga teng bo'ladi. Kasallik belgilari bolaning chaqaloq I davridayoq yuzaga chiqa boshlaydi va muskullar qisqarishining 1 kuchayishi va ta'sirchanlik xususiyalining oshishi bilan namoyon bo'ladi. J Gemoglobinopatiya. Bu kasallik gemoglobin strukturasiningl o'zgarishi bilan yuzaga keladi. Masalan, o'roqsinion shaklli eritrosit- I larga ega bo'lgan kam qonlik kasalligida B- bog'niig 6- holatida valin I glutamin kislotasi bilan almashishi gemogiobinda yomon eruvchanlik I va yuqori polimerlanish xususiyatining paydo boiishiga olib keladi. I Shunday belgisi bo'yicba geterozigotali oiganizmlar odatda sog'lom I

bo'ladilar. Lekin havoda kislorod miqdori kamayishi bilan kasallik belgilari paydo bo'la boshlaydi. Gomozigotali organizmlarda esa kasallik belgilari juda erta boshlanadi va surunkasiga kisiorodga [o'yinmaslik, kam qonlik, qon aylinishining buzilishi va tromboz fiodialari kuzatiladi. Gemoglobinning yuqorida ko'rsatilgan o'zgarishi bezgak kasalligi keng tarqalgan joylarda ko'p uchraydi, chunki gemoglobindagi bu o'zgarish eritrositiarni ularga tushgan bezgak parazitiga chidamli qilib qo'yadi va geterozigotali organizmlarning yashash qobiliyatini oshiradi. o'rta Osiyo va Kavkaz ortining bir qator tumanlarida geterozigotali (tashuvchi) va kasal gomozigotali kishiiar ko'plab uchraydi. Kasallik autosom-retsessiv holatda nastdan-naslga o'tadi.

Gemofiliya. Bu kasallik qonning ivishini ta'minlovchi oqsilni sintez qiladigan ferment strukturasining buzilishi natijasida yuzaga chiqadi. Gemofiliya kasalligining irsiy xiisusiyatiga ega ekanligi ilgaridan ma'lum. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda bu kasallik bilan faqat crkaklar kasallanishi V asrdayoq ma'lum bo'lgan. Hozirgi kunda gemofiliyaning bir qancha turiari ma'lum (A, B, C, D). Gemofiliya bilan tug'ilgan bolaning kindigi kesilganda qon ketishi to'xtamasdan bola Halok bo'lishi mumkin. Qon ketishining to'xtamasligi ozgina jarohatlangan ichki organlarda ham yuz beradi.

Gemofiliya kasalligi, odatda, faqat erkaklarda uchraydi, chunki bu kasallikni keltirib chiqaruvchi relsessiv mutant gen X-xromosomada joylashgan boiib, Y- xromosomada bu gen uchramaydi. Gemofiliya kasalligi bilan og'rigan ota o'zining gemofiliyani yuzaga chiqaruvchi mutant geni bo'lgan X- xromosomasini qiziga beradi. Ammo bu X- xromosomani olgan qiz gemofiliya bilan og'rimaydi. chunki unda shu genning dominanl alleli bo'lib (X^H), geterozigotali organizmda ($X^H X$) domtnant gen belgisi yuzaga chiqadi. Ammo bu qiz kasal bo'lmasa-da, shu kasallikni tashuvchi hisoblanadi. Tashuvchi ona cndi o'zidagi gemofiliya kasalligi genini o'z o'g'illariga o'tkazadi. Gemofiliya kasalligi aholi orasida 1 : 5 000 nisbatda uchraydi.

1 ta lotin harfi bilan belgilanadi va ularning sonlari qo'yiladi (A_1, A_2, A_3, A_4). Poligen irsiyatga misol qilib terining rangini olish mumkin. Terining rangi bir-birini to'ldiruvchi besh juft dominant genlari ishtirokida idora qilinadi ($A_1A_2, B_1B_2, C_1C_2, D_1D_2, E_1E_2$). Terida melanin hosil bo'lishi bir juft gen ta'sirida yuzaga chiqadi, lekin qolgan 4 juft genlar esa melanin hosil bo'lish miqdorini aniqlaydi.

Terining rangi unda hosil bo'lgan pigment miqdoriga bog'liq. Afrikaliklar terisida pigmentning ko'p bo'lishiga sabab ularda alkl 4 juft dominant genlar bo'ladi. Yevropaliklarda esa dominant genlar yo'q, lekin 4 juft retsessiv genlar bor. Bo'yni uzunligi, vazni, yashash muddati, qon bosimi, barmoqlar uzunligi va hokazolar belgilar hisoblanadi. ^

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talaba oshqozon-ichak yara kasalliklari, revmatoid artrit, nefrit, qandli diabet, shizofreniya kasalliklarining etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasi va davolash usullarini haqida mustaqil fikrlay oladi va bu kasalliklarni dif.diagnostika qiladi, profilaktik chora-tadbirlarni mustaqil o'tkaza oladi.
71 – 85 ball	Talaba oshqozon-ichak yara kasalliklari, revmatoid artrit, nefrit, qandli diabet, shizofreniya kasalliklarining etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasi va davolash usullarini haqida biladi va bu kasalliklarni dif.diagnostika qiladi, profilaktik chora-tadbirlarni o'tkaza oladi.
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, oshqozon-ichak yara kasalliklari, revmatoid artrit, nefrit, qandli diabet, shizofreniya kasalliklarining etiologiyasini, klinikasini, diagnostikasi va davolash usullarini haqida to'liq bilmaydi. profilaktik chora-tadbirlarni o'tkaza olmaydi.
0 – 55 ball	Oshqozon-ichak yara kasalliklari haqida jada ham sayoz bilimga ega. Profilaktik chora-tadbirlarni o'tkaza bilmaydi.

Amaliy mashg'ulot № 6

Mavzu: Nasliy kasalliklarni prenatal diagnostika qilish. Tibbiy - genetik maslahati

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti.	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi (10 daqiqa)	1. Auditoriya tozaligini nazorat qilish 2. Talabalarning mashg'ulotga tayyorgaligini tekshirish 3. Davomatni tekshirish	Tinglaydilar
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot silaydalarini tayyorlash 3. Fanni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish - Klinicheskaya genetika. Bochkov N.P., Moskva, Meditsina, 1997. - Meditsinskaya genetika dlya vrachev. Lil'in E.T, Bogomarov E.A, Gofman - Kadoshnikov P.B. Moskva Meditsina	Mavzuni yozib oladilar. Tinglaydilar.

	1983g • Meditsinskaya gegnetika // Bochkov N.P., Zaxarov A.F., Ivanov V.I., Meditsina, 1984 • Tibbiyot genetikasi // Nishanbaev K.N., Xamraeva F.A., ʻOshonkulov O.ʻO. Abu Ali Ibn Sino, 2000	
2 – asosiy bosqich (60 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga boʻlib, mavzu boʻyicha savollarni beradi 2. Koʻrgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydlar, multimediyalardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzu boʻyicha berilgan maʼlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni ragʻbatlantiradi va umumiy baholaydi.	Kichik guruhlariga boʻlinadilar. Tomosha qiladilar. Qatnashadilar. Tinglaydilar. Talabalar savollarga oʻz nuqtai nazarlarini bildiradilar, qoʻshimchalar qiladilar va savollar beradilar.
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	1. Yakunlovchi xulosa qiladi 2. Mustaqil ish beradi 3. Uyga vazifa beradi	Eshitadilar. Xulosalarni yozib oladilar. Toshiriqni oladilar.

--	--	--

Mavzuga oid savollar;

1. Tibbiyot-genetika maslaxatining asosiy vazifasi nima?
2. Tibbiyot-genetika maslaxatini amalgam oshirish bosqichlari.
3. Prenatal diagnostika o'tkazishning ahamiyati.
4. Irsiy kasalliklarni davolash prinsiplari.

Mavzu bo'yicha interaktiv usullar:

“Charxpalak”

O'yin uchun kerak:

Savollar to'plami va vaziyatli masala, alohida qog'ozda chiqarilgan

Har bir talaba va gurux uchun alohida bo'lish kerak

Toza qog'oz va ruchka

O'yin borishi.

O'yinning umumiy vaqti - 45 min

Guruh 3 ta kichik guruhlariga bo'linadi (har bir kichik guruhga 4 talaba)

Har bir kichik guruh alohida stolga o'tiradi. Toza qog'oz tayyorlaydi va bitta ruchkani oladi.

Qog'ozga sana, guruh nomeri, o'yinning nomi va shu guruh qatnashchilarning ismi sharifi yoziladi.

Qatnashchilardan biri konvertdan savol yoki vaziyatli masalani oladi (guruh uchun savol yoki vaziyatli masalani o'qituvchining o'zi tanlab oladi)

Har bir gurux uchun alohida savol yoki vaziyatli masala tanlab olinadi, lekin ularning murakkabligi bir xil bo'lishi kerak

Guruh bilan birgalikda mulohaza qilib va olingan javobni 1 talaba kog'ozga yozib oladi.

Taxlil qilish 15 min davom etadi

O'yinda talabalar ishtirokini assitent tekshirib boradi

Vaqt o'tgandan keyin, talabalar ishini o'qituvchilarga topshiradi

Barcha natijalar taxlili qilinib eng to'g'ri javob tanlab olinib, maksimal ball beriladi.

Taxlil qilish 15 min davom etadi

Talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy bahoga ta'sir ko'rsatadi
1) o'rin 86-100 ball. 2) o'rin 71-85,9ball. 3) o'rin 55-70,9 ballgacha
Javoblarning oxiriga assistent ball va imzo qo'yadi
talabalar olgan ball amaliy mashg'ulotdagi joriy bahoga ahamiyati bor.

1. Tibbiyot-genetika maslaxatining asosiy vazifasi nima?
2. Tibbiyot-genetika maslaxatini amalgam oshirish bosqichlari.
3. Prenatal diagnostika o'tkazishning ahamiyati.
4. Irsiy kasalliklarni davolash prinsiplari.
5. Perspektiv maslaxat berishni
6. Retrospektiv maslaxat berishni
7. Tibbiy genetika maslaxatining asosiy vazifasini
8. Mijolarga yo'llanma berishni
9. Tibbiy genetika maslaxati to'rt bosqichi
10. Empirik usulni
11. Geneologik usulni
12. Perspektiv maslaxat berishi shart
13. Retrospektiv maslaxat berishi shart
14. Tibbiy genetika maslaxatining asosiy vazifasini biliashi shart
15. Mijolarga yo'llanma berishi bilishi shart
16. Tibbiy genetika maslaxati to'rt bosqichini bilishi shart
17. Empirik usulni bilishi shart
18. Geneologik usulni bilishi shart
19. Proban kartasini no'ldira bilishi shart
20. Jinsiy xromatinni aniqlay olishi va taxlil qilishi shart
21. Bioximiyaviy tekshirish va uning natijalarini izoxlay olishi shart
22. Dermatoglifik tekshirish va uning natijalarini izoxlash

Mashg'ulot mazmuni:

Tibbiyot - genetikasi maslaxati genetik - vrach tomonidan irsiy patologiyasi bo'lgan kasalga va uning oilasiga ko'rsatiladigan ixtisosli tibbiy yordam bo'lib, u maxsus tibbiy muassasa - tibbiyot - genetika maslaxatxonasida amalga oshiriladi. Tibbiyot - genetika maslaxatining asosiy vazifasi irsiy kasallikka nisbatan notinch bo'lgan oilada pragnozni (irsiy patologiyaning namoyon bo'lish ehtimolligi) aniqlash va shu pragnoz asosida profilaktika choralarini amalga oshirishdir. Profilaktika chora tadbirlari deganda oilada irsiy kasallik bolaning tugilishini oldini olish tushuniladi. Shuningdek maslaxatxonaga kelganlarga irsiy xatarlik mazmuni va ularga farzand ko'rish mumkin yoki mumkin emasligi tushuntiriladi. Genetik vrachning vazifasiga irsiy kasallik tashxisini aniqlash uchun xatarli guruhni ajratish uchun, maxsus irsiy tekshirishkarni amalgam oshirish.

- a) agar oilada irsiy patologiyali bola tugilib, o'lgan yoki hayot bo'lsa yoki tugilishi gumoni bo'lganida;
- b) oilaning bir nechta a'zolarida o'xshash patologik simptomlar yoki kasalliklar, ba'zi ovqatlarni yoki dorilarni ko'tarolmaslik xolatlari kuzatilganda;
- v) bolalarda jismoniy va ruhiy rivojlanishdan orqada qolish, xar xil tugma rivojlanish nuksonlari kuzatilganda;
- g) xomiladorlikning odatda oxirigacha yetmasligi, birlamchi amenoriya, jinsiy a'zolar gipoplaziyasi yoki oilada birlamchi bepustlik xolatlarida;
- d) er - xotinlar qon - qarindosh bo'lganda. Hozirgi kunda irsiy kasalliklarga duchor bo'lgan kishilar sonini kamaytirish tibbiy-genetik maslaxatning qanday uyushtirilganligiga bogliq. Genetik uyushtiriladigan maslaxatlar axoliga ko'rsatiladigan maxsus tibbiy yordamlardan biridir. Genetikadan maslaxat beruvchi dastlabki tibbiy qabulxonalar 1967 yildan boshlab tashkil topdi. Tibbiy-genetik maslaxatning asosiy vazifalariga tugilgan bolada irsiy kasalliklarning kelib chikish sabablarini bilish va irsiy kasalliklar paydo bo'lishining oldini olish va x.k. kiradi.

Ota-onaga maslaxat berish shifokor tomonidan bir necha bosqichga bo'linadi.

Maslaxatning birinchi bosqichida kasallikning irsiy yoki irsiy emasligi o'rganilib kasallikka aniq tashxis qo'yiladi. Bu bosqichda shifokor-genetik kasallik bor oilaning genetik strukturasi juda yaxshi o'rganib o'rganilayotgan kasallikning dominant , retsessiv yoki jinsga bogliqligi aniqlanadi.

Maslaxatning ikkinchi bosqichida o'rganilayotgan oilada kasal bolaning tutilish ehtimoli va shu kasallikning monogenli yoki poligenli ekanligi aniqlanadi.

Maslaxatning uchinchi bosqichida shifokor yozma ravishda tushunarli qilib kelgusi nasl to'grisida ma'lumot beradi.

Yakuniy bosqichda shifokor ota-onaga ularning farzandlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kasallik to'grisida juda ehtiyotlik bilan atroflicha tushuntirish kerak.

Tibbiy-genetik maslaxatni iloji boricha ko'proq o'tkazish lozim. Shu vaqt ichida shifokor genetik xavfning qandayligini tushuntirishga erishadi va ota-onada aniq bir fikr paydo bo'ladi. Oxirgi farzandli bo'lish yoki bo'lmaslik to'grisida xulosani ota-onaning o'zlari xal qilishlari kerak, lekin ayrim xollarda otada yoki onada kasallik bo'lsa shifokor ularga farzandli bo'lishni tavsiya qilsa bo'ladi.

1. Ota onalardan birida biokimeviy buzilish aniqlangan autosoma dominant kasallik bo'lganida ;
2. Onaning yoshi 35 dan yuqori bo'lganda;
3. Ota onalar yaqin qarindosh bo'lganda;
4. Ota yoki onaning mutagenlar va teratogenlar ta'sirida bo'lganligi (onaning xomiladorlik davrida xam) aniqlanganda;
5. Bola tushishi xollari kuzatilganda; pushtning jinsiga ona qornidagi davrida aniqlash jinsga bogliq irsiy kasalliklarda bola tug'ish masalasini hal qilishda katta ahamiyatga ega.

Amniotsintez usuli bilan olingan amnion suyuqligidagi xujayralarda X-xromatinni aniqlash mumkin (bu usul 18-20 xaftagacha o'tkaziladi). Usul aytarli murakkab bo'lmay, lekin ayrim kamchiliklardan xam xoli emas. Chunki Barr tanachasi soglom qizlardagina emas, Klaynfelter sindromli o'gil bolada ham uchraydi. Barr tanachasining uchramasligi soglom o'gil bolada xam, Shereshvskiy - Turner sindromli qiz bola xam kuzatiladi. X xromosomal aberratsiyalarda va mozaitsizm xolatlarida xam xatolikka yul qo'yish mumkin. Xozirgi davrda Y-xromatinni aniqlash xam yo'lga qo'yilgan. Bu usuldan Y - xromosomaning soni ortib kelganligiga shubxa tugilganida foydalaniladi. Akrixin bilan buyalganda Y xromosomaning uzun yelkasi interfazada kuchli flyuorestsizlanadi. Flyuorestsizlangan Y-tanachalari soniga qarab to'plamda

Y xromosoma soni aniqlanadi: 46, XY bo'yalganida bitta tanacha; 47 XYY da - ikkita, 48 XYYY da - uchta tanacha aniqlanadi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, uning erdamida Y-xromosomasining flyuorestsizlanmaydigan qismini aniqlab bo'lmaydi, xuddi shu qismida esa urugdonlarning rivojlanishini aniqlovchi genlar joylashadi.

Prenatal diagnostikaning ko'pchilik usullarida amnion suyuqligining xujayralaridan foydalanilgani uchun amniotsintez usuli bilan batafsil tanishamiz. Bu usul maxsus akusherlik bo'limida vrach akusher tomonidan amalga oshiriladi. Agar ehtiyot chorasi ko'rilmasa yuldozning buzilishi natijasida xomila nobud bo'lishi mumkin.

Xomiladorlik muddati aniqlangandan so'ng, ultra tovush bilan tekshirish orqali yuldozning yopishgan joyi aniqlanadi va maxsus mandrenli igna bilan qorin hamda bachadom duvori va xomila pardalari orqali amnion suyuqligigacha igna kiritiladi. Keyin mandrenni sugurib olib shprints yordamida 10-20 ml amnion suyuqligi olinadi. Odatda (95-97% xolatlarda) amnion bo'shligiga birinchi urinishdayoq tushiladi. Agar hech qanday asorat sezilmasa, 1 - 2 soatdan keyin xomilador ayolga uyiga javob berish mumkin.

Amniotsintezdan keyin pusht olib tashlansa ba'zan asorat sifatida K.N -sensebilizatsiya kuzatilishi mumkin.

Agar amniotsintez xomiladorlikning 32 xaftasidan keyin amalga oshirilsa pushtning shikastlanishi kuzatilishi mumkin.

Hozirgi kunda irsiy kasallikJarga duchor boigan kishilar sonini kamaytirish tibbiy-genetik maslahatning qanday uyushtirilganligiga bog'liq. Genetikadan uyushtiriladigan maslahatlar aholiga ko'rsatila-digan maxsus tibbiy yordamlardan biridir. Genetikadan maslahat beruvchi dastlabki tibbiy qabulxonalar 1967- yildan boshlab tashkil topdi. Ko'pgina viloyatlarda ham shunday qabulxonalar ishlay boshladi.

Tibbiy-genetik maslahatning asosiy vazifalariga tug'ilgan bolada irsiy kasallik bo'lish yoki boimasligini aniqlash, irsiy kasalliklarning kelib chiqish sabablarini bilish va irsiy kasallik paydo bo'lishining oldini olish va hokazolar kiradi. Odatda tibbiy-genetik maslahatga oilada og'ir kasal yoki jismoniy zaif bo'lgan farzandi bor ota-onalar muhtoj bo'ladilar va ularni keyingi farzandlarining qanday tug'ilishligi o'ylantiradi. Urug'ida og'ir irsiy kasallik bo'lgan kishilarni ham kelgusi naslining qanday bo'lishligi qiziqtiradi. Bunday qiyin muammolarni yechishda shifokorga katta mas'uliyat yuklanadi. Chunki shifokor o'zining qabuliga kelgan ota-onaga, ularning keyingi farzandi sog'lom yoki kasal bo'lib tug'ilishi to'g'risida aniq javob berishi kerak. Bu masalada shifokor adashishi mumkin ernas, aks holda ota-ona va **tug'ilgan** kasal bolaning butun umri azob chekish bilan o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bu kasallikning irsiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar - yetarlicha bo'lganda shifokor ota-onaga ularning farzandli bo'lishi xavfli ekanligini tushuntiradi,

Ayrim holatlarda esa sog'lom bo'lgan ota-onalar o'zlarining urug'ida irsiy kasallik bo'lganligi uchun oilada kasal farzand tug'ilishidan qo'rqadilar. Bunday holatlarda kasallikni atroflicha o'rga-nib, shunday oilalarga farzandli **bo'lish** baxtiga ega ekanliklarini aytishi kerak. Lekin oilada kasal bolaning tug'ilish ehtimoli kam, ya'ni 25 % bo'lsa ham shifokor bo'lajak ota-onaga farzandli bo'lishlarini tavsiya qilmasligi kerak. Bu ko'rsatgich ota-ona uchun kichik ko'rinsa-da oilada tug'iladigan birinchi farzand kasal bo'lib tug'ilishi mumkin ekanini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun genetik shifokor ota-onaga bu kasallik to'g'risida atroflicha tushuntirib, maslahatni bir necha bosqichda o'tkazishi lozim.

Maslahatning birinchi bosqichida kasallikning irsiy yoki irsiy emasligi o'galiilib, kasallikka aniq tashxis qo'yiladi. Bu bosqichda shifokor genetik kasallik bor oilaning genetik strukturasini juda yaxshi o'rganib, o'rganilayotgan kasallikning dominant, retsessiv yoki jinsga bog'liqligi aniqlanadi.

Maslahatning ikkinchi bosqichida o'rganilayotgan oilada kasal bolaning tug'ilish ehtimoli va shu kasallikning monogenli yoki poligenli ekanligi aniqlanadi. Kasallik dominant gen (A) bilan yuzaga chiqadigan bo'lsa, AA va Aa genotiplar kasal bo'lib, aa esa sog'lom hisoblanadi. Agar oilada ota-onadan bittasi geterozigotali bo'lib (Aa), ikkinchisi gomozigotali (aa) sog'lom

bo'lsa, kasal bola tug'ilish ehtimoli 1 : 1 nisbatda boiadi. Kasallik retsessiv gen (a) ta'sirida yuzaga chiqadigsin bo'lsa, ikkala sog'lom ota-onadan ham kasal bola tug'ilishi mumkin. Agar ota-ona geterozigotali bo'lsalar sog'lom ota-onadan ham kasal bola tug'ilishi mumkin (Aa, Aa). Har bir geterozigotali ota-onadan ikkitadan (A, a) 4 ta gametalar hosil boiadi. Bu gametalarning o'zaro qo'shilishidan 4 xil genotip hosil bo'ladi: AA, Aa, Aa, aa. Shu genotiplarning 3 tasida dominant (A) gen bo'lganligi uchun bu organizmlar sog'lom hisoblanadi. Ikkita retsessiv geni bo'lgan organizmda esa kasallik yuzaga chiqadi. Demak sogiom ota-onadan kasal bola tug'ilishi ehtimoli 25 % ekan. Agar ota-onadan biri dominant gen bo'yicha gotnozigotali bo'lsa bolalarning barchasi sog'lom bo'ladi.

Kasallik bitta emas bir necha genlar ishtirokida yuzaga chiqadigan boisa. keyingi avlodlarda o'rganilayotgan belgining dominant yoki retsessiv holda yuzaga chiqishini aytish juda qiyin. Chunki ota-onaning genotipini va o'rganilayotgan belgining keyingi avlodlardan qanday ajralishini oldindan aytib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday kasalliklar bo'yicha bir necha yillar mobaynida olingan ma'lumotlarga asoslanibgina kasallikning keyingi avlodlarda paydo boiish ehtimolini bilish mumkin. Lekin ko"p uchraydigan ayrim poligen kasalliklar (tutqanoq, shizofreniya) bo'yicha keyingi avlodlarda kasal bolalarning mg'ilish ehtimoli to'g'risida ma'lum bir fikrni aytish mumkin. Masalan, agar ota-onaning ikkalasi ham shizofreniya bo'yicha sog'lom bo'lib, oilada sog'lom bola tug'ilgan boisa, keyingi bolaning kasal tug'ilish ehtimoli 1 % ni tashkil qiladi, chunki populatsiyada shu kasallikning 230

uchrash 1 % ga teng. Agar ota-onadan bittasi kasal bo'lsa, uiarning birinchi bolasining kasal bo'lib tug'ilish ehtimoli 19 %, ota-onaning ilckalasi ham kasal boisa birinchi bolaning kasal bo'lib tug'ilishi

Iehtimoli 59 % ga teng. Maslahatning uchinchi bosqichida shifokor yozma ravishda tushunarli qilib kelgusi nasl to'g'risida maiumot beradi. Agar tug'ilajak bolada kasallikning yuzaga chiqish ehtimoli 5 % bo'lsa genetik xavf pasi, 10 % gacha boisa ko'paygan, lekin yengil shaklda, 20 % gacha boisa xavf yuqori deb hisoblanadi. Xavf 10 % boisa ota-onaning far/andli boiishiga shifokor ruxsat bersa bo'ladi. Lekin ona homilador

Ipaytida uning boiajak farzandini genetik ko'rikdan o'tkazish kerak bo'ladi. Yakuniy bosqichda shifokor ota-onaga ularning ftrzandlarida sodir bo'lishi mumkin boigan kasallik to'g'risida juda ehtiyotlik bilan atroflicha tushuntirishi kerak. Chunki barcha ota-ona farzandli bo'lishni xohlaydi. Shuning uchun shifokor aholi orasida tug'ilayotgan bolalarning 4-5 % i irsiy kasalliklar bilan tug'ilishini ham aytib, kasal bolalarning tug'ilishi faqat shifokor qabuliga kelgan kishilarninggina oilasida emas. boshqa oilalarda ham mavjudligini eslatishi lozim.

Guruhlarning bilim va ko'nikmalarini baholash me'zonlari.

86 – 100 ball	Talaba tibbiy genetika maslahatlari prinsiplarini biladi, mustaqil mushohada yurita oladi. Tibbiy genetika maslahatini o'tkazish uchun ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni biladi. Oilani rejalashtira oladi va tibbiy genetika usulini qo'llay oladi.
71 – 85 ball	Talaba tibbiy genetika maslahatlari prinsiplarini biladi, Tibbiy genetika maslahatini o'tkazish uchun ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni biladi. Oilani rejalashtira oladi va tibbiy genetika usulini qollay oladi.
55 – 70 ball	Mavzuga oid savollarga o'rtacha darajadagi javob beradi, tibbiy genetika maslahatlari prinsiplarini to'liq bilmaydi. Tibbiy genetika maslahatini o'tkazish uchun ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilmaydi.
0 – 55 ball	Talaba tibbiy genetika maslahatlari prinsiplari haqida jada ham sayoz bilimga ega. Tibbiy genetika maslahatini o'tkazish uchun ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni bilmaydi.

G L O S S A R I Y

Avtopoliploidiya - poliploidiya shakllaridan biri bulib, ayni turning genomi kupayishi natijasi

Ajdod effyekti - dastlabki kichik bulgan populyatsiyada kandaydir nodir genning kup tarkalishi.

Allyel - genning xolatlaridan biri. Allel genlar gomologik xromosomalarning ~bir xil lokuslarida joylashadi va alternativ belgilarni namoyon kiladi.

Allopoloidiya - xromosomalar gaploid tuplami ning xar xil turlar yoki avlodlar genomi kushilishi natijasida kupayishi. Bunday duragaylar meyoza buzilishi sababli odatda nacl koldirmaydi.

Amniotsyentyez - prenatal diagnostika maksadida pushtning amnion bushliida amnion suyukligini olish muolajasi. .

Antigyen - ayni organizm uchun genetik jixatdan yot bulgan modda. Kimyoviy tabiatiga nisbatan ular oksil, glikoproteid yoki polisaxarid bulishi mumkin. Viruslar, mikroorganizmlar xatto organizmning uz xujayralari xam antigen bulishi mumkin.

Anyeuploidiya (Gyetyeroploidiya) - xujayralarda xromosomalarning balanslashmagan tuplamining mavjudligi.

Axondroplaziya - uzun, naysimon suyaklar usishining susayishi bilan xarakterlanadigan autosoma dominant kasallik. Kasallikda bosh va gavda ulchamlari me'yorida bulsa xam kul oyokdar juda kalta buladi.

Galaktozyemiya - laktozaning surilishini nazorat kiluvchi ferment sintezining buzilishi natijasida kelib chikadigan autosoma- retsessiv kasallik.

Gyen Ekspryessiyasi - DNKda kodlashgan informatsiyaning oksil biosintezi, transkriptsiya va translyatsiya jarayonlarida ruyobga chikishi.

Gyenyetik KoD - irsiy axborotning DNK (retro-viruslarda RNK) zanjirida nukleotidlar ketma-ketligi sifatida yozilish sistemasi. Kod triplet xolatida buladi, bitta aminokislota turrisida axborot uchta kushni nukleotid orkali belgilanadi.

Gyenom - gaploid tuplamdagi (l) xromosomalar yigindisi. Genom turni xarakterlaydi, genotip esa - in-dividiumni. Diploid organizmlarda genom gametalar-ning xromosomalarini ifodalaydi va genetik taxlil birligi sifatida foydalaniladi.

Gyenotip - organizmning genetik konstitutsiyasi, uning diploid tuplamidagi xamma alellar yigindisi.

Gyemoglobinopatiyalar - gemoglobin sintezini nazorat kiluvchi gen mutatsiyalari asosida kelib chikadigan xilma-xil kasalliklar guruxi.

Gomologik Xromosomalar - kattaligi, shakli, genlari bir xil bulgan juft xromosomalar.

Gomozigota - bitta genning bir xil allellariga ega bulgan organizm (aa yoki AA).

Diskordantlik - zgizaklarda tor reaktsiya normasiga ega belgilardagi farkdir.

Duplikatsiya - xromosoma aberratsiyalarining bir xili bulib, uning kismlaridan birining ikki xissa ortishi.

Jins - organizmning jinsiy kupayishda yshtirok etishga va irsiy axborotni gametalar orkali avlodlarga utkazishga imkon beruvchi xususiyatlar yigindisi.

Invyersiya - xromosoma ichidagi aberratsiyalardan biri bulib, bunda xromosomaning (yoki genning) bir kismi uzilib, 180° ga aylanib, yana kaytadan uz joyiga joylashadi.

Irsiyat - irsiylanish jarayoni orkali organizmlarning avlodlar almashinishi davomida moddiy va funktsional uzluksizlikni ta'minlovchi xususiyat.

Kariotip - xromosoma tuplami belgilarining yigindisi (soni, shakli, ulchami) bulib, xar bir tur uchun uziga xos buladi.

Krossingovyer - 1 meyoz profazasida gomologik xromosomalarning kismlari bilan almashinishi (natijada genlar va belgilarning yangi kombinatsiyalari kelib chikadi).

Myeyoz - gametalarning etilish usuli, etilmagan jinsiy xujayraning bulinishi natijasida xromosomalar mikdorining ikki xissa kamayishi.

Mitoz - notutri bulinish, eukariotlar uchun xos jarayon. Mitoz tufayli kizlik xujayralar teng va bir xil irsiy axborotni oladi va har bir xujayra 2p tuplamga ega buladi.

Monosomiya - xromosomalarning diploid tuplamida 2 ta gomologik xromosomalardan birining etishmasligi ($2i-1$, masalan 45,XO).

Mutatsiya - yangi belgi yoki xususiyatning kelib chikishiga sabab buluvchi gen, xromosoma yoki genom darajada irsiy axborotning uzgarishi.

Plyeyotropiya - bitta genning kup belgiga ta'sir kila olish xususiyati - genning kup tomonlama ta'siri. Uning klassik misoli Marfan sindromidir. Pleyotropiya birlamchi va ikkilamchi bulishi mumkin.

Proband - genealogik analiz uchun ma'lumotlar tuplanadigan shaxs (patsient).

Transkriptsiya - informatsiyaning DNKdan RNKga kuchirilishi. DNK matritsadan RNK sintezlanishi.

Translokatsiya - xromosoma aberratsiyalaridan biri, genlar joyining uzgarishi.

Translyatsiya - informatsiyani RNKdan polipeptidga kuchirish, ribosomada RNK matritsasi asosida polipeptid sintezlanishi, nukleotidlar tilini aminokislotalar tiliga "tarjima kilish".

Transpozitsiya - genning bitta xromosomada joyini uzgartirishi.

Trisomiya - genom mutatsiyasi, bunda diploid tuplamdagi bitta yoki bir nechta xromosoma 2 tadan emas 3 tadan bulib koladi.

Fyenotip - genotipning muxit bilan uzaro ta'siri natijasida yuzaga chikadigan, organizmning xamma xususiyatlari va belgilari yigindisi.

Xromatin - interfaza yadrosida buyaladigan modda, dezoksiribonukleoproteidning dispersiyalashgan xolati.

Ekspressivlik - belgining fenotipik yuzaga chikish darajasi, tulikmas ekspressivlik xavotir darajasini va kasallikning avlodda yuzaga chikishiga kamaytiradi.

Epistaz - noallel genlarning uzaro ta'sir shakllaridan biri bulib, bunda bitta allel (epistatik) ikkinchi noallel (gipostatik) genning ta'sirini bugib kuyadi.

Mundarija	
Fanning o'qitilishiga qo'yilgan DTS talab va tavsiyalari.....	3
Fanning namunaviy dasturi.....	4
Fanning ishchi dasturi.....	14
Fan bo'yicha talabalar bilimini baholash tartibi.....	22
Adabiyotlar ro'yxati.....	23
Fanni o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.....	24
Yakuniy baholash savollari.....	28
Testlar.....	30
Ma`ruzalar uslubiy ishlanmasi.....	97
1- ma'ruza.....	97
2- ma'ruza.....	109

.....	
Amaliy mashg'ulotlar uslubiy ishlanmasi.....	118
1- mashg'ulot.....	118
2- mashg'ulot.....	129
3- mashg'ulot.....	138
4- mashg'ulot.....	149
5- mashg'ulot.....	161
6- mashg'ulot.....	191
Glossariy.....	198

